

M.B.ARTIKOVA, A.V.UMAROV

**PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA TALABALARNING
MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Artikova Muhayo Botiraliyeva, Umarov Azizbek Vahobovich

**“PEDAGOGIK OLIY TA’LIMDA TALABALARNING MEDIA
SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH”**

(uslubiy qo‘llanma)

Andijon – 2023

M.B.Artikova, A.V.Umarov.

“Pedagogik oliy ta’limda talabalarning media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish”. Uslubiy qollanma-2023

Tuzuvchi-mualliflar: Andijon davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) M.B.Artikova

Andijon davlat pedagogika instituti Informatika va aniq fanlar kafedrası o‘qituvchisi A.V.Umarov

Taqrizchilar: Andijon davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) Z.Azimova

Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc) N.Oripova

Uslubiy qo‘llanma Andijon davlat pedagogika instituti Kengashining 2023-yil 26-avgust kungi 1-sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA "MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI" FANINI O'QITISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	
1.1. Pedagogik oliy ta'limda talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish: asosiy tushunchalar mazmuni va mohiyati	12
1.2. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari	31
1.3. "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fani – talabalarning media madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan fan tarmog'i sifatida	47
II BOB "MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI" FANINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI VA AMALIY MEKANIZMI	
2.1. "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qitishning zamonaviy metodik ta'minoti.....	62
2.2. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar – talabalarning media savodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida	80
2.3. Pedagogik oliy ta'limda "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	92
Umumiy xulosa	102
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	104

SO‘Z BOSHI

Ma'lumki, jahon tajribasida oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy, ijtimoiy, shaxsiy kompetentsiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, global dunyoda tez sur'atlar bilan kechayotgan ta'limni axborotlashtirish jarayonlariga mos ravishda ularda mediamadaniyatni rivojlantirish bir tomondan ta'lim muassasasining vazifasi sifatida qaralsa, boshqa tomondan mehnat bozorining bo'lg'usi mutaxassislariga qo'ygan muhim talablardan biri bo'lib bormoqda. O'quv jarayonida zamonaviy mediatexnologiyarni qo'llanilishi, axborot texnologiyalari (optik effektlar, 3D-ta'lim zallari) asosida loyihalash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, kiberpedagogika, masofaviy ta'lim shakllarini keng tatbiq etish; ochiq ta'lim resurslari, aralash ta'lim (online/offline) texnologiyalarining qo'llanilishi, bu orqali ta'limning samaradorligi oshirish va muntazam ravishda rivojlantirib borish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirib, oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati hamda raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon amaliyotiga asoslangan oliy ta'lim tizimining sifat darajasini oshirish, talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish, ularda mediamadaniyatni tarkib toptirish oliy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar bugungi kunda masofadan o'qitish shaklining asosini tashkil etib, bu jarayonda butun faoliyat axborot masalasiga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida keltirilganidek, "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida

shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish”¹ – oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasasi bitiruvchi muhandis-pedagoglarni raqobatbardoshligini oshirish, jamiyat hayotida ijtimoiy faol fuqaro sifatida o‘z bilimi, malakalari, yuksak axloqiy fazilatlari hamda axborotlashgan jamiyatda yuksak media madaniyatga ega mutaxassis ta’lim tizimining ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganilmoqda. Shu nuqtai-nazardan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ta’lim jarayonini xalqarolashuvi, axborotlashgan ta’lim muhitida talabalarning media madaniyatini rivojlantirishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

I BOB. PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA "MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI" FANINI O'QITISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Pedagogik oliy ta'limda talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish: asosiy tushunchalar mazmuni va mohiyati

Globallashuv fenomeni zamonaviy dunyoda barcha sohalarda o'z aksini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda yangi ma'lumotlar insonlarning kasbiy va shaxsiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Globallashuvning asosi ham aynan shu ma'lumotlarni qabul qilish, o'zlashtirish, tahrir etish, uzatishdan tashkil topgan va bunda mediamadaniyatning o'рни beqiyosdir.

Ma'lumki, yoshlar jamiyatning ajralmas qismi, shu bilan birga globallashuv hamda axborotlashuv davrida ularning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Ta'limning axborotlashuv jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Bunda talaba-yoshlarning yangilanib borayotgan dunyoviy etikasi puxta egallab, uning asosida yashashlari, kasbiy-pedagogik faoliyat ko'rsatishlari lozim bo'ladi.

Ta'limni axborotlashtirish axborot texnologiyalari va raqamli medialarning ta'lim tizimi va jarayonlariga tadbiiq etish bilan tavsif etilib, bunda o'qitish va o'rganish jarayoni kompyuterlar, turli dasturlar, internet tarmog'i, ijtimoiy medialar va boshqa texnologik vositalar yordamida tashkil etiladi.

Ta'limni axborotlashtirish bir qator ijobiiy tomonlari va imkoniyatlari bilan ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bularning ichida eng asosiiy imkoniiyat sifatida ta'lim olish imkoniiyatini keltirib o'tish mumkin. Axborot texnologiyalari ta'lim oluvchilarga ularga turli masofalardan turib ta'lim mazmunini taqdim qila oladi. Onlayn kurslar, elektron ta'lim platformalari, raqamli ta'lim resurslari geografik, moliyaviy yoki boshqa to'siqlarga qaramasdan ta'lim olish uchun imkoniiyatlarini yaratadi.

Yana bir qulaylik sifatida individuallashtirilgan ta'limni keltirish mumkin. Axborot texnologiyalarining tadbiq etish orqali o'qituvchilar ta'lim oluvchilarning individual ta'limiy ehtiyojlariga muvofiq o'quv materiallari taqdim eta oladi. Adaptiv ta'lim dasturlari ta'lim oluvchilarning o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish, individuallashtirish topshiriqlar va o'quv materiallari taqdim etish orqali ularni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi.

Ta'limni axborotlashtirishning ta'lim oluvchilar uchun ham ta'lim beruvchilar uchun ham o'rganish va o'qitishning interfaol tajribalarini egallashiga keng imkoniyatlar yaratadi. Axborot texnologiyalari ta'lim oluvchilarning qiziqishlar va motivatsiyalarini ortishi orqali ularda o'rganishning interfaol tajribalarini egallashiga turtki beradi. Multimedia, turli simulyatsiyalar, virtual texnologiyalar va video o'yinlarning o'quv jarayoniga tadbiq etish murakkab bo'lgan ta'lim mazmunini interfaol ravishda namoyish etish hamda ta'lim olish jarayonini o'yinlar vositasida tashkil etish imkonini beradi.

An'anaviy ta'limda mavjud imkoniyatlar kabi ta'limning axborotlashuvi sharoitida hamkorlikda ishlash va muloqot qilish imkoniyati mavjud. Raqamli vositalar, platformalar ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar o'rtasidagi muloqotni intensivlashtiradi va hamkorlik qilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Onlayn ravishda hamkorlik qilish, muzokora qilish hamda g'oyalar bo'lishishi mumkin bo'lgan hozirgi sharoitda ta'lim olish jarayonlarining faollashuvi sodir bo'lmoqda. Ta'lim beruvchilarga ham dars mashg'uloti uchun materiallar izlash, ma'lum bir mavzu bo'yicha didaktik materiallardan onlayn foydalanish, virtual ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Ta'limning axborotlashuvi o'quv jarayonini samaradorligini va uni boshqarishni soddalashtiradi. Ta'lim dasturlari va o'quv jarayonini boshqarishga doir jarayonlarni raqamlashtirish tashkiliy-ma'muriy vazifalar uchun saraflanayotgan vaqtni tejash, sifatini oshirish imkonini beradi. Bu esa o'quv jarayonida o'qituvchilarning vaqtini ta'lim mazmuniga qaratish uchun imkoniyat sifatida qaraladi.

Ta'limni axborotlashtirish qulaylik va afzalliklar bilan ta'lim tizimi oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yadi. Jumladan, texnik ta'minot, o'qituvchilarning medialardan foydalanishiga doir malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida xavfsizlik va ma'lumotlar xavfsizligini keltirish mumkin. Shuningdek, an'anaviy ta'lim metodlarini axborot texnologiyalari bilan adaptiv qo'llash ham asosiy malalalardan biri hisoblanadi. Ta'limning axborotlashuvi talabalarni raqamlashib borayotgan jamiyatda, mehnat bozoriga munosiv tayyorgarlik ko'rishi uchun ham zarurat hisoblanadi.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida har bir insonning axborotdan foydalanish erkinligi quyidagicha himoyalangani keltirilgan: "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqiga ega; ushbu huquq o'z e'tiqodiga to'siqsiz tarzda sodiq bo'lish hamda axborot va g'oyalarni har qanday vositalar bilan har qanday davlat chegaralaridan qat'iy nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini o'zida mujassam etadi".²

Zamonaviy media muhitda axborotning ishonchliligi, media bilan xavfsiz muloqot va mediamadaniyatni targ'ib qilish masalalari hozirgi kunda dolzarbligi ortib borayotgan masala hisoblanadi. Global va milliy segmentda tarqatilayotgan axborotlarni filtrlash, noxolis, asoslanmagan yangiliklar, dezinformatsiyalar va feyk xabarlar, targ'ibotlar, sun'iy xayplar, ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan infolyutsiyalar haqida xabardorlikni oshirish talabachilarning mediamadaniyatini rivojlantirish orqali hal qilinadigan masala sifatida ijtimoiy zarurat ekanligini ko'rsatadi.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida ta'lim oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, bir qator omillarga bog'liq:

- pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi;
- elektron ta'lim resurslari;
- texnologik yondashuvlar va boshqalar shular jumlasidandir.

² UNESCO, 1984. Media education. Paris: UNESCO. – P. 8.

Ushbu sharoitda ta'lim jarayonlarini tashkil etish ta'limning elektron axborot ta'lim muhitini, integrallashgan axborot ta'lim resurslarini yaratish – ta'lim sifatini oshiruvchi omil sifatida tadqiq etishni taqozo etadi. Bunday muhitda bo'lajak muhandis-pedagogni kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlash sifatini yanada oshirib borishga qaratilgan bir qator ilmiy-metodik vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Mediamadaniyat bo'lajak muhandis-pedagoglar uchun katta ahamiyatga ega. Oliy ta'limni yakunlagach ta'lim oluvchilarning media kompetentligini rivojlantirish ularning bevosita vazifasi hisoblanadi. Hozirgi mutaxassislariga qo'yilayotgan zamonaviy talablarning ichida mediamadaniyat va mediakompetentlik katta ahamiyatga ega. Bu borada nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalarni egallash – zamonaviy mehnat bozorining asosiy talablaridan biriga aylandi.

Tadqiqot ishi maqsadidan kelib chiqqan holda asosiy tushunchalarni ilmiy va qiyosiy tahlil qilish lozim deb topildi. Asosiy tushunchalar sifatida quyidagi atamalar tanlab olindi: “media”, “mediamadaniyat”, “mediasavodxonlik”, “mediakompetentlik” hamda “mediata'lim”. Mazkur tushunchalarni aniqlashtirish tadqiqot ishi uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirishda va tadqiqot ishining mazmunini ilmiy jihatdan aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez taraqqiy etishi natijasida “**media**” atamasi paydo bo'ldi. “Media” atamasi lotin tilidan (media, medium so'zidan) olinib, qo'llanma, vositachi ma'nolarini anglatadi.³

“Media” (lot. media-vositalar) - (ommaviy) kommunikatsiya vositalari – ma'lumotni yaratish, yozib olish, nusxalash, ko'paytirish, saqlash, tarqatish, idrok etish hamda subyekt (mediamatn muallifi) va obyekt (ommaviy tinglovchilar)⁴ o'rtasida almashishning texnik vositalari sifatida ta'riflangan.

³ Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy. – 60 p.

⁴ Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакompetентности / под ред. А.В.Федорова. – Таганрог: Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та. – 2010. – 24 с.

“Media” atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qoʻllangan.⁵ Ilmiy tadqiqotlarda “media” tushunchasi keng va tor maʼnolarda qoʻllaniladi. Keng maʼnodagi “media” tushunchasiga Maklyanning “Mediani tushunish” kitobida taʼriflab oʻtgan. Kitobda “media vositalariga birgina axborot texnologiyalari emas, balki elektr nuri, nutq, yozuv, yoʻllar, raqamlar, kiyim-kechak, uy-joy, shahar, pul, soatlar, matbaa, komikslar, kitoblar, reklama, gʻildiraklar, transport vositalari (velosiped, mashina, samolyot), avtomatik uskunalar, fotosuratlar, oʻyinlar, matbuot, telegraf, yozuv mashinasi, telefon, fonograf, kino, radio, televizor, qurol-yarogʻ va boshqa koʻp narsalar”ni keltirib oʻtgan.⁶

Ijtimoiy-madaniy evolyutsiyaning barcha davrlarini qamrab oluvchi media madaniyat genezisi: yozuv paydo boʻlganidan oldingi davr, ogʻzaki muloqot, grafik belgilar va ramzlarning paydo boʻlishi, yozuvning va kitob bosib chiqarishning paydo boʻlishi, birinchi illyustratsiyalar, fotosuratlar, kinosyemka, radioeshittirish, televidenie, kompyuterlar, internet tizimlari, mobil aloqa va boshqalarning paydo boʻlishi – yuqoridagilarni tasdiqlaydi.

Media madaniyat genezisini oʻrganishlar uning shakllanishi va rivojlanishining bir necha bosqichlardan tarkib topganini koʻrstadi va ular quyidagilar: bosmagacha va bosma madaniyat; audio-vizual madaniyat; mediamadaniyat.

Har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyat, taraqqiyotning qaysi bosqichida boʻlishidan qatʼi nazar, insonning oʻz his-tuygʻularini ifodalash, ijodkorlik jarayonida muloqot qilish istagini amalga oshirishni inkor eta olmaydi, yaʼni aytishimiz mumkinki, har bir davrda madaniyatning ijtimoiy manfaatlari va ehtiyojlarini eng samarali qondiradigan yangi yetakchi shakllari paydo boʻladi. Zamonaviy dunyoni ommaviy kommunikatsiya dunyosi deb atash mumkin, chunki estetik tasavvurlarning shakllanishi, dunyoni bilish,

⁵ Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келажагининг пойдевори сифатида. “Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т.: 2017. – 223 б.

⁶ Понимание медиа. – М.: Жуковский, 2003.

axloqiy, ma'naviy me'yorlarni o'zlashtirish ko'pincha shaxsiy tajribamizda emas, balki ommaviy axborot vositalari (OAV) materiallarida sodir bo'ladi. Bu muammoni hal etish variantlaridan biri talabalarning media madaniyatini maqsadli shakllantirishdan iboratdir.⁷

Media madaniyat sohasi ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy madaniyat va axborot makonini o'zgartirish muammolari bilan shug'ullanuvchilar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

Bugungi kunda N.B.Kirillovaning fikriga ko'ra, media madaniyat intensiv axborot oqimi, birinchi navbatda audiovizual oqimidan iborat bo'lib, u quyidagilar: televidenie, kino, videofayllar, kompyuter grafikasi, mobil aloqa, Internet va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bu – ma'naviy, ijtimoiy, badiiy, psixologik va intellektual jihatlarida namoyon bo'ladigan, inson tomonidan uni o'rab turgan olamni o'zlashtirishning kompleks vositalaridir.⁸

Ushbu tadqiqotchi belgilar tizimlarining ko'p qirrali ekanligi faktiga asoslanib, media madaniyatni to'rt turga ajratadi:

1. Yozma mediamadaniyat – uni tashkil etuvchi belgilar tizimlarining asosi – so'zlardir. Hozirgi vaqtda bu atama bosma jurnallar va gazetalar madaniyatini anglatadi.

2. Audial mediamadaniyat – bu madaniyatning tizimlari radio, magnitolalar, CDRomlar, telefoniya, uyali aloqa va boshqalar bo'lib hisoblanadi, bu erda strukturaviy omil sifatida nutq, tovush, vokal, musiqa birinchi o'ringa chiqadi.

3. Vizual mediamadaniyat – bu tizimning tarkibiy omili makondir. Bu rasm, grafika, plakat.

4. Texnik mediamadaniyat – kadr estetikasi bilan bog'liq bo'lib, u axborotni audiovizual kommunikatsiya vositalari orqali uzatadi, voqelikni takrorlaydi.

Shaxsning mediamadaniyati, bizning fikrimizcha, bir qator

⁷ Кириллова Н.Б. Медиакультура как интегратор среды социальной модернизации: дис. ... д-ра культурологических наук: 24.00.01. – Теория и история культуры. – М.: 2005. – 354 с.

⁸ Кириллова Н.Б. Медиакультура как интегратор среды социальной модернизации: дис. ... д-ра культурологических наук: 24.00.01. – Теория и история культуры. – М.: 2005. – 354 с.

tarkibiy qismlarga ega: axborot faolligi, ma'lumotga bo'lgan o'z ehtiyojini to'g'ri shakllantirish qobiliyati, rivojlangan axborot motivatsiyasi, faollik, shu jumladan kognitiv va o'qish, qidiruv xatti-harakati, axborot faoliyati ko'nikmalarini egallash, shaxsiy axborot ehtiyojlarini tushunish darajasi, olinadigan ma'lumotlarni to'g'ri tanlash, tushunish va tanqidiy baholash qobiliyati, kommunikatsiya jarayonida ishtirok etish.

Mediamadaniyatning barcha ushbu tarkibiy qismlari insonning shaxsiy fazilatlari yig'indisiga asoslanadi, ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:⁹

- motivatsion (axborot faolligi yo'nalishini belgilovchi maqsad va motivlarni tavsiflaydi);

- intellektual va kognitiv (atrofdagi voqelikni idrok etish, baholash, tahlil qilish imkonini beradi);

- kommunikativ (axborot almashinuvi va muloqot normalarini tavsiflaydi);

- hissiy-irodaviy (shaxsning axborot faoliyati natijadorligini aniqlaydi).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz “media madaniyat” tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifni berdik: mediamadaniyat – axborot jamiyati madaniyatining alohida turi bo'lib, u turli manbalardan (radio, televidenie, gazeta, telefon, internet, og'zaki va yozma kommunikatsiyalar, mish-mishlar) olinadigan ma'lumotlarni idrok etish va ular bilan o'zaro munosabat qilish jarayonida shaxsning media vositalari orqali olingan ma'lumotlarni qidirish, tadqiq qilish va tahlil qilish, uni tanqidiy baholash, turli janrdagi media matnlarini yaratish qobiliyatida namoyon bo'ladigan bilimlari, his-tuyg'ulari, munosabatlari va xulq-atvor reaksiyalari to'plamidan iboratdir. Zamonaviy yoshlar, ayniqsa, talabalarning axborot madaniyati axborotni tayyorlash jarayonida qadriyat yo'nalishlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalariga asoslangan axborot madaniyatini rivojlantirish jarayonini ilmiy-uslubiy ta'minlashni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, biz xulosa qilishimiz

⁹ Коновалова Н.А. Развитие медиакультуры студентов педагогического вуза: дисс. ... канд. пед. наук: 13. 00. 08. – Теория и методика профессионального образования. – Вологда, 2004. – 308 с.

mumkinki, axborot madaniyati umumiy madaniyatning emas, balki ko‘proq darajada kasbiy madaniyatning ko‘rsatkichidir, ammo vaqt o‘tishi bilan u har bir shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanishi mumkin, shuningdek “axborot madaniyati” tushunchasi insonlar hayotining axborot jihatida bog‘liq bo‘lgan madaniyat qirralaridan birini tavsiflaydi, shuning uchun, bizning fikrimizcha, “axborot madaniyati” va “mediamadaniyat” tushunchalari bir xil emas, ular ma’lum o‘xshashliklari bilan bir qatorda tub farqlarga ham ega. Ushbu tushunchalarni taqqoslash ularning sezilarli o‘xshashligi haqida gapirishga imkon beradi, chunki ikkalasi ham inson va ma’lumot o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning ko‘p jihatli, ko‘p darajali, murakkab hodisasini tavsiflaydi.

Ushbu ikkita tushunchaning tarkibida komponentlarning keng spektrini ajratib ko‘rsatish mumkin: ma’lumotni qidirish qobiliyati, topilgan ma’lumotlarni tahlil qilish, tanqidiy baholash qobiliyati, faoliyatning ham ta’lim ham kasbiy, ham dam olish ham boshqa shakllarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli muammolarni hal qilish uchun ulardan mustaqil foydalanish qobiliyati.

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim tashkilotlari milliy va xalqaro ta’lim muhitida tahsil oluvchilarda mediaaxborotlarni o‘zlashtirishga nisbatan faoliyatli, tanqidiy va kreativ yondashuvni rivojlantirish, mediamadaniyatni shakllantirishga ahamiyat qaratilmoqda. Dunyoda mediamahsulotlarning shaxs ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta’siri, bolalar axborot xavfsizligini ta’minlash, mediata’limni ijtimoiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tadqiq etish, mediafaoliyatning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.¹⁰

Tadqiqotchi olimlar Ya.Mamatova va S.Sulaymanovanning “O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida” nomli o‘quv qo‘llanmasida media tushunchasi mazmuniga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy

¹⁰ Бабаджонов С.С. Педагогика олий таълим ташкилотлари педагогларнинг медиакомпетентлигини ривожлантиришнинг назарий- методик асослари. – Т., “Халқ таълими” илмий-методик журнали. 2016 йил 3-сон. – 24 б.

auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kirishini bayon qilib o'tganlar. Shuningdek, mualliflar bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalanib kelinayotgani, hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta'siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglayotganini va baholayotganini keltirib o'tganlar.¹¹

Jahon miqyosida mass-media va axborot texnologiyalari ta'sirining o'sib borishi munosabati bilan xalqaro hamjamiyat insonni axborot muhitida yashashga tayyorlash muammolari yuzasidan izlanmoqda. Bugungi kunda inson tomonidan ma'lumot olishning asosiy kanali, shubhasiz, media vositalari hisoblanadi, shuning uchun ulardan foydalanish va ular bilan o'zaro munosabatda bo'lish madaniyati, shuningdek o'qitishning barcha bosqichlarida uni rivojlantirish zarurati muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.¹²

“Mediamadaniyat” tushunchasi “media” va “madaniyat” tushunchalarining birgalikda qo'llanilishi asosida shakllantirilgan. “Media” “medium” so'zining ko'plikdagi shakli hisoblanadi. “Medium” so'zi lotin tilidagi “medius” so'zidan olingan bo'lib, “vosita” ma'nosini anglatadi.¹³ Duden xalqaro atamalar lug'atida “media” tushunchasiga quyidagicha izoh berilgan: “har qanday vosita bo'lib, kommunisatsiya va publikatsiya uchun xizmat qiladi, jumladan bosma nashr, radio va televideniya uchun ahamiyatli”.¹⁴

Mediamadaniyat – turli media asarlarini tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir. “Media” tushunchasi bilan bo'g'liq tushunchalar fanga kiritilganiga ko'p vaqt bo'lgan bo'lsada, yagona va yakdil

¹¹ Маматова Я., Сулайманова С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма. –Т.: “Extremum-press”, 2015. – Б. 52.

¹² Кириллова Н.Б. Медиа-культура: от модерна к постмодерну. – М.: Академический проект, 2005. – С. 31-33.

¹³ Bpb (2010). Informationen zur politischen Bildung: Massenmedien. 2010. Online verfügbar unter: <https://www.google.de/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=2&ved=0CCgQFjAB&url=http%3A%2F%2Fwww.bpb.de%2Fsystem%2Ffiles%2Fpdf%2F9H7ERR.pdf&ei=0pg2VaGJFMjraPHmgLgN&usq=AFQjCNGGc5xQzuCO6RIMz-3crfnph7AQ&bvm=bv.91071109.d.ZGU&cad=rjt>.

¹⁴ Hoffmann B. Medienpädagogik. Eine Einführung in Theorie und Praxis. Verlag Ferdinand Schöningh, Paderborn. 2003.

tushunchalar tizimi shakllantirilmagan. Ba'zi adabiyotlarda "mediamadaniyat" "**mediakompetentsiya**" tushunchasi bilan sinonim so'z sifatida qo'llaniladi. Nemis tilida (nem. – medienkompetenz, ing. – media competence) mediakompetentlikni "mediaga nisbatan malakaviy, mustaqil, ijodiy va ijtimoiy-mas'uliyatli harakatlar" qobiliyati sifatida tushuniladi.¹⁵

Ta'lim, fan, axborot va media-madaniy texnologiyalarni, shuningdek, innovatsiya faoliyati jarayonlarini rivojlantirish va integratsiyalashtirish, talabalarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantiriradi. N.Yu.Xlizovaning ta'kidlashicha, talabalarining media kompetentligini rivojlantirish quyidagi tarkibiy qismlarga asoslanadi:

- mediamateriallardan foydalanish tajribasi;
- media sohasida ko'nikmalarni faol qo'llash;
- mustaqil ta'lim olishga tayyorlik.¹⁶

Muhandis-pedagoglar ta'lim oluvchilarda nafaqat mediamadaniyatni, balki ularning medialarni tanqidiy, refleksiv baholash hamda mediaetikasi bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish kasbiy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bundan tashqari media o'rganish vositasi sifatida tadbiiq etilishi, o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarning interfaol o'rganishi uchun didaktik imkoniyatlaridan maqsadli foydalana olishi muhandis-pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyati bevosita bir davlatda shakllangan umumiy mediamadaniyat bilan uzviylikda rivojlantiriladi. Bir davlatdagi umumiy mediamadaniyat davlatning siyosiy tizimi, tarixiy, milliy identiteti, mentaliteti kabi omillar bilan bevosita bog'liq. Tarixan olib qaraganda O'zbekistonda og'zaki axborot alamashinuvi qadimiy an'anaga ega.

Mediamadaniyat va mediakompetentlik uzviy bog'liq

¹⁵ Staiger M., Wichert, A. Medienbegriff – Medienkompetenz – Mediendidaktik. Perspektiven des Mediendiskurses // Metz B., Pfeiffer J., Staiger M., Wichert A. Lesen, Schreiben und Kommunizieren im Internet. Theorie und Praxis teilvirtueller Hochschullehre. – Herbolzheim: Centaurus_Verlag, 2004. – S.19-42.

¹⁶ Хлызова Н.Ю. Медиаобразование как педагогическое понятие в отечественных и зарубежных педагогических исследованиях// Проблемы современного образования: Вестник ИГЛУ. Сер. педагогика и психология. — Иркутск: ИГЛУ, 2007. — 35 ст.

tushunchalar hisoblanadi. Pedagog olim A.V.Xutorskoy “kompetentsiya” va “kompetentlilik” tushunchalarni sinonimik tarzda farqlaydi: kompetentsiya muayyan obyektlar va jarayonlarga nisbatan aniqlanadigan, ularga nisbatan yuqori sifatli ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan shaxsning o‘zaro bog‘liq xususiyatlari (bilimlar, mahorat, ko‘nikmalar, faoliyat usullari)ning to‘plamini o‘z ichiga oladi. Kompetentlilik deganda shaxsning tegishli vakolatlarga ega bo‘lishi, egalik qilishi, shu jumladan uning shaxsga bo‘lgan munosabati va faoliyat predmeti tushuniladi.¹⁷

Turli mamlakatlarning ko‘plab olimlari **“mediamuhit”**, **“mediamadaniyat”**, **“mediata’lim”**, **“mediasavodxonlik”** kabi asosiy tushunchalarni shakllantirishning bir necha usullarini aytib o‘tishgan.

Mediata’lim – (ing. media education, lot. media – degan ma’noni anglatadi). “Ta’lim” tushunchasining o‘zi nafaqat kasbiy va ilmiy bilimlarni, balki ma’naviy me’yorlar va madaniy qadriyatlarni takror ishlab chiqarishni, to‘plashni ta’minlaydigan ijtimoiy institutdir. **Media ta’lim** talabalarni ommaviy kommunikatsiya (matbuot, televideniye, radio, kino, video, internet va boshqalar) qonuniyatlarini o‘rganishga qaratadi.

Media savodxonlik – insonlarga turli media shakllarini va xabarlarini tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko‘nikmalar to‘plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto‘g‘ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo‘lgan odam osongina sezishi mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik – bu tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo‘llash qobiliyati.¹⁸

Agarda savodxonlik “muayyan soha bo‘yicha etarli bilimga

¹⁷ Иванова Л.А. Формирование медиакоммуникативной образованности школьников – подростков средствами видео /на материале уроков французского языка: дис.... канд. пед. наук : 13.00.01/ Л.А.Иванова. – Иркутск, 1999. – 204 с.

¹⁸ Pedagog faoliyati va ma’naviyatini yuksaltirishda mediamadaniyat ta’siri // Research focus, VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2023,- 223-228

egalik”¹⁹ni anglatsa, u holda “mediasavodxonlik” tushunchasini shaxsning shaxsiy yoki kasbiy qiziqish, ehtiyoj hamda majburiyatlaridan kelib chiqqan holda media orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash bo‘yicha etarli bilimga egalik”ni yoritishga xizmat qiladi, deb izohlash mumkin.

Mediasavodxonlik – axborotga tanqidiy qarash, xolis yondashish va har bir axborotni saralashda ongli ravishda yondashishdir. Mediata‘lim maqsadlari quyidagi ko‘rinishda ifoda etiladi:

- ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali beriladigan axborotlarni tushunish va qayta ishlash, keng talqin etishga o‘rgatish;

- ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini o‘zgartirishga harakatlariga qarshilik qila bilishni rivojlantirish;

- talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini shakllantirish.²⁰

Pedagog olim Hoffmann “media” tushunchasining o‘lchovlarini quyidagi jadvalda keltirilgandek tasvirlaydi (1-jadvalga qarang):


¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрири ҳайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 416.

²⁰ Та‘лимни дастурий vositalari yordamida rivojlantirish // <http://hozir.org/pedagogik-dasturiy-vositalar-v2.html?page=19>.

Hoffmann bo'yicha "media" tushunchasining o'lchovlari

Media tushunchasi		
madaniy fenomenologiya	Jurnalistika/kommunikatsiyaga doir tadqiqotlar	Pedagogik/didaktik
media-moddiy belgi tashuvchisi	Ommaviy axborot vositalari/ texnik medialar/ telekommunikatsiya	Yordamchi vosita
– idrok ta'limi – ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash – amaliy media faoliyati.	– madaniy-ma'rifiy ishlar; – media ta'lim; – jamoatchilik bilan aloqalar; – amaliy media faoliyati.	– ommaviy axborot vositalaridan maqsadli foydalanish; – amaliy media faoliyati.
Estetik tarbiya va muloqot	Mediapedagogika	Mediadidaktika
(ijtimoiy) pedagogikada media tushunchasi Maqsad: medialar vositasida hamda medialarga nisbatan kommunikativ kompetentsiyalar va kreativlikni qo'llab-quvvatlash		

Talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarda turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Quyida shu bo'yicha tadqiqot ishi olib borgan Potter²¹ va Aufenanger²²larning "mediamadaniyat" tushunchasini mazmuni, mohiyati va tarkibini komparativistik tahlilini keltirib o'tamiz (1-rasmga qarang).



1-rasm. Paettiger va Aufenangerlar tomonidan "mediamadaniyat" tushunchasining komparativistik tahlili.

²¹ Potter J.W. The state of media literacy. 2010 Broadcast Education Association. Journal of Broadcasting & Electronic Media 54(4). 2010.

²² Aufenanger S. Medienpädagogische Projekte – Zielstellungen und Aufgaben. In: Dieter Baacke, Susanne Kornblum, Jürgen Lauffer, u.a. (Hrsg.) (1999). Handbuch Medien: Medienkompetenz / Modelle und Projekte. Bundeszentrale für politische Bildung, Bonn. 1999.

Mediamadaniyat ayrim davlatlarda alohida ta'lim yo'nalishi sifatida klassifikatsiyalanadi. Buni esa rivojlanayotgan jamiyatning talabi sifatida baholash mumkin. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida mediamadaniyat har qanday mutaxassis kasbiy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi, egallashi lozim bo'lgan tayanch kompetentsiyasi sifatida qaraladi hamda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni taqozo etadi:

- jamiyat media taraqqiyotiga doir ilmiy bilim, tafakkur, tahlil va ko'nikmalarga ega bo'lish;
- media xizmatlar, ularning tuzilmalari va mahsulotlari (xususan, yozma va og'zaki ko'nikmalar artikulyatsiya va ifodalash uslubi).

Axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy taraqqiyot, yangi raqamli media va o'quv vositalarining keng tarqalishi media madaniyatni oshirishning ahamiyatini tobora ortib borishiga olib keldi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash mazmuniga mediamadaniyat mazmunini singdirishni taqozo etadi.

Innovatsion jamiyatda axborotni tanlash, saralash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikma va malakalarni oshirish zarurati tug'ilib, buning uchun media madaniyat, axborot savodxonligi, axborotga egalik, uni baholash va axloq qoidalariga rioya qilish eng ustuvor hayotiy-amaliy, kasbiy faoliyatning zaruriy sharti bo'lib bormoqda. Hozirgi Sanoat 4.0. kontseptsiyasini amalga oshirish sharoitida zamonaviy innovatsiyalar va texnik taraqqiyot namunalari jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borishi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim jihatiga aylanishi bilan bir qatorda, talaba-yoshlarning resotsializatsiya o'zgarishi omili ham hisoblanadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida "Kasb ta'limi" yo'nalishi talabalarida "Ta'limda va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirish mexanizmi mazmunini singdirish, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida darsdan tashqari ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati mazmuniga singdirishga katta ehtiyoj bor.

Mediata'lim tushunchasi fanda ikki ma'noda, ya'ni keng va tor

ma'noda qo'llaniladi.

Media ta'lim keng ma'noda quyidagi asosiy tushunchalarni qamrab oladi: "media agentliklari", "media kategoriyalari", "media texnologiyalari", "media tili", "media vakillik" va "media auditoriyasi" kabi tushunchalar. Media ta'lim – ta'lim sohasini axborotlashtirish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish malakasini oshirishni maqsad qiladi.²³

Medialoglar media va mediatexnologiyalarni o'rganib chiqib, ularni shartli ravishda 5 turga bo'ldilar:

1. Dastlabki media – yozuv.
2. Bosma media – bosma nashrlar, litografiya, fotografiya.
3. Elektrik media – telegraf, telefon, ovozli yozuv.
4. Mass-media – kinematograf, televidenie.
5. Raqamli media – kompyuter, Internet.

"Media madaniyat", "mediakompetentlik", "mediasavodxonlik" tushunchalarini ilmiy jihatdan olib qaraganda alohida tadqiq qilish imkonsiz. "Media madaniyat" tushunchasini qolgan ikki tushunchasiz mazmun va mohiyatini ilmiy anglash imkonsiz bo'lib qolaveradi.

T.N.Myasnikova o'z tadqiqot ishida "mediakompetentlik – shaxsning media bilan muloqotga yakka tartibdagi tayyorligini tavsiflovchi talabaning formal va noformal ta'lim jarayonida shaxsiy-subyektiv o'zlashtirishlari natijasi" ekanligini qayd etib o'tgan. Shuningdek, o'z tadqiqot ishida talabalarning mediakompetentligi rivojlanish ko'rsatgichlarini quyidagicha keltirib o'tgan:

- media haqidagi klassik axborot va innovatsion tarkibiy qismlarni qamrab oladigan media to'g'risidagi bilimlar;
- mediadan repseptiv foydalanishda o'z ifodasini topadigan media iste'molchilik;
- analitik (tahliliy), refleksiv malakalar, baholovchi argumentatsiya (asoslash) qobiliyatini o'z ichiga oladigan

²³ <https://www.researchgate.net/publication/314724552>.

mediatanqid;

- mediaraqobat, u talabani zamonaviy media muhitning o'zgaruvchanligi va yangiliklarini hisobga olish malakasi;

- ta'lim va kasbiy kontekstdagi mediamatnlarni loyihalash kreativ malakalari bilan belgilanadi.²⁴

Bo'lajak muhandis-pedagoglarda media madaniyatni rivojlantirishning maqsad va vazifasi quyidagilardan iborat:

- shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida media manba va vositalarning roli;

- media madaniyatning asosiy tushunchalari va qonunlari bilan tanishtirish;

- media vositalarini tahlil qilish, talqin qilish, baholash;

- talablarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

- talabalarning media-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish.

Media ta'lim manbalarini quyidagilarga ko'ra tasniflanishi mumkin:

- og'zaki (ma'ruza, hikoya, suhbat, tushuntirish, munozaralar);

- ko'rgazmali (mediatekstlarning tasvirlari va namoyishi);

- amaliy (media materiallarida turli xil amaliy vazifalarni bajarish).

Kognitiv faoliyat darajasiga ko'ra media ta'lim quyidagicha tasniflanadi:

- tushuntirish (o'qituvchi tomonidan media vositalari haqida aniq ma'lumot, auditoriya tomonidan ushbu ma'lumotni qabul qilish va assimilyatsiya qilish);

- reproduktiv (media materiallarida turli mashqlar, topshiriqlarni o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilishi va qo'llanilishi, talabalarning o'rganishi uchun hal qilish usullari);

- muammoli (tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muayyan vaziyatlarni yoki ommaviy axborot vositalarini muammoli tahlil qilish);

- qisman qidirish yoki evristik, tadqiqot (tadqiqot va ijodiy

²⁴ Мясникова Т.И. Развитие медиакомпетентности студентов университета: автореф. диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Оренбург. 2011.

faoliyatni tashkil etish). Shu bilan birga, turli xil ijodiy vazifalarni o'z ichiga olgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar ustunlik qiladi.

Talabalarda mediamadaniyatning rivojlanishi "mentalitet" tushunchasi bilan uzviy bog'liqlikka ega. "Mentalitet" va "mentallik" tushunchalari ko'pincha bir-birining to'ldiruvchi tushuncha sifatida qo'llaniladi. Mazkur ikki tushunchaga doir ilmiy maqolalarida Lev va Natalya Pushkarevalar "mentalitet yoki mentalitet ijtimoiy-psixologik munosabatlar, avtomatizmlar va ongning odatlari to'plamidir, ular ko'rish usullarini shakllantiradilar hamda dunyo va ma'lum bir ijtimoiy-madaniy jamoaga mansub odamlarni ifodalaydi", deya izohlaydilar.²⁵ Bundan tashqari, mentallik nisbatan tez o'zgarib turadigan xususiyatlarga ega bo'lsa, mentalitet vaqt o'tishi bilan birga o'zgaradi.²⁶

B.S.Gershunskiy ta'limning yakuniy natijalari tizimida savodxonlikni boshlang'ich, elementar bosqichga qo'yadi va olimning ta'limiy natijalari bo'yicha ishlab chiqqan umumiy pedagogik sxema quyidagicha: "savodxonlik – ta'lim – malaka – madaniyat – mentalitet".²⁷

Media madaniyati vaqt o'tishi bilan rivojlangan va o'zgargan turli komponentlarni o'z ichiga oladi. Media madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan ba'zilar:

- **media mahsulotlar:** media mahsulotlar filmlar, teleko'rsatuvlar, musiqa, kitoblar, jurnallar, bloglar va ijtimoiy media kabi kontent yaratishni o'z ichiga oladi;

- **media iste'moli:** media iste'moli insonlarning media kontentini qanday iste'mol qilishini, qanday ommaviy axborot vositalaridan foydalanishini va uni qanchalik tez-tez ishlatishini anglatadi;

- **medialarni nazorat qilish:** medialarni nazorat qilish qonunlar, qoidalar va standartlarni anglatadi. Bularga, masalan, kontentni tartibga solish, reklamani cheklash va shaxsiy hayotni

²⁵ Забелина Н.А., МЕНТАЛИТЕТ И МЕНТАЛЬНОСТЬ / <https://api-mag.kursksu.ru/media/pdf/001-04.pdf>.

²⁶ Rustamova N.R. Technology for the development of media culture of secondary school pupils (on the example of grades 7-9). Dissertation of the doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences. – Tashkent, 2019. – 42 p.

²⁷ Gershunskij B.S. Filosofija obrazovaniya dlja XXI veka [Philosophy of Education for the 21st Century] / B.S.Gershunskij. – M.: Sovershenstvo, 1998. – 90 p.

himoya qilish kiradi;

– **medianing ta'siri:** media ta'siri ommaviy axborot vositalarining insonlar munosabati, fikrlari va xatti-harakatlariga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganadi;

– **mediainnovatsiya:** mediainnovatsiya mediani iste'mol qilish va yaratish usulini o'zgartiradigan yangi texnologiyalar va platformalarni anglatadi.

Taraqqiy etgan davlatlarda **media madaniyat** (infoetika, mediaetika, mediata'lim va hokazo) alohida fan, alohida muammo, alohida pedagogika, alohida siyosat darajasiga chiqqan bo'lib, ilmiy markazlar, olim va mutaxassislar ushbu muammolar atrofida ixtisoslashgan holda yuz berayotgan holatni o'rganib, tahliliy asarlar yaratishmoqda.

Amerikalik olim E.To'ffler "Uchinchi to'liq" asarida: "Insoniyat ortda qoldirgan yo'l uch bosqichdan: qishloq xo'jaligi, sanoat va hozirgi axborot jamiyatidan iborat", degan fikrni ilgari suradi.²⁸ Axborot jamiyati paydo bo'lishi bilan odamlar hayotiga yangi atamalar va tushunchalar tezda kirib keldi. Axborot jamiyati aholining axborot ehtiyojlari to'liq qondirilishi bilan tavsiflanadi.

2-jadval

AXBOROT JAMIYATIDAGI AHOLINING AXBOROT EHTIYOJLARI

Axborotning representativligi	obyekt xususiyatini adekvat ifoda etish maqsadlarida uni to'g'ri tanlash va shakllantirish bilan bog'liqdir
Axborotning mazmundorligi	semantik (mazmuniy) hajmini ifoda etadi
Axborotning yetarliligi (to'laligi)	qaror qabul qilish uchun minimal, lekin etarli tarkibga (ko'rsatkichlar jamlamasiga) ega ekanligini bildiradi. To'g'ri qaror qabo'l qilish uchun to'liq bo'lmagan, ya'ni yetarli bo'lmagan, xuddi shuningdek, ortiqcha bo'lgan axborot ham foydalanuvchining qabul qilgan qarorlari samaradorligini kamaytiradi.
Axborotning aktualligi (dolzarbligi)	axborotdan foydalanish vaqtida uning boshqarish uchun qimmatliligi saqlanib qolishi bilan belgilanadi va uning xususiyatlari o'zgarishi dinamikasi hamda ushbu axborot paydo bo'lgan vaqtdan buyon o'tgan vaqt oralig'iga bog'liq bo'ladi

²⁸ Тоффлер Э.Третья волна. – М.: АСТ, 1999. – 398 с.

Axborotning o‘z vaqtidaligi	uning avvaldan belgilab qo‘yilgan vazifani hal etish vaqti bilan kelishilgan vaqtdan kechikmasdan olinganligini bildiradi
Axborotning aniqligi	olinayotgan axborotning obyekt, jarayon, hodisa va hokazolarning real holatiga yaqinligi darajasi bilan belgilanadi
Axborotning ishonarliligi	axborotning real mavjud obyektlarni zarur aniqlik bilan ifoda etish xususiyati bilan belgilanadi
Axborotning barqarorligi	axborotning asos qilib olingan ma’lumotlar aniqligini buzmasdan o‘zgarishlarga ta’sir qilishga qodirligini aks ettiradi

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi mualliflik ta’rifini keltirib o‘tamiz: “bo‘lajak muhandis pedagoglarning mediamadaniyati” tushuncha sifatida mutaxassisni tayyorlash jarayonida, kasbiy tarbiya tizimida muhim omil hamda umumiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanib, medialar bilan maqsadli ishlash, axborotni rasmiy olish, uni ilmiy uslublar yordamida qayta ishlash, o‘z vaqtida uzatish, zamonaviy vositalar hamda usullarni qo‘llay olish malakasi va ko‘nikmasiga ega bo‘lishdir.

Asosiy tushunchalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot ishi maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda bo‘lajak muhandis-pedagoglarda media madaniyatni rivojlantirishning pedagogik zaruratini ilmiy tahlil qilish kerakligini ko‘rsatadi.

2.2. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish pedagogik zarurati

Dunyoda so‘nggi o‘n yilliklarda sanoat jamiyatidan ilm-fan jamiyatiga o‘tish tendentsiyasi yaqqol kuzatilmoqda va bu jarayon intensivlashib bormoqda. Texnologik taraqqiyot bir necha o‘n yillar oldin tasavvur qilib bo‘lmaydigan ommaviy axborot vositalarini shakllanishiga imkon berdi. Bugungi ilm-fan jamiyatida raqamli ommaviy axborot vositalari mehnat bozorining eng muhim malaka va kompetentsiyalari mazmunini tashkil etib, shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishning muhim manbasi sifatida qaralmoqda. Bugungi

kunda muhandis-pedagoglarni mehnat bozori talab va ehtiyojlari doirasida tayyorlash ularni oliy ta'lim muassasasida mediamediatini maqsadli va tizimli rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" stategeyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079 sonli Farmoniga²⁹ asosan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida **mediamadaniyat** ta'lim jarayonida mediadan foydalanish, zamonaviy o'qituvchining ommaviy axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllanishida, ommaviy axborot vositalari yordamida ta'lim mohiyatini, ochib berish, pedagogik salohiyatining oshishi va turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish shartlarini tushunishiga, ta'lim jarayonida (axborot texnologiyalari, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ekran san'ati, televizor, reklama, interaktiv o'yinlar, kompyuter animatsiyasi va boshqalar), pedagogik modellar va ulardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi.³⁰

Bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamanbalar, mediata'lim texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish orqali ularning mediamadaniyatini rivojlantirish masalasi – oliy ta'lim oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda, bo'lajak muhandis-pedagoglarning media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediamadaniyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son; 02.04.2021-y., 06/21/6198/0269-son.

³⁰ Федоров А.В, Медиаобразование в зарубежных странах. Монография. – Таганрог: Изд-во. Кучма, 2003. – С. 238.

Oliy ta'limning "Kasb ta'limi" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash haqidagi masala o'ziga xos muhim va murakkab hisoblanadi. Chunki bo'lajak muhandis-pedagoglardan nafaqat yetarlicha katta hajmdagi texnikaga oid, balki pedagogik bilimlar, katta hajmdagi maxsus ko'nikma va malakalarni egallash ham talab etiladi. Fikrimizcha, hozirgi ta'limni axborotlashtirish sharoitida muhandis-pedagoglar uchun "sof skills" ya'ni "yumshoq kompetentsiyalar"ning ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan ularda media madaniyatning rivojlanganligi va uning bo'lajak kasbiy faoliyatidagi salmog'i ijtimoiy hamda pedagogik zaruratdir.

Oliy ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, telekommunikatsiya texnologiyalari hamda dasturiy jihatdan yetarli ravishda jihozlanmoqda. Bu o'z navbatida professor-o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini o'zgartiradi, o'qituvchilik faoliyatining murakkablashuviga olib keladi.

Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy-boshqaruv jihatidan **mediamadaniyat** korporativ imijning ustuvor qismi hisoblanadi. Axborot-resurs markazi, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, ilmiy-tadqiqot bo'limi, multimedia markazi kabi bo'limlar o'z faoliyatini bevosita va bilvosita talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirishga qaratadi. Oliy ta'lim muassasasining ichki va tashqi hamkorligini tashkil etishda ham mediamadaniyat bilan faoliyat qay darajada tizimli yo'lga qo'yilganinini anglash mumkin bo'ladi.

Korporativ imij nuqtai nazaridan, oliy ta'lim muassasalarida mediamadaniyat o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos uslubidir. Axborot ta'lim jarayonining ikkita asosiy ishtirokchisidan tashqari uchinchi ishtirokchi – axborotning asosiy manbai bo'lgan ommaviy kommunikatsiya vositalari paydo bo'ladi. Bunday vaziyatda o'qituvchining pozitsiyasi talaba pozitsiyasiga yaqinlashadi – ikkalasi ham mediaga nisbatan retsipientlardir.

Talabalar media xabarlardan oladigan ma'lumotlar, ta'lim ma'lumotlaridan farqli o'laroq, hissiy tus berish va ma'lumotlarning dolzarbligi kabi jozibali xususiyatlarga ega. Shunday qilib, o'qituvchi media bilan raqobatga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak, u avtoritarlikdan voz kechishi, iste'mol qilingan ma'lumotlardan, o'qituvchining o'zi nima olganiga nisbatan talaba aniq nimani olgani bilan ko'proq qiziqishi, talabalarning faoliyatini baholash mezon va usullarni qayta ko'rib chiqishi kerak.

Herzig va Assmann oliy ta'lim muassasalaridagi muammolardan birini quyidagicha tavsiflaydi: ko'plab o'qituvchi-professorlar ommaviy axborot vositalarini ilmiy manba sifatida qaramaydi va uning ta'sirini to'g'ri baholay olmasligi, shuningdek o'z fani mazmuniga bevosita yoki bilvosita integratsiya qilmasligidadir. Bunday o'qituvchi-professorlarni "media migrantlari" deb nom beradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o'qituvchilarning o'zi uchun muammo tug'diradi, shuning uchun ular uchun mediadan foydalanishning pedagogik-ilmiy zarurati yuzasidan treninglar o'tkazish zarur bo'ladi. O'qituvchi-professorlarning mediamadaniyati talabalarga transformatsiya bo'ladi.³¹

Muhandis-pedagoglar turli soha vakillariga o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi olishlari uchun mas'ul sifatida ularning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun mas'ul hisoblanadilar. Hozirgi kunda barcha sohalarining mazmuniga mediamadaniyat singdirilib, kasbiy tavsifnomalarda o'z ifodasini topib kelmoqda. Ta'limdagi raqamlashtirish jarayoni esa mediamadaniyatning dolzarbligini oshirib bormoqda.

Mediamadaniyat talabalarda media qobiliyatlarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Media qobiliyat bo'yicha tadqiqotlari bilan tanilgan mediapedagog olim A.V.Fedorov shaxsning media qobiliyatini "uning motivlari, bilimlari, aql-zakovati, qobiliyatlari (ko'rsatkichlar: motivatsion, aloqa, axborot vositasi, his-tuyg'ular, interpretatsion baholash, amaliy-operatsion va ijodiy faoliyat), ommaviy axborot vositalarini tanlash, ulardan

³¹ Herzig B., Assmann A. School, Identity and Media // Springer, 2014. – P. 26 (242).

foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va turli shakllarda, shakllar va janrlarda o'tkazish, jamiyatda media faoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilish"³² deb belgilaydi.

AQShda qabul qilingan "XXI asr talabasi uchun standartlar" deb nomlangan yo'riqnomada esa talabalar malaka, manba va bilim olish vositalarini quyidagi maqsadlarga yo'naltirish lozimligini belgilgan. Bular: ma'lumot izlash, tanqidiy o'ylash, bilim olish, xulosalar yasash, tegishli ma'lumotga asoslangan holda qaror qabul qilish, bilimni yangi vaziyatlarga yo'naltirish, yangi bilimlarni yaratish, bilim almashish va shaxsiy kamolot hamda estetik jihatdan o'sishga intilishdir. Media savodxonligi – qaror qabul qilish va muammolarni tahlil qilish maqsadida axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generatsiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo'lgan kompetentsiyalar to'plamidir.³³

Keyingi vaqtlarda pedagogik amaliyot va ilmiy-tadqiqot ishlarida "mediapedagogika" tushunchasi qamrov doirasi jihatidan keng qo'llanilib kelinmoqda. Mediapedagogika yangi pedagogik texnologiya bo'lib, bu ommaviy axborot vositalari yordamida ta'lim oluvchilarni ijodiy fikrlashga, tarbiyalashga imkon beradi. Mediapedagogika resurslariga internetdagi ma'lumotlar, televideniya, radioeshittirishlar, kino, video, audio materiallar kiradi.

Pedagogik amaliyotda talabalarda **mediamadaniyatni** rivojlantirish o'quv jarayoniga keng tadbqiq etilganligini kuzatish mumkin. Misol tariqasida wiki-saytlarni keltirish mumkin. D.A.Mezentseva o'z ilmiy tadqiqot ishida zamonaviy ommaviy axborot vositasi orqali o'quv jarayonida veb-sahifalar guruhini yaratish, ma'lumotlarni saqlash, tahrirlash, muhokama qilish uchun umumiy ish joyini tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Wiki-saytlar kerakli hujjatlarni qo'shib, uni papkalar, sahifalar va havolalar tizimi bilan tartibga solish, tahrir qilish, sharhlar qoldirish va forumdagi munozaralarga kirish uchun loyihalar ustida hamkorlik

³² Федоров А.В. Развитие медиакомпетенности и критического мышление студентов педагогического вуза. МОО ВПП ЮНЕСКО Информация для всех. 2007. – С. 616.

³³ Tuomine S., Sirkku Kotilainen. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув амалий қўлланма. – Тошкент: Extrinum press, 2017. – Б. 13. (142).

qilish uchun mo'ljallangan, wikipochta orqali bir-birlariga xabar yuborish imkoniyatini taqdim etadi. Wiki saytida o'qituvchi barcha kerakli o'quv materiallarini joylashtirish va talabalar tomonidan bajarilgan uy vazifalarini wiki-sayt sahifalarida tekshirish, to'g'rilash va baholash imkoniyati mavjud.³⁴

Ya.Mamatova, S.Sulaymanovalar ilmiy-uslubiy qo'llanmasida yangicha ommaviy kommunikatsiyalar sharoitida talaba-yoshlarga **media** va axborot savodxonligi asoslarini o'rgatishda mediamahsulotlaridagi uyg'unlikni, undagi ko'rsatmalarni, dalil va voqealarning qanday taqdim etilishini anglab yetishi va buni idrok etgan holda o'zi yaratayotgan mediakontent vositasida global axborot makoniga millatning, xalqining muayyan qadriyatlari va dunyoqarashini olib kirishi haqida batafsil ma'lumotlar yoritib o'tilgan.

S.S.Babadjonov o'z dissertatsiya ishida talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish aynan axborotlashgan jamiyat xususiyatlaridan kelib chiqishi, rivojlangan axborotlashgan dunyoqarash, axborotga yo'nalganlik va shaxsning mediabilim hamda mediatahlil malakalari bilan birgalikda mediakreativlikni ham nazarda tutishini ilmiy tahlil qilib o'tgan. Tadqiqotchi o'qituvchi mediakompetentligining mazmunini kasbiy pedagogik faoliyat bilan bog'lab, mediasiyosatni amalga oshirish, o'quv dasturlarga media tushunchalarni joriy etish, o'quv-tarbiya jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish tendentsiyalari asosida takomillashtirib borishga zamin yaratishini nazariy jihatdan asoslab o'tadi.³⁵

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual potensiyali bilan belgilanadi. Chunki ilmiy potensiyali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi. Shuning uchun mamlakatimizda ta'lim tizimini

³⁴ Мезенцева Д.А. Формирование медиакомпетенции у студентов из КНР в процессе самостоятельной учебной работы с текстами англоязычных СМИ.: автореф. диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург. 2015.

³⁵ Babadjonov S.S., Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun diss... avtoref. – Toshkent: 2018.

tubdan isloh qilish davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ustuvor vazifa sifatida yondashilib, katta e'tibor qaratilyapti.

Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o'ziga xos talablari mavjud:

- birinchidan, o'quvchi talabalarning kasbiy bilimlarini o'zlashtirish darajasi davlat ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash bilan bog'lq;

- ikkinchidan, o'quvchi talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar doirasini to'liq qamrab olishga erishish.

Jamiyatning bu tarzda jadal rivojlanishi, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoji o'qituvchidan intellektual qobiliyatlarini namoyon qilgan holda, ijtimoiy talablarni qondirishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy ilm-fan jamiyatida talaba-yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoni raqamli media vositalari orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda talaba-yoshlar o'z xohishlari, intilishlari va qiziqishlariga asosan ommaviy axborot vositalaridan foydalanmoqda. Bunga nisbat bergan holda "raqamli mahalliy aholi" tushunchasi paydo bo'lganki, bu insonlarning real borlidan virtual borliqda ko'proq band bo'lishini anglatib keladi. Avlodlar almashinuvi kontseptsiyasiga ko'ra 1980-yildan buyon tug'ulgan avlodga nisbatan "raqamli avlod" tushunchasi qo'llaniladi. Bu guruhga kiruvchi talaba-yoshlar doimiy ravishda yangi medilar bilan uyg'unlashgan hayot kechirmoqda. Bu avlod vizual o'ylash, ko'p vazifalarni bir vaqtda bajarish, diqqatni tez o'zgartiradigan, tez reaksiyaga kirishuvchi, moliyaviy mustaqillikka aynan kompyuter texnologiyalari orqali erishishni o'ziga lozim topishi bilan tavsiflanadi.³⁶

Mediamadaniyatni rivojlantirish xalqaro doiradagi global kompetentsiyalar ekanligini turli halqaro sammitlar muhokama qilishi bilan ham tasdiqlaydi. Bu borada Xalqaro axborot sammiti

³⁶ Prenskiy M. Digital Natives, Digital Immigrants//From On the Horizon (MCB University Press, Vol. 9 No. 5, 2001. – P. 31.

(Jeneva, 2003-y.; Tunis, 2005-y.) 2006-yilda Seulda IFLAning Butunjahon 72-kutubxonachilik va axborotlashtirish kongressida YUNESKO ning ochiq forumi bo'lib o'tib, mazkur forumda boshqa bir qator muhim yo'nalishlar bilan birga media madaniyatini shakllantirish masalasi muhim yo'nalishlardan biri ekanligi tan olinib, rivojlantirish, g'oyalari ilgari surildi.³⁷

YUNESKO mediasavodxonligini shakllantirish asoslarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Mediata'lim bo'yicha Gryunvald Deklaratsiyasida (1982), axborot savodxonligi va insonning butun hayoti davomida oladigan ta'limi bo'yicha "Axborot jamiyatining mayoqlari" Aleksandriya deklaratsiyasi (2005) va Parij YUNESKO kun tartibida (2007) belgilangan maqsadlarga erishishda YUNESKO a'zo davlatlarini qo'llab-quvvatlaydi.³⁸

Oliy ta'lim muassasalarida mediamadaniyatni rivojlantirish o'quv jarayonida raqamli ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalangan holda samaradorlikka erishish maqsad qilinadi. Pedagogik amaliyotda mediata'lim va mediakompetentsiya atamalari o'zaro farqlanadi. Baake fikriga ko'ra media madaniyat 4 ta komponentga ajratiladi: mediatanqid, mediabilim, mediadan foydalanish va mediadizayn.³⁹

Bugungi kunda global darajada axboriy ifloslanish, shuningdek, axborotning nomaqbul shakllari paydo bo'layotgani soxta va yolg'on ma'lumotlardan himoyalaniish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik muammosining dolzarblashuvi, axborotning tovar sifatidagi tijoriy funktsiyalari oshishi, mediaga qaramlik, feyk axborot va manipulyativ ta'sirning kengayishi aholining, xususan, yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu vazifani mediamadaniyatni rivojlantirmasdan amalga oshirishning imkoni yo'q.

Mediamadaniyatni rivojlantirish talaba-yoshlarning yosh

³⁷ UNESCO 2003; 2005; 2006.

³⁸ Tuomine S., Sirkku Kotilainen. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув амалий қўлланма. – Тошкент: Extrimum press, 2017. – 142 б.

³⁹ Baacke D. On the concept and operationalization of media competence. Online: http://www.produktive-medienarbeit.de/ressourcen/bibliothek/fachartikel/baacke_operationalisierung.shtml, 1998.

rivojlanish xususiyatlari bilan birgalikda milliy xususiyatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Mediamadaniyatni rivojlantirish masalasi XX asrning ikkinchi o'n yilligida jahon ta'lim amaliyotida paydo bo'lib, o'tgan asrning 60-yillaridan keyin keng ommalashdi. Jahonda mediamadaniyatni rivojlantirish "global fikrlash, lokal harakat qilish" tamoyili ham har bir hududda milliy va mahalliy model hamda standartlar yaratishni nazarda tutadi. Mediamadaniyatni rivojlantirishda qanday o'ziga xosliklar mavjudligi ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Shunday ilmiy tadqiqotlardan biri ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotning ilmiy ahamiyati muhim ekanligini ta'kidlash barobarida, unda keltirilgan statistik tahlil mediamadaniyatni rivojlantirish borasidagi ishlarning hajmi katta ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Mazkur tadqiqotda respublikaning barcha hududidan 7 ming 827 nafar talaba-yoshlar ishtirok etdi. Ilmiy-statistik, sotsiologik tadqiqot natijalari talaba-yoshlarda mediamadaniyatni rivojlantirish zarurat ekanligini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Yildan-yilga talaba-yoshlarning mediaga, raqamli olamga murojaat imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ular mediadan, xususan internetdan faol foydalanmoqda.

Auditoriyaning axborot olish manbasi, media bilan munosabatlarini aniqlash maqsadi ko'zlangan "Axborotni ko'proq qaerdan olasiz?" degan savolga ishtirokchilarning 43 foizi ijtimoiy tarmoq va messenjerlar, 36,6 foizi internet saytlari, 0,3 foizi gazeta-jurnal, 2,9 foizi televidenie, 1 foizi radio, 7,4 foizi kitob, 9,7 foizi ota-ona, o'qituvchi va do'stlar bilan muloqotdan, degan javoblarni bergan.

"Kuniga necha soat internetdan foydalanasiz?" degan savol natijalariga ko'ra yoshlarning 4,9 foizigina har kuni internetdan foydalanmasligi ma'lum bo'ldi. Ishtirokchilarning asosiy qismi esa 1 soatdan 12 soatgacha bo'lgan vaqt oralig'ida faol foydalanadi: 12,5 foizi – 1 soatgacha, 34,4 foizi – 1-3 soat oralig'ida, 32,4 foizi – 3-5 soat, 13,1 foizi – 6-12 soat oralig'ida. 12 soatdan ko'p

foydalanuvchilar soni 2,7 foizni tashkil etadi.

“Internetda nima bilan shug‘ullanasiz?”, degan savolga 54,1 foiz ishtirokchi “saytlardagi yangiliklarni kuzataman”, degan javobni bergan. Demak, internetning imkoniyati keng bo‘lish bilan bir qatorda yangiliklar uzatish funktsiyasi yetakchilik qiladi.

“Qidiruv tizimlaridan foydalanaman”, degan javob 32,9 foizni tashkil etsada, respondentlar qidiruv tizimlari optimizatsiyasi tushunchasi bilan tanish emas. So‘rovnoma ishtirokchilarining 45 foizi elektron kitob o‘qishi, 16,1 foizi onlayn shaklda o‘qishi media imkoniyatlaridan ta’lim sohasida keng foydalanilayotganini tasdiqlaydi. Bu o‘rinda shu narsa aniq bo‘ldiki, mediadan faol foydalanish media-ta’limning tanqidiy tafakkurni shakllantirish maqsadiga mos. Ishtirokchilarning 4,5 foizi onlayn ishlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot 31,5, film va seriallar tomoshasi 15,5, foto va video yuklash 14,7, o‘yinlar 3,7 foiz ovoz olgani media bilan munosabatlarni tartibga solish, mediaga foydali maqsadda murojaat etish zaruratini namoyon etadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan ta’kidlash lozimki, mediadan, internetdan, raqamli axborot manbalardan foydalanishda ratsionallikni ta’minlash zarurati mavjud.

Auditoriyani dezinformatsiyadan himoyalash va jamiyatda sog‘lom axborot muhitini shakllantirish uchun global tarmoq yoki OAVdan foydalanishda texnik cheklovlarni qo‘yishga zarurat qolmaydi. Mediaga qaram insonlar soni kamayadi. Sog‘lom axboriy muhit iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mediamadaniyatni joriy etishda xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmay, milliy modelni yaratish zarurati mentalitet, axboriy muhit va axboriy muammolar turlichaligi bilan ham izohlanadi. Masalan, mediamadaniyatga doir xorijiy qo‘llanmalarda axloqiy og‘ishlar va diniy masalalardagi ba’zi misollar, qarashlar, nuqtai nazarlar o‘zbek milliy mentaliteti, asriy qadriyatlariga mos emas. Mediamadaniyatni rivojlanish asoslari avvalambor oilada shakllanadi. Salbiy ta’sirli axborot, media-mahsulotlardan

himoyalashda oila ijtimoiy institutidan samarali foydalanish zarur. Media-iste'molning nazorat qilinishi, media-olam haqida dastlabki ko'nikmalar oilada shakllantirilishi kerak. Umumta'lim maktablarida mediamadaniyatni alohida mustaqil fan, tanlov fan yoki mustaqil kurs sifatida o'qitish maqsadga muvofiq.

Mediamadaniyatni ta'limni didaktik asoslarga suyanib, tarbiya bilan parallel ravishda, oila institutining bevosita ishtirokida joriy etish bolalar, o'smirlar va yoshlarning raqamli salomatligini saqlash, mamlakatda sog'lom va taraqqiyotga intiluvchan axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Antropologik jihatdan talaba shaxsida mediamadaniyatni rivojlantirish o'zini-o'zi yo'naltirilgan ta'lim jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon shaxsning o'z qarorlarini shakllanishi, o'z-o'zini o'rganish kompetensiyasini maqsadli rivojlantirish orqali mustahkamlanishi mumkin. Ta'limning axborotlashtirish sharoitida shaxsiy va kasbiy rivojlanish o'z-o'zini o'rganish kompetensiyasi asosidagini samarali bo'lishi mumkin. Mustaqil ta'lim yordamida o'quv jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholashni faol shakllantirish mumkin.

Bo'lajak muhandis-pedagoglarda mediapedagogik kompetentsiyalarning turli jihatlari "mediakompetensiya" va "mediata'lim kompetensiyasi" atamaları hozirgi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda keng qo'llanilmoqda. Ushbu ikki atamaning muhokamasi so'nggi o'n yilliklarda mediata'lim kontekstida harakatning asosiy nuqtalari sifatida ta'kidlangan narsalarni birlashtiradi. Media kompetentligi atamasidan foydalanish allaqachon ko'p marta muhokama qilingan. Tadqiqot ehtiyojlari yoki boshlang'ich nuqtasiga qarab, ommaviy axborot vositalari va mediata'lim kompetentsiyasining o'lchovlari va tushunchalari bo'yicha turli jihatlar va fikrlar muhim bo'lib chiqdi. Shu nuqtai nazardan, keyingi bobda o'qituvchilarning mediakompetentsiyasi va mediata'lim kompetentsiyalari haqida turli xil fikrlar keltirilgan va umumlashtiriladi.

Metodik jihatdan ta'lim jarayonida mediaresurslardan foydalanishning ahamiyati shundan iboratki, mediaresurslar

ta'limning ixtiyoriy shakliga mos keladi, ular yordamida materialni o'rganishning yangi, noan'anaviy metodlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Media madaniyatning rivojlanishida mustaqil ta'limni ahamiyati katta bo'lib, bunda talabaning o'zi mustaqil ta'lim olishga tayyorligining turli darajalari asosida bo'lajak mutaxassis shaxsining media madaniyatini yaratish, ko'paytirish va faoliyat ko'rsatish jarayoni amalga oshiriladi. Natijada, talaba shaxsining mediamadaniyati yangi axborotlar sharoitlarida inson shaxsini rivojlantirish uchun dinamik dispozitsiya tizimi bo'lib xizmat qiladi, bu esa ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak muhandis-pedagogning media kompetentligini rivojlantirishga olib keladi. Talaba shaxsining mediamadaniyatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asosini madaniyatlar muloqoti nazariyasi, mediamadaniyatning tarkibiy tizimi, mediata'lim g'oyalari mediamadaniyatni darajali tashkil etish, shaxsga yo'naltirilgan tushunchalar tashkil etadi.

Hozirgi globallashib borayotgan jamiyatda axborot oqimidan to'g'ri va unumli foydalana olish bilan birga ularni yaratish, saqlash, qayta ishlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur talablar oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yiladigan dolzarb masalalardan biri sifatida ta'lim oluvchilarning axborot savodxonligini oshirish, ularning media va raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishni amaliy yechimi sifatida qaraladi, pedagogika sohasida yangi yo'nalish – mediata'lim tajribasiga bo'lgan talabni oshiradi. Ma'lumki, hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi amaliyotida keng foydalanilmoqda. Mustaqil ta'lim jarayoniga mediaresurslar tadbiq etilishi talabalarning dunyoqarashi, axborot va mediamadaniyatini rivojlantirib, ularning ijtimoiylashuv hamda kasbga moslashuv darajasini oshiradi. O'z navbatida, media resurslar bilimlarni va o'quv materiallarini yaxshiroq idrok etishni hamda interfaol aloqani ta'minlaydigan o'quv vositasi sifatida ta'limni samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim talabalar ta'lim va tarbiya tizimining ajralmas qismidir. Kredit-modul tizimi sharoitida talabalar tomonidan qo'shimcha ta'lim dasturlari erkin tanlanadi va

o‘zlashtiradi. Talabalar mustaqil ta’lim orqali mustaqil ijodiy va ilmiy faoliyatga qiziqishlari rivojlantiriladi, o‘z qobiliyatlarini namoyon etish uchun maqsadli faoliyat olib boriladi. Albatta, mustaqil ta’lim oliy ta’lim muassasalari amalga oshiradigan mustaqil va etuk kadrlarni tayyorlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Mustaqil ta’lim murakkab jarayon hisoblanadi va bu jarayonning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- mustaqil ta’lim jarayonida talaba shaxsining tashabbuskorligi;
- faolligi;
- o‘quv maqsadlarining aniq va to‘g‘ri qo‘yilganligi;
- kuchli o‘quv motivatsiyasi, ta’lim mazmunining qiziqarliligi hamda jozibadorligi.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida mediaresurslar asosida mustaqil ta’limni tashkil etilishi talabalar uchun ta’limiy va rivojlanish imkoniyatlarni taqdim etib, talabalarning o‘quv fanlari bo‘yicha hamda media sohasida bilimlarini oshirish, mediamakonini o‘zlashtirish madaniyatini rivojlantirishga hissa qo‘shish, shuningdek ijtimoiy faollikni rivojlantirishga imkon beradi. Mediaresurslar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim talabalar individualligini, kognitiv mustaqilligini, analitik qobiliyatini, mediaidrok etishni, mediamatnlarni talqin qilish hamda taqqoslash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talaba ixtiyoriy vaqtda va ixtiyoriy joyda mediaresurslar asosida ta’lim oladi hamda amaliy topshiriqlar va loyihaviy vazifalarni bajarish orqali axborot – media va raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umumiy holatda ularda mediamadaniyat rivojlanib boradi. Shu jihatdan olib qaraganda mustaqil ta’limni tashkil etish hamda mediaresurslardan oqilona foydalanish pedagogik zarurat hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida mediamadaniyatning shakllanishi va rivojlanish zarurati har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Aynan mehnat bozorida muhandis-pedagoglarning

mediamadaniyatini rivojlanganligiga qo'yilayotgan talablarning yuqoriligi masalaning mohiyatan dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida media vositalarning samaradorligi va ulaning ta'sirchan kuchi o'quv jarayoniga yo'naltirilishi zamonaviy o'quv mashg'ulotlariga qo'yilayotgan talablardan biri hisoblanadi. Buning natijasida talaba-yoshlarda uchrab turgan salbiy: "virtual qaramlik", "internetga tobelik", "kiberbulling" hamda kognitiv-emotsional faoliyatning buzilishi kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunda salbiy oqibatlar talabalarning o'z xatti-harakati bilangina amalga oshirish imkonsiz bo'lib, ma'lim pedagogik va psixologik kontseptsiyaga tayangan refleksiv suhbatlar, o'z-o'zini baholash, o'z faoliyatini tanqidiy baholash, o'z xatolarini anglab yetish, kasbiy identiteti va madaniyatini ma'lum oraliqlarda baholab borish, rivojlanish tendentsiyasini kuzatish kabi metodlar orqali ularda mediamadaniyatni shakllantirish va rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Jamiyatda media madaniyatni rivojlantirish turli jihatlar bilan asoslab o'tiladi. Tadqiqotchi U.Nishonaliyev "fan va texnika intensiv rivojlanib borayotgan XXI asrda mediamadaniyat yangi texnik kommunikativ ommaviy axborot vositalarining ustunligi bilan taminlanish, shuningdek axborot oqimining kattaligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya jarayonlari tezligi, jamiyat hayotining barcha sohalari hamda barcha faoliyatlarning, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ozaro ta'sirining yangi modeli asosida joylashgan barcha telekommunikatsiyalarning yaqinlashuvi prinsipi bo'yicha kommunikatsiya aloqalari konfiguratsiyasining o'zgarishini namoyish etadi"⁴⁰ degan xulosaviy fikrni bayon qiladi. Shunga mos ravishda oliy ta'lim muassasalari ta'lim mazmuniga mediamadaniyatni singdirib boradi. Bu haqda K.Y.Buvabaevna "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yuz berayotgan, inson omilining roli kuchayib borayotgan sharoitda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda oliy ta'lim muassasalarida

⁴⁰ Нишоналиев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития / В сб. материалов научно-практической конференции "Актуальные вопросы профессионального воспитания молодежи". – Алма-Ата: респ. издат. каб. казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2010. – С. 15-20.

mediamadaniyatni rivojlantirish hozirgi zamon talablaridan hisoblanadi” degan xulosaga kelgan. Shuningdek, o‘z fikrini quyidagicha davom ettiradi: “ta’limga bunday yondashuv talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beruvchi pedagogik faoliyat printsiplarini aniqlashning metodologik asosi hisoblanadi”.⁴¹

Talaba-yoshlarning media vositalaridan samarali, maqsadli foydalanishida noto‘g‘ri va pedagogik jihatdan tadqiq etilmagan usullarni qo‘llash samarali yechim bo‘la olmaydi. Ularda media texnologiya va vositalarga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarni tanqid qilish, o‘z manfaatlarini to‘g‘ri shakllantirish, media bilan bog‘liq muammoli vaziyatlarda yechim topishga ularning ehtiyojlari bor.⁴² Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish ham ta’lim jarayonida ham ma’naviy-ma’rifiy faoliyat doirasida amalga oshishiga amin bo‘linadi.

Ilmiy adabiyotlarda “mediamadaniyat” va “axborot madaniyati” tushunchalari mazmunan bir xil maqsadda qo‘llaniladi. Shu tarzda qo‘llanilishiga yaqqol misol sifatida quyidagi ilmiy ishlarni keltirib o‘tish mumkin:

– A.E.Medvedeva “axborot madaniyati” tushunchasiga axborot madaniyatini axborot maydonida erkin bo‘lishga va uning shakllanishida ishtirok etishga imkon beradigan bilim darajasi⁴³ deb tavsiflab o‘tgan;

– boshqa muallif esa “jamiyatni axborotlashtirish jarayoniga imkon beruvchi, axborotlashgan jamiyatda zarur bo‘lgan shaxsning xususiyatlari yoki xislatlari”⁴⁴;

– boshqa bir olim esa “madaniy qadriyatlar bilan taqozo

⁴¹ Buvabaevna K.Y. Issues of Civil Literacy Development in the Education System // Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 5477-5489.

⁴² Potter J.W. Theory of media literacy: A cognitive approach, Thoasand Oaks, CA: Sage, 2004. – P. 12.

⁴³ Медведева Е.А. Информационная культура как предмет преподавания в системе высшего образования // Информатизация и проблемы гуманитарного образования: межд.науч.конф.: тезисы докл. Краснодар, 1995. – С. 67-68.

⁴⁴ Атаян А. Информационная культура личности в условиях информатизации общества // Бюллетень ВИУ. 2001. Вып. №1(7).09. 2004 г.

etilgan aksiologik xarakterdagi axborot faoliyati”⁴⁵, deb qayd etgan;

- boshqalari esa uni yangi aloqa va fikrlash turi⁴⁶;
- mantiqiy fikrlashning rivojlanish darajasi, tizimni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati⁴⁷ sifatida izohlashgan.

Talabalarda **mediamadaniyatni** rivojlantirish zarurati keng qamrovli bo‘lib, tendentsial xususiyatga ega. Jamiyatda axborotlashtirish jarayonlari intensivlashish orqali yildan-yilga mediamadaniyatning qamrov doirasi kengayib bormoqda. Tadqiqotchi E.Ablazov mediamadaniyat muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirishini, masofalarni qisqartirishi, zamonaviy dunyo makonining istalgan nuqtasiga yaqinlik tuyg‘usini yaratishini ta’kidlab o‘tadi.⁴⁸

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mediamadaniyatni rivojlantirishning ahamiyati muhimligi, pedagogik zarurat ekanligi quyidagi xulosaviy fikrga kelish mumkin: media har bir shaxsning subyektiv rivojlanishida muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsiy rivojlanishning asoslaridan biri hisoblanadi.

Yu.Ocheret: “Jamiyatdagi birorta rivojlanishni media madaniyatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, media vositalari texnik ta’minot imkoniyatlarining kengayishi bilan hayotning har bir sohasida mediamadaniyatning roli va o‘rni oshdi⁴⁹, deb ta’kidlagan.

Media vositalari orqali ta’lim va uning sifatini rag‘batlantirish, zamonaviy media vositalaridan foydalanishning salbiy oqibatlari bo‘yicha ta’sirchan metodlar, vositalar, yondashuvlar yordamida talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish ularning hayotiy-amaliy kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun zamin bo‘lib xizmat

⁴⁵ Гречихин А.А. Информационная культура: опыт определения и типологического моделирования // Проблемы информационной культуры: сб.статей. – М.: 1994. – С. 12- 39.

⁴⁶ Алешин Л.И. Гуманитарная информатика: аспекты проблемы // Технологии информационного общества – Интернет и современное общество: труды VI Всероссийской объединенной конференции. СПб, 3-6 ноября 2003 г. – СПб.: СПбГУ, 2003. – С. 1-3.

⁴⁷ Фридланд А.Я. Основные понятия информатики: информация – информационный процесс – информационная культура // Информатика и образование. 2003. – № 7. – С. 120-124.

⁴⁸ Ablazov E.E. “Mediamadaniyat tushunchasi va uning XXI asrda tutgan o‘rni”. Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | Special Issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1385. – 12-b.

⁴⁹ Очерет Ю. Формирование информационной культуры личности в условиях информационно-библиотечных учреждений // Информационная культура в контекстеновой парадигмы образования: проблемы, поиски, решения. – Кемерово: ОблИУУ, 2001. – С. 150.

qiladi.

Pedagog olim K.Y.Buvabaevna jamiyatning **mediamadaniyati** uning a'zolari tomonidan mediaresurslaridan ma'lumotlar almashish, shaxsiy hayot faoliyati va davlatning taraqqiy etish manfaatlari uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati shakllanganligi bilan xarakterlanishini ta'kidlab o'tadi. Shaxs axborot oqimida erkin harakatlanishi uchun umumiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida mediamadaniyatiga ega bo'lishi shart. Zero, malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishda axborot madaniyatining roli katta.⁵⁰

Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalar o'qituvchilarga ayrim media vositalaridan qanday foydalanishlari yuzasidan maslahat va yordam beradi. "Buning sababi shundaki, o'qituvchi-professorlarning aksariyat avlodi o'zlarini yana talaba holatiga qo'yishni va media ta'lim kompetentsiyalarini rivojlantirishni boshdan kechirishni istamaydilar".⁵¹ Boshqa tomondan bo'lajak mutaxassislar shaxsiy-hayotiy faoliyati doirasida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha shaxsiy tajribalar orttirgan.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari zamonaviy oliy ta'limni axborotlashtirish jarayonining jadallashuvi bilan tavsiflanadi. O'quv jarayonida mediaresurslaridan foydalanish va mediata'lim texnologiyalarni joriy etish ta'limning samaradorligini oshiradi, ikkinchi tomondan talabalarga ta'lim berishning yangi usullarini izlashga majbur qiladi, o'qitishning individuallashtirish orqali talabalarni bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashga hissa qo'shadi.

⁵⁰ Buvabaevna K.Y. Legal basis of formation of civic culture in students kadirova yakitjan uvabaevna: legal basis of formation of civic culture in students // Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1.

⁵¹ Buckingham D. Media education: a global strategy for development. A policy paper prepared for UNESCO, sector of communication and information. Online: https://www.lmz-bw.de/fileadmin/user_upload/Medienbildung_MCO/fileadminbibliothek/buckingham_media-education/buckingham_media-education.pdf 2001. – P. 2.

2.3. Mediata'lim – talabalarning media madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan fan tarmog'i sifatida

Oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlarining mazmuniga mediata'lim integrativ ravishda sindirilgan. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish fanlar orqali yetkaziladi, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat mazmuniga ham singdirilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalarda mediamadaniyatning rivojlanganligini muhim ko'rsatkichlaridan biri o'zini va o'zgalarni salbiy axborot ta'siridan himoya qila olishi, o'zining axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlay olishi hisoblanadi. Talabalarda mediamadaniyatni rivojlanganligini asosiy mezon sifatida axborotlarni tanqidiy baholay olishi, media manbalardagi salbiy axborot ta'sirini mantiq, refleksiya, dialog, talqin, shaxsning himoya munosabatlarini shakllantiradigan axborot ta'sirining tasniflarini bilishga tayanish orqali aniqlay olishidir. Tanqidiy fikrlashning himoya funksiyasini amalga oshirish uchun da'vatlovchi kuch – talabaning axborot-psixologik xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojidir va ijtimoiy-madaniy omillar, fikrlash subyektining individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari esa, aqliy faoliyat uchun sharoit yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Oksford entsiklopediyasida “mediata'lim mediani o'rganishdir”. Mediata'lim yaratilayotgan va tarqatilayotgan mediamatnlar bilan bog'langan. Ta'lim oluvchilar mediamatnlarning mazmun-mohiyatiga izoh va baho berish uchun tahlil qila olish qobiliyatini o'zida shakllantiradi. Mediani o'rganish odatda amaliy tarzda, ya'ni mediamatnlar yaratish bilan bog'liq amalga oshiriladi. Mediata'lim mediani o'rganish orqali mediasavodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.⁵²

“Pedagogik qomusiy lug'ati”da esa mediata'lim quyidagicha tariflanadi: “o'rganuvchilarga ommaviy kommunikatsiyani

⁵² Dorr A. Media Literacy. In: International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. Vol. 14 / Eds.N.J.Smelser & P.B.Baltes. Oxford, 2001. – Pp. 9494 -9495.

o'rgatuvchi pedagogikaning bir yo'nalishi"⁵³, YUNESKOning ta'rifi ko'ra "mediata'lim zamonaviy ommaviy axborot vositalari bo'yicha bilimning nazariya va amaliyotini o'rganishdir".⁵⁴

Mediata'lim – bu ommaviy kommunikatsiya vositalarining (massmedia) yordami va materiallari hisobidan ular bilan muloqot qilish madaniyatini, ijodiy, kommunikativ ko'nikmalarni, tanqidiy fikrlashni, to'liq idrok etish, media matnlarni, ya'ni ommaviy media orqali tarqatiladigan turli xil asarlar tahlil qilish, talqin qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun shaxsni rivojlanish jarayonidir. Mediata'lim (media education) barcha turdagi media (bosma va grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) va turli xil media madaniy va axborot texnologiyalari bilan bog'liq. I.V.Grigoreva oliy ta'lim muassasasi talabasining media ta'limni ahamiyatini tushuntirib, "dinamik dunyoda erkin amalga oshiriladigan ma'lumot o'zini o'zi mustaqil rivojlantiradigan, o'zini o'zi mustaqil ta'minlovchi shaxsning media kompetentligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratligi ayon bo'ladi".⁵⁵

Mediata'lim orqali dunyoning yetakchi mamlakatlari ta'lim sohasining ustuvorligiga erishdi. Bugungi kunda yangi sifatli ta'limga erishish uchun ta'limni axborotlashtirish va o'qitish uslublarini optimallashtirish, ochiq ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanishni amalga oshirish zarur.

Mediata'lim orqali ma'lum fanlarni o'qitishning dunyodagi eng yaxshi dars namunalari, tayyor kurslar dasturlarini internet tarmog'i orqali o'rganish mumkin. Bu har qanday shaxsning o'z ustida ishlab, o'zi qiziqqan sohani mukammal o'rganishga imkoniyatdir. Mediata'lim orqali dunyo kutubxonalari fondlari, axborot ma'lumotlar bazalari, eksperimental jihozlar, etakchi laboratoriya va institutlarning ilmiy natijalarining haqiqiy bitmas-

⁵³ Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М.Бим-Бад; Редкол.: М.М.Безруких, В.А.Болотов, Л.С. Глебова и др. – М.: Большая Рос. энцикл., 2002. – С. 138.

⁵⁴ UNESCO [Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In: Education for the Media and the Digital Age. Vienna: UNESCO, 1999. – P. 273-274. Reprint in: utlooks on Children and Media. Goteborg: UNESCO & NORDICOM, 2001. – P.152.

⁵⁵ Григорьева И.В. Вовлечение студентов в активную медиадеятельность по созданию медиаобразовательного пространства педагогического вуза (из опыта работы) - Казань: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2008. С. 264-270

tuganmas resurslariga masofadan kirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu dunyo bolalarining deyarli bir xil imkoniyatga egaligini ham ko'rsatib beradi. Mediata'lim jarayonida talabalarda mediasavodxonlikka urg'u beriladi.

Yevropa Ittifoqi hujjatlarida ta'riflanishicha, mediata'lim – (media education) olingan axborot asosida o'z fikrini bildirishga qodir bo'lgan mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalash maqsadida mediaga tanqidiy va o'ylab munosabatda bo'lish sifatida tushunish kerak bo'lgan mediakompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim. Bu fuqarolarga zarur axborotlardan foydalanish, uni tahlil qilish, ular bilan bog'liq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy manfaatlarni identifikatsiya qilish.⁵⁶

Media ta'limning asosiy vazifalari: ta'lim oluvchilarni jamiyatdagi axborotlashtirish va raqamlashtirish sharoitida hayotga tayyorlash, turli ma'lumotlarni idrok etish, insonni uni tushunishga o'rgatish, uning psixikaga ta'sirining oqibatlarini anglash, ta'sir qilish usullarini o'zlashtirish va og'zaki bo'lmagan shakllarga asoslangan muloqot texnik vositalaridan foydalangan holda munosabatga kirishish demakdir.⁵⁷

Olima I.N.Gendina “Shaxsning **mediamadaniyati**, mediasavodxonligidan tashqari, o'ziga xos axborot dunyoqarashiga ega bo'lishi, axborot bilim va ko'nikmalarni egallashda ishonch shakllanishi, axborotlashgan jamiyatda yashovchi individdan muayyan tomonidan qanday maqsadlarga erishish lozimligini anglashi va ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish uchun mas'uliyatni his etishi kabilarni qamrab oladi”⁵⁸ degan yakuniy xulosalarini keltirib o'tadi.

Tadqiqotchilar mediata'lim pedagogik amaliyotga keng tadbiiq etilgani bilan, klassik ta'lim tushunchasi o'z mazmun-mohiyatini

⁵⁶ <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/media-literacy>

⁵⁷ Медиакультура и образование: особенности взаимодействия и развития. – // <https://topuch.ru/referat-mediakultura-i-sovremennoe-obshchestvo/index.html>.

⁵⁸ Гендина Н.И. Информационная грамотность и информационная культура личности: международный и российский подходы к решению проблемы // Проблемы образования. – №5–2007. – С. 58-69; Формирование информационной культуры личности: теоретическое обоснование и моделирование содержания учебной дисциплины / Н.И.Гендина, Н.И.Колкова, Г.А.Стародубова, Ю.В.Уленко. – М.: Межрегиональный центр библиотечного сотрудничества, 2006. – 512 с.; Медиа и информационная грамотность в обществах знания / Сост. Кузьмин Е.И., Паршакова А.В. – М.: МЦБС, 2013. – 384 с.

yo‘qotmasligini ta’kidlab o‘tadilar. “Media va media ta’limi uchun turli media vositalardan foydalaniladigan bo‘lsa ham, asosiy komponentlar sifatida ta’lim maqsadi va usullari, o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi o‘zaro munosabatlar bo‘lib qoladi”.⁵⁹

Mediamadaniyat va mediasavodxonlik mediata’lim asosida shakllanadi hamda rivojlanadi. Media ta’limning maqsadi – o‘z shaxsiyati va hayotini shakllantirish, rivojlantirish uchun ommaviy axborot vositalarining o‘sib borayotgan turlari haqida tanqidiy fikr yuritish, ulardan oqilona va ehtiyojlariga qarab tanlash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalaridan to‘g‘ri, ijodiy va ijtimoiy mas’uliyat bilan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan jarayondir.

Ilmiy tadqiqotlari asosida talaba shaxsining media kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus tashkil etiladigan pedagogik sharoitlar zarur. I.V.Grigorevaning fikricha, oliy o‘quv yurtining o‘quv jarayoniga quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatli bo‘ladi:⁶⁰

- mediata’lim blokini oliy ta’lim standartlariga kiritish;
- oliy o‘quv yurtining mediata’lim maydonini sifatli tashkil etish;
- o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarni media tarbiyaviy xarakterdagi mazmun bilan to‘ldirish;
- talabalarni faol media faoliyatiga jalb qilish orqali o‘quv rejasi fanlarining mediata’lim salohiyatini talabalar tomonidan ularni o‘rganish jarayonida izchil amalga oshirish.

YUNESKO tomonidan mediata’limni XXI asr pedagogika rivojining ustuvor yo‘nalishi sifatida baholanadi va unga quyidagicha ta’rif berilgan:

- “Mediata’lim – medianing barcha turlari (bosma va grafik, ovoz, ekranli va boshqalar) va turli xil texnologiyalar bilan bog‘liq;
- u odamlarga o‘z jamiyatlarida ommaviy

⁵⁹ Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T.: Extremum-press, 2017.-20 (98)

⁶⁰ Григорьева И.В. Вовлечение студентов в активную медиатедеятельность по созданию медиаобразовательного пространства педагогического вуза (из опыта работы). – Казань: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2008. – С. 264-270.

kommunikatsiyadan qanday foydalanilishini tushunish, boshqa odamlar bilan muloqotda mediadan foydalanish ko'nikmalarini egallashga imkon beradi;

– insonni qanday qilib:

1) mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy talqin qilish va yaratish;

2) mediamatnlarning manbalarini, ularning kontekstini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijoriy va madaniy manfaatlarini aniqlash;

3) tarqatilayotgan medianing mediamatn va qadriyatlarini tatbiq etish;

4) o'zlarining shaxsiy mediamatnlarini yaratish, tarqatish va ularga qiziqqan auditoriyani jalb qilish uchun tegishli mediani tanlash;

5) idrok qilish uchun ham, ishlab chiqish uchun ham mediadan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishga yo'naltiradi".⁶¹

Mediapedagog A.V.Fedorov fikricha mediata'limning mazmun mohiyati hamda mediamadaniyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqidagi fikrlar turli ilmiy qarashlarni umumiy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. A.V.Fedorov "media bilan aloqa qilish madaniyatini, ijodiy, kommunikativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarni shakllantirish, mediamatnlarini talqin etish, tahlil qilish va baholash, mediatexnologiyalardan foydalangan holda o'zini ifoda etishning turli shakllarida o'qitish maqsadida ommaviy aloqa vositalari (media) materiallari orqali ta'lim berish va shaxsni rivojlantirish jarayoni"⁶² degan ilmiy fikrni bayon etib o'tgan. Mazkur fikrga to'ldiruvchi fikrni L.S.Zaznobina bildirgan. Olima mediata'limni "ta'lim oluvchilarni turli xil o'quv fanlarni o'rganishda media ta'limiy jihatlarini kuchaytirish orqali axborotlashgan makonda yashashga tayyorlov"⁶³ sifatida ta'riflaydi.

N.A.Sidorina o'z dissertatsion ishida media ta'lim bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalarini bayon etib o'tadi: "media ta'limning

⁶¹ Educating for the Media and the Digital Age // International Conference. – Vienna: UNESCO, 1999. – P. 273-274.

⁶² Федоров А.В. Медиаобразование: история, теория и методика. – Ростов н/Д.: ЦВБП, 2001. – С. 19.

⁶³ Федоров А.В., Челышева И.В. Сравнительный анализ медиаобразовательных моделей // Медиаобразование. 2007. No2. – С. 64. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-mediaobrazovatelnyh-modeley>.

asosiy maqsadi – talabalar ongida zamonaviy multimedia makonida voqelikning adekvat manzarasini rivojlanishdir. Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalar tomonidan media ma’lumotlarni passiv idrok etish samarasizdir. Binobarin, ta’lim jarayoniga media resurslarni joriy etishda asosiy pedagogik vazifa intellektual harakatsizlikni istisno qiluvchi tanqidiy fikrlash, ijodiy vazifalar tizimi orqali media axborotni samarali idrok etishni rivojlantirishdan iborat”.⁶⁴ N.A.Sidorinaning fikridan kelib chiqqan holda, quyidagi xulosaga kelish mumkin: media ta’lim o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi hamda talabalarning media kompetentligini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Mediamadaniyat – turli media manbalarini tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi. Shaxsda media mahsulotlarni o‘z “ma’naviy filtr”i (mafkuraviy immuniteti) orqali ko‘ra olishi undan bir qator bilim va ko‘nikmalar kerak bo‘lishini ko‘rsatadi. Media vositalaridagi targ‘ibot-tashviqotni, biryoqlamalilikni va buning sabablarini, ma’lumot tarqatuvchining niyatlarini ko‘rib turishadi. Bunday mediamadaniyat mediamahsulotlarga tanqidiy yondashuvni belgilab beradi, aldanishlardan asraydi.⁶⁵

Mediata’lim jarayonida talabalarda mediasavodxonlikka urg‘u beriladi. Mediamadaniyat – axborotga tanqidiy qarash, xolis yondashish va har bir axborotni saralashda ongli ravishda yondashishdir. Mediamadaniyat maqsadlari quyidagi ko‘rinishda ifoda etiladi:

- ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali beriladigan axborotlarni tushunish, qayta ishlash va keng talqin etishga o‘rgatish;
- ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini o‘zgartirishga harakatlariga qarshilik qilishni bilishni rivojlantirish;
- talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va

⁶⁴ Сидорина Н. А. Социально-педагогическое сопровождение развития одаренности подростков в детском оздоровительном лагере : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 Кострома, 2006 226 с. РГБ ОД

⁶⁵ Умурзакова Б.А. Медиатаълим орқали медиамаданиятни ривожлантириш илмий-педагогик асослари ва зарурати / Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, Jild:03|Nashr:03|март 2022. – 287-292-б.

qabul qilish malakasini shakllantirish.

Fikrimizcha, media ta'sirida oladigan ma'lumotni qayta ishlay olish, mantiqiy va analitik tahlil qilib ko'rish, uning yashirin aks ta'sirini anglash ko'nikmalarini rivojlantirish sifatida mediamadaniyat bo'lajak muhandis-pedagoglar uchun sifat hisoblanadi. Bo'lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirish, mediata'lim orqali medianing salbiy ta'sirlarini ilg'ay olish ko'nikmalarini shakllantirish, bu orqali kelgusi kasbiy faoliyatida ta'lim oluvchilarning ham g'oyaviy aldanishdan saqlash iqtidoriga ega bo'ladi. Mediamadaniyatni shakllantirish zaruratini tadqiq etishdan avval axborot savodxonligi, axborot madaniyati, mediata'lim va mediamadaniyat tushunchalarining mazmun mohiyati, lug'atlarda tariflanishini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bo'lg'usi muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirish bilan ularning axborot savodxonligini rivojlantirish uzviy bir jarayondir. Axborot savodxonligi – axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikmalar hamda malakalar majmuini bildiradi. Axborot savodxonligi axborotni qabul qilish, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanish hamda tadbqiq etishning muhimligini tavsif etadi. Axborot savodxonligi mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Mediasavodxonlik media funktsiyalarini tushunish, mazkur funktsiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi. Mediasavodxonlik ham axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat'iy nazar o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq.

Mediata'lim talabalarga dunyo mediamadaniyatiga moslashish, ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirish, mediamadaniyat asarlarini tahlil qilish va h.k. larda yordam berishga mo'ljallangan.

A.V.Sharikov⁶⁶ mediata'limni "pedagogik nazariya va amaliyotda bilimlar sohasining maxsus va avtonom bir qismi sifatida qaraladigan zamonaviy ommaviy axborot vositalarini o'zlashtirish uchun amaliy ko'nikmalar va nazariyani o'qitish" sifatida baholaydi. Professor Yu.N Usov mediata'lim "...ta'lim oluvchining hissiy va intellektual rivojlanish jarayonini, uning imkoniyatlarini simulyatsiya qiladigan badiiy-ijodiy faoliyat amaliyotini nazarda tutadi"⁶⁷ degan xulosaga keladi. Oliy ta'lim muassasalarida mediata'limni joriy etish va bu orqali talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish muammosi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mediata'limni barcha davlatlarning milliy o'quv dasturlariga, qo'shimcha, noformal va "butun hayot davomida o'qish" ta'lim tizimlariga joriy etish uchun tavsiya etilmoqda.

I.Chelisheva pedagogik amaliyotni kuzatgan holda o'z ilmiy asarida "mediata'lim bir necha (integratsiyalashgan, maxsus yoki fakultativ) yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin"⁶⁸ligini aytib o'tgan. Mediata'limni integratsiyalash, mediata'lim komponentlarini integratsiyasi mediata'limning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida, dars jarayoni yoki ma'ruzalarga mediamadaniyat ishlanmalari parchalaridan foydalangan holda interfaol elementlarni kiritish imkonini beradi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi o'quv dasturlarida alohida fan sifatida "mediamadaniyat" yoki "mediakompetentlik"ga doir fanlar ko'zda tutilmaganligini hisobga olsak, bugungi kunda mediamadaniyatni va uning komponentlarini talaba shaxsida shakllantirish va rivojlantirish uchun istiqbolli ta'lim turlaridan biri – mustaqil ta'lim hisoblanadi.

A.V.Federov mediamateriallarga asoslangan ijodiy vazifalar o'qitish, moslashish, rivojlantirish va boshqarish funktsiyalarini

⁶⁶ Шариков А.В. Экспериментальные программы меди-Шариков А.В. Экспериментальные программы медиаобразования для старших классов школ гуманитарной ориентации [Текст] / А.В.Шариков, Е.А.Черкашин. – М.: Академия педагогических наук, НИИ средств обучения, 1991. – 43 с.

⁶⁷ Усов Ю.Н. Экранные искусства — новый вид мышле-Усов Ю.Н. Экранные искусства – новый вид мышления // Искусство и образования. 2000. – №3. – С. 48-69.

⁶⁸ Чельшева И.В. Теория, методика и практика развития медиакомпетентности современного педагога: монография / И. В.Чельшева. – Москва, Берлин: Директ-Медиа, 2019. – 149 с.

bajarishini ta'kidlab o'tadi:

- moslashish funktsiyasi – bilimlarni boshqa vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi;

- o'quv funktsiyasi nazariya va qonunlar, mediamatnlarni idrok etish va tahlil qilish usullari haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan;

- boshqaruv funktsiyasi – mediata'limni barcha jarayoni uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi;

- rivojlantiruvchi funktsiyasi – insonning motivatsion, irodaviy va boshqa xususiyatlari va fazilatlarini, media bilan ijodiy aloqa tajribasini rivojlantirishga qaratilgan.⁶⁹

Shuningdek, mediaresurslar vositasida bo'lajak muhandis-pedagoglar mustaqil ta'limini tashkil etilishi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalardan foydalanishni zarur ekanligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida talabalarning axborot – media va raqamli hamda kommunikativ, kolloborativ kompetentsiyalarini shakllantirish hamda fanga doir mustaqil ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Talabalar mustaqil ta'limini mediaresurslar vositalaridan foydalanib tashkil etishda samaradorlikka erishish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- talabalarning psixologik, fiziologik xususiyatlari, axborotlarni qabul qilish, idrok etish va individual shaxs sifatlarini inobatga olgan holda mediaresurslarni to'g'ri tanlash;

- mediaresurslar vositasida mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'lim kontenti va o'quv topshiriqlarining talaba tahsil olayotgan ta'lim tiliga mos kelishi, agar mustaqil ta'lim jarayonida xorijiy tildagi kontentdan foydalanilgan bo'lsa, uning talaba tahsil olayotgan ta'lim tilidagi tarjimai, yoki izohining taqdim etilishi;

- mustaqil ta'lim jarayoniga mediaresurslar vositasida geymifikatsiya (o'yin orqali o'rgatish) elementlarini joriy etilishi;

- mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning amaliy, ijodiy

⁶⁹ Федоров А.В. Медиаобразование: история, теория и методика. – Ростов н/Д.: ЦВБВР, 2001. – С. 65.

faoliyatga yo'naltirilganligini ta'minlash.⁷⁰

Bugungi kunda turli axborotlar bilan tanishish, ulardan o'zlarining ijtimoiy (kasbiy va kundalik) faoliyatida foydalanish oddiy hodisa sanaladi.⁷¹ Medianing shaxs hayotidagi o'rni va roli quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- axborot olish manbai;
- muloqot va kommunikatsiya;
- axborotni uzatish va tarqatish;
- o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish;
- ta'lim va tarbiya;
- dam olish, hordiq chiqarish, ijtimoiy muloqot;
- kundalik hayotda, shaxsiy yoki kasbiy faoliyatda qo'llash;
- qobiliyat, iste'dodni shakllantirish va rivojlantirish;
- shaxsiy va kasbiy-pedagogik faoliyatda qo'llash;
- g'oyalarni shakllantirish va targ'ib qilish;
- xulosa chiqarish, qaror qabul qilish;
- shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, me'yorlarga rioya qilish;
- kasbiy kompetentsiyalarni takomillashtirish.

Shaxs bilimdonligi uning ma'lum yoki tegishli (kasbiy nuqtai nazaridan) soha bo'yicha "bilimlarni puxta egallaganligi, bilag'onligi"ni bildirsa, "mediabilimdonlik" tushunchasi esa "shaxsning shaxsiy yoki kasbiy qiziqish, ehtiyoj hamda majburiyatlaridan kelib chiqqan holda media orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholashga oid bilimlarni puxta egallaganligi"ni qayd etadi.

"Kompetentlik" tushunchasi shunday ta'riflanadi: shaxs tomonidan "shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi"⁷² ekanligi bilish jarayoniga xos, bir-biri bilan o'zaro bog'liq ikki muhim

⁷⁰ Умарова З. Мустақил таълим жараёнида медиаресурсларнинг аҳамияти / Замонавий таълим/ Современное образование, 2021, 6 (103). – 18-23-б.

⁷¹ Ruzieva D. I., Rustamova N.R., (2021). Analysis of theoretical studies of the concepts of vitagen and vitagenic education. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил No4), 42-46.

⁷² Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси / Масъул муҳар.: Р.Джурраев. Муал.: Н.Муслимов ва б. – Т.: "Fan va texnologiya" нашриёти, 2013. – Б. 9 (70).

jarayon:

1) bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishi;

2) mavjud bilim, ko'nikma, malakalarning kasbiy faoliyatda qo'llash kompetentlik sifatida namoyon bo'lishini anglatadi. Bu o'rinda kompetentlikning shaxsga xos sifat ekanligini qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, "kompetentlik" tushunchasini shaxsning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ifodalanishi maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi.

Mediakompetentlik – shaxsning shaxsiy yoki kasbiy qiziqish, ehtiyoj hamda majburiyatlaridan kelib chiqqan holda media orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholashga oid puxta bilimlar negizida ko'nikma, malakalarning hosil bo'lishi va ularning amaliy faoliyatda samarali qo'llash qobiliyati.⁷³

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog'i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko'rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo'lganligi sababli, katta sahnada – mediata'lim tushunchasining paydo bo'lishi, uning kelajakda ta'lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi.⁷⁴

Mediata'limning asosiy tamoyillari va metodlari bo'lajak muhandis-pedagoglarning intellektual va ijodiy qobiliyatini yuksaltirishga, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga, kognitiv jarayonlarini va o'z-o'zini anglashga qaratilganini inobatga olgan holda, mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi quyidagi qator imkoniyatlarni taqdim etadi:

⁷³ Rustamova N.R. (2021). Issues of Development of Students' Media Competence Based on Vitagenic (Life) Experience. Journal of Physical Education and Sport®(JPES), 21(6), 2599-2616.

⁷⁴ Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси («Информатика ва ахборот технологиялари» ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер....Тошкент, 2018. – Б. 36-37.

- har bir ta’lim oluvchi uchun moslashuvchan ta’lim olish tempi;
- axborotni idrok etish kanallarini inobatga oluvchi mediaresurslar shaklidagi o‘quv kontentidan foydalanish;
- mustaqil ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning faol ishtirokini ta’minlash;
- ta’lim jarayoniga kompetentsiyaviy yondashish;
- zamonaviy mediatexnologiyalar, mediaresurslar orqali ta’lim olish va ta’lim berish amaliyotining samaradorligini oshirish, uni yangi sifat bosqichiga olib chiqilishiga erishish.

II BOB. “MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI” FANINI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI VA AMALIY MEKANIZMI

2.1. “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanini o‘qitishning zamonaviy metodik ta’minoti

O‘zbekistonda xorijiy ta’lim tajribalari asosida ta’limning yagona axborot-ta’lim portallarini shakllantirish, fanlarning yagona axborot-metodik ta’minotini yaratish imkonini beradigan fan portallarini yaratish, axborot resurslaridan ta’lim jarayonida foydalanish metodikalarini ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, vositalari bilan jihozlash, talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilarning jahon ta’lim resurslari, zamonaviy axborot resurs markazlari ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlardan maqsadli foydalanish, ta’lim sifatini oshirish imkonini beruvchi zamonaviy ish tajribalar, o‘qitishning ilg‘or yondashuvlarini ommalashtirish, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan tadbirlar, treninglar, ilmiy munozaralar, davriy konferentsiyalarni muntazam tashkil etish ham oldimizda turgan asosiy masalar sifatida qaralmoqda. Shundan kelib chiqib, “ta’lim tizimining barcha bosqichlarida qog‘oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash hamda huddi shunday yondashuvga ko‘ra mavjud o‘quv jarayonini raqamlashtirish doirasini muttasil kengaytirib borish lozim”.⁷⁵

Manbalarda ta’limni axborotlashtirishning bosh maqsadi axborotlashgan jamiyat sharoitida ta’lim tizimi qatnashchilarini (pedagog kadrlar, ta’lim oluvchilar, texnik-muhandis xodimlar, ma’muriy-boshqaruv xodimlari va boshqalar) hayot faoliyatlaridagi

⁷⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиялари. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – Б. 190-191.

maishiy, ijtimoiy va kasbiy sohalariga to'liq va samarali ishtirok etishlariga tayyorlashdan iborat bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi ta'lim rivojlanishi muammolarining kompleks hal etilishi kadrlar tarkibini yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish, xodimlarning kasb darajasini oshirishni ta'minlashi ta'kidlanadi.⁷⁶

Tadqiqotchi olim A.Andreevning mulohazalariga ko'ra, "Axborotlashgan ta'lim muhiti bu – pedagogik tizim va uning ta'minoti birligi bo'lib, moliyaviy, iqtisodiy, moddiy-texnik, me'yoriy va marketing boshqaruvining qo'yi tizimidir"⁷⁷.

Hozirgi jamiyatda bilimlar inflyatsiyasi holati kuzatimoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, mustaqil ta'lim uchun media-ta'lim maydoni kontentini yaratish vazifasini qo'yadi. Bu kontentni faol va zamonaviy tendentsiyalarga, shuningdek, talabalar ehtiyojlariga mos keladigan qilib modifikatsiyalash maqsadida ta'limga yo'naltirilgan zamonaviy texnik vositalar va dasturiy ta'minotni tahlil qilishi zarur.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – yangi axborot va media-madaniy texnologiyalar vositalaridan foydalanish shartlari va usullarini aniqlashdan iboratdir. Aniqlangan va tahlil qilingan shart-sharoitlar muqarrar ravishda integratsiyalashib, tabiatan har xil bo'lgan talaba shaxsining media kompetentligini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish uchun oliy o'quv yurtida mediatrlashtirilgan o'quv muhitini tashkil etishga qaratilgan pedagogik holatlarning kompleks birligini tashkil qiladi.

Talabalaning media madaniyati rivojlanganligini aniqlash ko'p bosqichli jarayon hisoblanib, bunda maqsadga yo'naltirilgan tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. Tadqiqot ishi doirasida kuzatish metodidan keng foydalanildi. Kuzatish metodining mohiyati shundaki, tadqiqotchi mutaxassis boshqa shaxsning xatti-harakatlarini, xulq-atvorini kuzatadi va xulosa chiqaradi. Ilmiy

⁷⁶ Дендева Б. Информационные и коммуникационные технологии в образовании // Монография. – М.: 2013. – С. 318. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000210843_rus

⁷⁷ Андреев А.А., Рубин Ю.Б., Титарев Л.Г. Кафедра в системе открытого образования Материалы конференции "Образование в информационную эпоху" – М.: МЭСИ, 2001. – С. 90-100.

kuzatishlar jarayonida tadqiqotchi kuzatadigan obyektlarni nihoyatda diqqat bilan aniq o'rganishi, pala-partishliklarga yo'l qo'ymasligi lozim.

Ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanib borayotgani pedagog shaxsiga yangi talablarni qo'ymoqda. Hozirgi davrda muhandis-pedagoglarda ma'lumotlarni o'zlashtirish va qayta ishlash, ularni kasbiy-pedagogik faoliyatda qo'llash bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantirish bilan birga, tizimli ravishda media madaniyatini, mustaqil o'z-o'zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirish kompetensiyasining shakllanganligi dolzarb ahamiyatga ega.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislardan ham hayot davomidagi ta'lim (lifelong learning) asosiy talablardan biri bo'lib bormoqda.⁷⁸

Oliy ta'lim muassasalari talabalarning media vositalaridan foydalanishining holati ularning qiziqishi, ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilanadi deb aytish, ayni haqiqat. Quyida talabalarning media vositalaridan foydalanishidagi mavjud holatni keltirish mumkin:

I. E-Learning platformalari. Deyarli barcha oliy ta'lim muassasalari talabalarning E-Learning-Platformalaridan foydalanishi uchun qulay imkoniyatlar taqdim etadi. Bularning ichida eng ommalashganlari qatoriga Moodle yoki Blackboard kabi platformalarni keltirib o'tish mumkin. Mazkur platformalar orqali talabalar turli o'quv kurslari, forumlarda ishtirok etishi, onlayn rejimda topshiriqlar bajarishi, yuklab olishi, shuningdek turli o'quv materiallaridan foydalanishi mumkin bo'ladi.

II. Onlayn-tadqiqot imkoniyatlari. Talabalar internet tarmog'i orqali o'quv loyihalari, topshiriqlar yoki uy vazifalari uchun ma'lumotlar qidirishadi. Keng ommalashgan onlayn-tadqiqot imkoniyatlari sifatida Google qidiruv xizmati, ilmiy ma'lumotlar bazasi sanalgan JSTOR yoki PubMed kabilarni keltirish mumkin.

III. Ijtimoiy tarmoqlar. Talabalar orasida eng ommalashgan media vositalar sarasiga ijtimoiy tarmoqlar kiradi. Ulardan eng

⁷⁸ <https://www.valamis.com/hub/lifelong-learning>.

mashhurlari Telegram, Facebook, Whatsapp, Twitter yoki Instagram. Bular orqali talabalar o'z o'qish faoliyati yoki shaxsiy qiziqishlari asosida boshqa talabalar bilan aloqa qilishadi.

IV. Elektron kitoblar va jurnallar. Talabalar orasida kutubxonaga bormasdan elektron kitoblar va jurnallardan foydalanish ham qulay, ham intensivlashib bormoqda. Hozirgi kunda eng so'nggi ilmiy tadqiqot natijalari asosan elektron kitoblar va jurnallar ko'rinishida keng ommaga taqdim etilmoqda.

V. Videokonferentsiyalar. Masofaviy ta'limning mazmun va mohiyati ortib borishi natijasida virtual o'quv xonalari vujudga kelmoqda. Virtual o'quv xonalarida asosan videokonferentsiyalar asosida o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Videokonferentsiya onlayn rejimdagi ma'ruza hamda seminarlarni tashkil etishning asosini tashkil etadi.

VI. Turli mobil ilovalar (App). Talabalarning o'quv faoliyatida qulaylik keltiruvchi bir qator mobil ilovalar mavjud. Jumaladan, ularning muhim sanalar, uchrashuvlarini tashkil etishga qaratilgan mobil ilova, mindmap tashkil etish uchun ilova, xorijiy tillarda yangi so'zlarni o'rganish uchun ishlab chiqilgan ilovalarni kelirib o'tish mumkin. Mediamadaniyatning ajralmas sifatida mediaga qaramlikdan himoya qilish metodlarini bilish hisoblanadi.

VII. Vaqt menejmenti. Mediaga qaramlikni samarali usuli sifatida vaqt menejmenti keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Bunda talaba kunlik mediadan foydalanishi uchun vaqt chegarasini qat'iy belgilaydi va bunga amal qiladi. Buni nazorat qilishda mobil ilova yoki timerdan foydalanish mumkin bo'ladi.

VIII. O'rganish muhiti. Talabalar uchun o'qish va o'rganish muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda o'qish va o'rganishdan chalg'ish ortib bormoqda. Chalg'ituvchi omillarni kamaytirish yoki butunlay bartaraf qilish o'rganish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Media vositalariga vizual chag'ishni kamaytirish yoki bartaraf etishda o'rganish joyi va muhitini tashkil etish lozim bo'ladi.

IX. Qat'iy yo'naltirilgan ta'lim. O'rganish jarayonida media vositalariga chalg'imaslik uchun qat'iy maqsad asosida faqat

o'rganish faoliyatiga diqqat-e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Misol uchun, agar talaba biror loyiha ustida ishlayotgan bo'lsa, shaxsiy kompyuterdagi barcha qo'shimcha chalg'ituvchi dasturlarni berkitib qo'yishi, mobil telefonini ko'zga ko'rinmas joyga olib qo'yishi samara beradi.

X. Bir vaqtda ko'p vazifalarni bajarishdan saqlanish (Multitasking). Bu talabalarning o'zlashtirish samaradorligiga ta'sir qilib, bosim ostida o'rganish hissini uyg'otadi. Shaxsiy kompyuterda ishlaganda ham bir qator fayllarni yoki dasturlardan foydalanmasdan, faqat kerakli va zarur fayl va dasturlar bilan ishlash tavsiya etiladi. Shunda barcha vazifalarni navbatma-navbat bajarilishiga erishiladi.

XI. Chalg'ituvchi omillardan saqlanish. Talaba ma'lum bir mediamanba orqali chalg'ishini bilsa, imkon qadar ma'lum bir o'rganish vaqtida qat'iy foydalanmaslikka odatlanishi zarur bo'ladi va bu o'z navbatida mashq orqali qoida, shaxsiy tamoyil sifatida rivojlanib boradi.

XII. Tanaffuslar. O'rganish jarayonida doimiy tanaffuslar zarur bo'lib, bu vaqtda yaxshi dam olish, bu orqali samaradorlikka erishish lozim bo'ladi.

XIII. Meditatsiya. Meditatsiya ruhiyatni tinchlantirish va kontsentratsiyani yaxshilanishi uchun yaxshi samarali vosita hisoblanadi. Meditatsiya nafas olish, konsentratsiya qilish orqali ruhiyatni markazlashtirish mashqlari hisoblanadi.

Futurologik jihatdan mediamadaniyatning kelgusi rivojlanish tendentsiyalarini baholash murakkab jarayon hisoblanadi. O'z navbatida bu bir qator omillar: texnologik taraqqiyot, jamiytdagi o'zgarishlar va iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bogliq. Shunday bo'lsada mavjud rivojlanish tendentsiyalari va rivojlanish yo'nalashlaridan quyidagi ssenariyni tasavvur qilish mumkin bo'ladi:

– mobil internet tarmog'i va ijtimoiy media mazmun mohiyati ortib boradi va axborotlar va muloqot almashinivining ustuvor manbasi bo'lib qoladi. Ayniqsa, videomateriallarga bo'lgan talab ortib boradi. Bunda yuqori sifat va interfaollik ustuvorlikka ega

bo'ladi;

- sun'iy intellekt va media bo'yicha o'z tajribasi asosida shakllangan tavsiyalarga talab ortadi. Foydalanuvchilarning shaxsiy qiziqishlari va maqsadlari ixtisoslashib boradi;

- virtual borliq texnologiyalari media vositalariga integratsiya bo'lib boradi. Foydalanuvchilar immersiv (chuqurroq) hamda interaktiv (faolroq) virtual borliq texnologiyalaridan foydalanadi va o'z shaxsiy va kasbiy faoliyatida keng qo'llaydi;

- blockchain-texnologiyalar va kriptovalyutalar media sohasidagi biznes modellari va daromad oqimlarini yaratish orqali kontentni ishlab chiqarish, tarqatish va monetizatsiya qilish usulini o'zgartirishga turtki beradi.

Ishonchli, sifat jihatdan yuqori axborot manbalariga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning haqiqiyliги va manbalarni tahlil qilish yuzasidan professional bilimга ega bo'ladilar. Bu hozirda mavjud an'anaviy mediavositalar: televideniya va bosma medianing formati o'zgarishiga olib keladi. Yuqorida keltirilgan futurologik tahlil texnologiyalarning rivojlanish tendentsiyasiga uzviy ravishda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirishda quyidagi bosqichlar amalga oshirilishi lozim:

1. Aniq maqsadlarni belgilash. Muhandis-pedagoglarni tayyorlashda o'quv jarayoniga medialarni tadbiiq etishdan avval, aniq va tushunarli maqsadni belgilashi lozim bo'ladi. Mediani o'quv jarayoniga tadbiiq etish orqali qanday natijaga erishishini belgilay oladi. Bu professor-o'qituvchidan belgilangan maqsaddan og'masligini ta'minlaydi hamda o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Faol ta'limni qo'llab-quvvatlash. Medialar o'quv jarayonini samaradorligiga xizmat qiladi va talabalarning faol ta'lim olishini qo'llab-quvvatlaydi. Dars jarayonida videomaterialni tadbiiq etish orqali talabalarning muzokara hamda mushohada qilishi uchun motivatsiyasini oshiradi hamda talabalarning xotirasida qolishiga erishiladi.

3. Differenziyallash. Medialarning afzallik tomonlari o'quv jarayonida differentsiyalash imkonini berishdir. Bir sinfda turli o'zlashtirish darajasiga ega ta'lim oluvchilarga turli materiallar taqdim etish differentsiallashtirgan ta'limning asosiy shartlaridan biridir. Muhandis-pedagoglar media vositalar yordamida ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlariga mos keluvchi o'quv jarayonini taqdim etadi.

4. Doimiy qayta aloqa (feedback). Medialardan ta'lim oluvchilar bilan doimiy qayta aloqa qilish uchun ham keng foydalanish mumkin bo'ladi. Bu orqali o'quv jarayoni samarasi ortib boradi. Muhandis-pedagoglar maxsus onlayn platformalar orqali o'quvchilarning sinov ishlariga munosabat bildirish imkoniyatidan ham foydalanish mumkin. Bu orqali ta'lim oluvchilar o'zlashtirishini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

5. Hamkorlikni qo'llab-quvvatlash. Medialardan ta'lim oluvchilarning hamkorlikda o'rganishini qo'llab-quvvatlash uchun ham foydalanish mumkin. Muhandis-pedagoglar onlayn muzokora qilish uchun turli forumlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, muhandis-pedagog ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun onlayn taqdim qilishi va bu orqali o'quvchilarning hamkorlikda o'qishi uchun motivatsiyasini oshiradi.

Mediamadaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar medianing madaniy fenomen sifatida insonlarda shakllanishiga xizmat qiladi. Metodlar mediamadaniyatning jamiyat hayotiga ta'sirini oshiradi.

Mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan metodlar quyidagilardan iborat:

1. Medianing mazmunini tahlil qilish. Bu metod orqali televideniya, filmlar, ko'rsatuvlar yoki gazetadagi maqolalar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Bundan maqsad tahlil asosida jamiyat hayotida dolzarblik kasb etadigan mavzular, an'analar, muammolar va rivojlanish yo'nalishlari identifikatsiya qilinadi.

2. Tanqidiy nutq tahlili. Mazkur metod media mazmuniga singdirilgan g'oyalar va turli guruhlarining qiziqishini mediada qo'llanilgan bayon qilish tili va mazmunini tanqidiy tahlil qilishni

tavsif etadi.

3. Etnografiya. Bu talabalar media manbalarni qabul qilish, anglash va mohiyatini tushunishini o'rganuvchi metod. Bunda suhbat, kuzatish va boshqa kvalitatif metodlar qo'llaniladi.

4. Tarixiy tahlil. Bu metod medialarni artefakt sifatida qarab, ma'lum bir vaqtdagi jamiyat talablari va madaniy qadriyalarni taqqoslab o'rganadi.

5. Tarmoqlararo bog'liqlik. Bu metod orqali medialararo bog'liqlik, taqdim etishdagi ustuvorliklar o'rganiladi.

Bo'lajak muhandis-pedagoglar kattalar ta'limi, kasbiy ta'lim yoki maktab ta'limida faoliyat ko'rsatishi nuqtai nazaridan barcha sohalarda o'quv jarayonida medialardan samarali foydalanish, tadbiq etish va jamiyatda bo'layotgan voqelikni medialarda yoritilishiga o'z munosabatini bildirish zarurati bor.

Mediakompetentsiya mediamadaniyatni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Bu asosan texnika sohasidagi yangiliklar (Know-how)dan xabardor bo'lish, medialarni tanqidiy baholay olish, o'qitish va o'rganish jarayoniga integratsiya qila olishini qamrab oladi.

Quyida keltirilgan topshiriqlar o'quv jarayonini real vaziyatlarga bog'lash hamda talabalarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

1. Mediatahlil. Quyida keltirilgan tahliliy maqolani tanqidiy baholang. Maqola manbasini ishonchliligini tekshiring. Maqolada ma'lum bir positsiyani himoya qilish yoki manipulyatsiya usulini baholang.

2. Mediamahsulot. Muhandislik sohasiga doir mediamahsulot shakllantiring. Mediamahsulot sifatida blog, video yoki podcast tayyorlashingiz mumkin. Mediamahsulot uchun samarali, o'z g'oyalaringizni aniq va to'liq namoyish etib bera oladigan media elementlar tanlang.

3. Ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hudud. Ijtimoiy tarmoqlarni ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hudud nuqtai nazaidan tadqiq qiling. Shaxsiy ma'lumotlaringizni himoya qilish va onlayn ravishda shaxsiy hududingiz xavfsizligini ta'minlashga doir

ro'yhat ishlab chiqing.

4. Ishonchli va soxta xabarlar. Munozoraga sabab bo'lgan yoki soxta xabar deb topilgan xabarlardan birini tanlang. Xabarning soxta xabar deb topilishiga sababni asoslang. Soxta xabarning asosiy belgilarini aniqlang. Xabarni o'z mutaxassisligingizdan kelib chiqqan holda tanlang.

5. Mediaetika. Kichik guruhda media bilan bog'liq etikaga doir muzokara o'tkazing. Mavzu sifatida shaxsning roziligisiz rasmlaridan foydalanish, kibermobbing yoki medianing jamiyatga, insonlarga ta'siri xususiyda bahslashing. Mediadan mas'uliyatli foydalanishning asosiy qoidalari va xulq-atvor me'yorlarini ishlab chiqing.

6. Mediatanqid. Mutaxassisligingizga doir teleko'rsatuvni tanlang. Ko'rsatuvdagi asosiy g'oyani aniqlang. Ko'rsatuvdagi stereotiplar yoki noto'g'ri qarashlarni aniqlang. Aniqlangan fikrlardan kelib chiqqan holda sizning nazaringizda ko'rsatuvni takomillashtirish yuzasidan fikringizni bayon qiling.

7. Ommaviy axborot vositalarini tartibga solish. O'z mamlakatingizda yoki xalqaro miqyosda ommaviy axborot vositalarini tartibga soluvchilarning roli va ahamiyatini ko'rib chiqing. Ommaviy axborot vositalarini tartibga solishning turli modellarini tadqiq qiling va turli yondashuvlarning ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiling.⁷⁹

Shuningdek, muhandis-pedagogning mediamadaniyati ularning kasbiy-pedagogik faoliyatining qaysi ta'lim muassasasida va qanday pedagogik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlari tashkil etilishiga bog'liq. Pedagogik kontsepsiya sifatida faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli ta'lim yoki hamkorlikdagi ta'limni keltirib o'tish mumkin. Mazkur yondashuvlar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayonida medialarning ahamiyati va didaktik imkoniyati turlicha.

Talabalarda mediamadaniyat media sohasidagi rivojlanish tendentsiyalari hamda jamiyatda mediaga bo'lgan ijtimoiy

⁷⁹ [Sangeeta K.](#), Shailendra S. A Critical Analysis of Privacy and Security on Social Media / 2015 Fifth International Conference on Communication Systems and Network Technologies. Gwalior, India. Volume: 978-1-4799-1797-6/15. – P. 602-608. DOI:[10.1109/CSNT.2015.21](#).

munosabatlar negizida birgalikda rivojlanib boradi.

Quyida media sohasidagi rivojlanish tendentsiyalari va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar keltirib o'tilgan:

1) insonlarning yangiliklarni "iste'mol" qilishidagi o'zgarishlar. O'tmishda yangiliklar asosan kundalik gazetalar va kechki televidenie orqali "iste'mol" qilingan. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan yangiliklar manbalari juda kengaydi va odamlar yangiliklardan turli yo'llar bilan foydalana olmoqdalar. Bu esa yangiliklarning manbalarini ishonchliligini tekshirishni taqozo etadi;

2) ommaviy axborot vositalarining yangi shakllarining rivojlanishi. Texnologik taraqqiyot ijtimoiy media, podkastlar, Netflix va Spotify kabi platformalar kabi ommaviy axborot vositalarining yangi shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bular bizning "media iste'molchi"lik madaniyatimizni o'zgartirdi va ular bilan ishlashda yangi ko'nikma va malakalarni talab qiladi.

3) madaniyat va jamiyatdagi o'zgarishlar. OAV madaniyat va jamiyatga ko'p jihatdan ta'sir qiladi. Ular g'oyalar, qadriyatlar va me'yorlarning tarqalishiga hissa qo'shadi, shuningdek, ijtimoiy harakatlarni boshlash yoki siyosiy munozaralarni boshlashga yordam beradi.

4) internet tarmog'ining kashf etilishi. Internet tarmog'ining kashf etilishi bilan mediamanbalarning formati o'zgarib ketdi. Shuningdek muloqot turlari va imkoniyatlarini ortishiga turtki bo'ldi. Natijada turli jamiyatlarda mediamadaniyatning rivojlanishi uchun katta ta'sir ko'rsatdi. Internet tarmog'i yangi ijtimoiy medialarni, platformalarni hamda ilovalarni (App) shakllanishiga turtki bo'ldi va bu insonlarning bir-biri bilan muloqot qilishi, integratsiya bo'lishi hamda muloqot qilishiga zamin yaratdi;

5) ijtimoiy media platformalar. Facebook, Twitter, Instagram va Snapchat kabi ijtimoiy medialar insonlararo muloqotning tur va shaklini o'zgartirib yubordi. Ular ma'lumotlarni, xabarlarni va fikrlarni tarqatish, uzatish uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi;

6) o'yin-madaniyati. O'yin-madaniyati ham keyingi yillarda keng ommalashdi und dunyo bo'ylab millionlab insonlarning

sevimli mashg'ulotiga aylandib ulgurdi. Videoo'yinlar faqatgina bo'sh vaqt o'tkazish mashg'uloti emas, balki san'at orqali tasvirlash va ma'lumot berish manbaasi hisoblanadi.

7) Streaming platformalari. Netflix, Amazon Prime va Hulu kabi striming platformalari odamlarning filmlar va teleko'rsatuvlarni iste'mol qilish uslubini o'zgartirdi. Ular, shuningdek, yangi seriallar va film janrlarining rivojlanishiga imkon berdi va shu bilan media madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

8) Podkastlar. Podkastlar so'nggi yillarda paydo bo'lgan nisbatan yangi vositadir. Bu har bir foydalanuvchi uchun yakka tartibda faolliyat ko'rsatishi, loyiha shakllantirish imkoniyatini beradi.

Talabalarning o'quv faoliyatida media vositalaridan foydalanishining ko'plab afzalliklari hamda salbiy jihatlari mavjud. Me'yordan ortiq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yoki onlayn resurslarga chalg'ish ta'limning muvaffaqiyatsiz bo'lishiga olib keluvchi omillardan biri hisoblanadi. Aksincha maqsadli mobil ilovalar yoki media texnologiyar talabalarning qiziqishlarini ortishiga hamda o'quv faoliyatini intensivlashtiradi. Mediamadaniyat o'z ichiga innovatsion media vositalardan oqilona va maqsadli foydalana olishni qamrab oladi.

Media vositalar sifatida turli mediata'lim platformalari, ijtimoiy media platformalari, mediaresurslar hamda virtual ta'lim texnologiyalari keltirib o'tish mumkin. Pedagogik amaliyotda mediata'lim platformalari keng qo'llanilib kelinmoqda. Tadqiqot ishi doirasida talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirishda mediata'lim platformalari hamda ijtimoiy media platformalarining nazariy uzviyligi tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik kuzatish hamda suhbat metodi yordamida talabalarning mediata'lim platformalari hamda ijtimoiy media platformalardan foydalanish mezonlari aniqlashtirildi:

- media ta'lim platformalaridan foydalanish holati (Moodle, Blackboard, onlayn tadqiqot imkoniyatlari, Google , JSTOR);
- ijtimoiy media platformalaridan foydalanish holati (Telegram, Facebook, Whatsapp, Twitter, Instagram);

- mediaresurslardan foydalanish holati (elektron kitoblar, elektron jurnallar);
- virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati (virtual onlayn kurslar, videokonferentsiyalar).

Izlanishlar davomida bo'lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirishning shaxsiy-ergonomik jihatlari aniqlashtirildi. Aniqlashtirish jarayoni pedagogik kuzatuv, manbalar tahlili hamda suhbat metodlari asosida amalga oshirildi:

- mediadan foydalanishda vaqt menejmenti tamoyillariga rioya qilinishi (chegaralangan va belgilangan vaqtda mediadan foydalanish va identifikatsiya qilib borish);
- mediadan foydalanishni nazorat qilishda maxsus mobil ilovalardan (masalan Timer) foydalanish;
- mediadan foydalanishda o'rganish muhiti (xonaning yorug'ligi tinchligi, joylashuvi)ga rioya qilinishi;
- talabalarda media vositasida o'rganishning “qat'iy yo'naltirilgan, maqsadli ta'lim” deb hisoblanish;
- medialar vositasida o'rganishda bir vaqtda bir qancha kognitiv faoliyatni bajarilishi (Multitasking).

Ma'lumki, bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirishning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot ishi doirasida media madaniyatni rivojlantirishning kasbiy-pedagogik tayyorlashga doir jihatlari o'quv-me'yoriy hujjatlar tahlili, komporavistik tahlil, pedagogik kuzatish hamda subat metodlari asosida quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi:

- bo'lajak muhandis-pedagog sifatida ta'lim oluvchilarning mediakompetentsiyasini rivojlantirish uchun yetarlik tayyorgarlik ko'rilganlik darajasi;
- medim vositalarni o'quv jarayonida “o'quv vositasi” sifatida qo'llay olishlik;
- zamonaviy mediamanbalarining didaktik imkoniyatlarini kasbiy faoliyatga mustaqil tadbiiq eta olish darajasi;
- ta'lim oluvchilarda mediamadaniyatni rivojlantirishning kasbiy-pedagogik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida tushunishliligi

holati.

Tadqiqot ishi doirasida bo'lajak muhandis-pedagoglarning media madaniyatini rivojlantirishdagi ilgo'r zamonaviy mediatexnologiyalar o'rganildi. Mazkur mediatexnologiyalarning oliy ta'lim muassasalaridagi holati pedagogik kuzatish va suhbat metodi orqali aniqlashtirildi. OTMda o'quv jarayoniga mediatexnologiyalar yetarli integratsiyalashganligi holati quyidagi mezonlar orqali aniqlashtirildi:

- mediatexnologiyalar talabalarning faol ta'lim olishi uchun texnik va tashkiliy jihatdan yetarli tadbiq etilganligi;

- OTMda talabalarning mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanishda differentsiyal ta'lim olishi uchun imkoniyat mavjudligi;

- OTMda mediamanbalar, texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirishga doir muntazam fikrlar almashinuvi amaliyotga tadbiq etilganligi;

- OTMda mediatexnologiyalar vositasida hamkorlikda ta'lim olish imkoniyatlari mavjudligi;

- OTMda muhandis-pedagoglarni mediakompetentsiyani rivojlanganligini "ekspert" darajada rivojlanishi uchun yetarlik pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi.

Bo'lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirishning kasbiy kompetentsiya hamda kasbiy identitelik bilan bog'liqlik jihatlari ko'p. Tadqiqot ishi doirasidagi pedagogik kuzatish hamda suhbat metodi orqali bu jihatlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- talabalar o'zlarining mediamadaniyat nuqtai nazaridan boshqalarga o'rnak qilib ko'rsata olishligi;

- medianing imkoniyatlari va uning salbiy jihatlari bo'yicha turli muloqot va muzokaralarda ishtirok etishi yoki bu xususidagi ilmiy maqolalar bilan tanishganlik holati;

- mediakompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan kurslar (onlayn)da ishtirok etishi;

- mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishi;

- mediamadaniyatni maqsadli rivojlantirish bo'yicha reflektiv qobiliyat shakllanganligi.

Pedagogik kuzatish hamda suhbat metodi vositasida talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirishda subyektiv jihatlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish o'rinli:

- medianing, mediamanbalarning mazmunini hamda manbalarini tahlil qila olishlilik;

- medialarni hamda ularning manbalarini tanqidiy baholay olishlilik;

- medialarni etnografik tahlil qila olishlilik (kelib chiqishi, xususiyatlari);

- medialarni tarixiy yondashuv asosida mazmuni va manbasini tahlil qilish;

- medialarni boshqa medialar bilan bog'liqligini tahlil qilish.

Umuman olganda, bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirishda talaba shaxsiga individual yondashuv, subyektiv jihatlarini tahlil qilish ham zarur. Bu esa oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan faoliyatlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Aynan oliy ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatadigan tyutorlar faoliyati mazmuniga bu jihatlarni e'tiborga olishi umumiy samaradorlikni ta'minlaydi.

2.2. Mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-ma'rifiy media loyihalarni shakllantirish – mediamadaniyatni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida

Talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-ma'rifiy media loyihalari egallangan bilimlardan amaliyotda foydalana bilish, jamiyatdagi turli sohalarga doir muammolarni tahlil qilish va doimiy kuzatishni taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ilmiy-ma'rifiy media loyihalarning maqsadi talabalarning global va respublika miqyosida amalga oshirilayotgan voqealik, bo'lajak kasbiy faoliyatiga doir yangiliklar, muammolar bo'yicha ilmiy tahlil qilish, reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarni

shakllantirish talabalar munosabatlarini avtoritar pedagogik muloqot uslubidan demokratik muloqot uslubiga almashtirish asosida tashkil etiladi. Bunda asosan talaba shaxsiga hurmat va ta'lim mazmunida ijtimoiy tajriba, fikrlar xilma-xilligi, tashabbuskorlik, fikr-mulohazalarini ishonchli tahlil qilish imkoniyati hisobga olinadi. Talabalar bu orqali media loyihalarni rivojlantiradi va shu orqali shaxsiy hamda kasbiy jihatdan rivojlanishga erishadi.

Xorijiy amaliyot tajribasi shundan dalolat beradiki, universitetlarda mediata'limni tashkil etishda loyihaviy faoliyatdan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Biz taklif etayotgan ilmiy-ma'rifiy media loyiha metodikasida ham mediaresurslardan tashkil topgan ta'limiy keys-loyihalaridan foydalaniladi. Ular kognitiv faollik, ijodkorlikni rivojlantirish va shu bilan birga talabalarning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning mustaqil tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan media loyiha usuli, yangi bilimlarni o'zlashtirish va olingan bilimlarni amalda qo'llashga qaratilgan. Mediamateriallari asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishiga imkon beradi, hamda kreativlik, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shadi.

Izlanishlar davomida ilmiy-ma'rifiy media media loyihalarni amalga oshirish bo'yicha quyidagicha tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqildi:

1. Bu kabi loyihalar oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar shaklida, guruh murabbiylik soatlarida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati doirasida qo'llanilishi mumkin. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar bo'lg'usi muhandis-pedagoglarni tayyorlashda ularning kasbiy tayyorgarligi, ta'lim-tarbiya jarayonida turli loyihalardan foydalanish, loyihalar ishlab chiqish ko'nikmasini rivojlantiradi. Talabaning bir g'oya asosida amaliyotga tadbqiq etish media loyiha shakllantirish bosqichlarini rejalashtirish, ularda mazkur faoliyatning barcha jihatlarini o'rganishga, amaliyotga tadbqiq etishga, shu asosda ularda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga aksiologik munosabat rivojlanishiga

erishiladi.

2. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar bir qator tamoyillarga asoslanadi. Talabalar media loyiha ishlab chiqishda mazkur tamoyillarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

1) bashoratlilik tamoyili. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar ma'lum natijani maqsad qilish orqali amalga oshirish bosqichlari oldindan rejalashtiriladi;

2) bosqichma-bosqichlilik tamoyili. Ilmiy-ma'rifiy media loyiha maqsadi, kutilayotgan natija, loyiha tabiatidan kelib chiqib amalga oshirish, loyiha natijalarini baholash bosqichiga o'tiladi. Media loyiha doirasida har bir faoliyat rejalashtiriladi, rasmiylashtiriladi va keyingisi oldingilar natijasiga asoslanadi;

3) me'yorlash tamoyili. Ilmiy-ma'rifiy media loyihasi bir bosh g'oyadan kelib chiqqan holda maqsad va kutilayotgan natijalar shakllantiriladi. Albatta, bunda barcha resurslar: media loyiha uchun belgilangan vaqt; media loyihaga jalb etilayotgan mehnat kuchi; media loyihada bevosita va bilvosita ishtirok etuvchilar soni va media loyiha doirasida faoliyat ko'rsatish imkoniyati; media loyiha byudjeti asosida loyiha faoliyati me'yorlashtiriladi;

4) teskari aloqadorlik tamoyili. Media loyiha doirasida har bir faoliyat amalga oshirilganda uning natijalari tahrir qilinadi va loyiha maqsadi, kutilayotgan natijalar bilan mutanosibligi tekshiriladi;

5) samaradorlik tamoyili. Media loyihaga doir g'oyaning amalga oshirish uchun rejalashtirilgan barcha bosqichdagi ishlari ta'sirchanligi va ko'zlangan maqsadga yo'nalganligi, media loyiha faoliyatining mahsuldorligi, uning amaliy ahamiyati nazarda tutiladi;

6) qadriyat va madaniyatlarni qo'llab-quvvatlash tamoyili. Media loyiha g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlar, madaniyatlar, jamiyatdagi ijtimoy-axloqiy me'yorlarga zid fikr, shuningdek loyiha bosqichlari va faoliyatini rejalashtirayotganda va amalga oshirishda mazkur jihatlarga e'tibor qaratish;

7) ilmiy bilim olish va yangi qadriyatlar bilan tanishish

tamoyili. Media loyiha kreativligi, ta'sirchanligi shaxslarning yangi bilimlar olishi va qadriyatlarni o'rganishga yo'naltiriladi. Qadriyatlar ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatida jamiyatdagi voqea-hodisalar rivojiga ta'siri katta bo'ladi;

8) o'z-o'zini rivojlantirish tamoyili. Media loyiha ishlab chiquvchisi yoki jamoaning turli tuman soha muammolarini o'rganishi va bu muammolarni hal qilishga bo'lgan yondashuvlar loyiha mualliflarini rivojlantiradi va boshqa loyihalarning rivojlanishiga asos bo'ladi;

9) integrativlik tamoyili. Media loyihalar boshqa sohalar bilan uzviy bog'liq. Loyihalar ishlab chiqish va uni rivojlantirishda bu bog'liqlik muammoning turli nuqtai nazarlardan turib tahlil qilish, loyiha doirasida hal qilish imkoniyati ko'rib chiqilishi lozim.

3. Bo'lajak muhandis-pedagoglarni ilmiy-ma'rifiy media loyihalarni shakllantirish, amalga oshirish tamoyillari va algoritmini aniqlashtirish quyidagicha:

- talabalarni media loyihalar ishlab chiqish madaniyatiga doir bilimlarini takomillashtirish;

- talabalarni media loyihalarni shakllantirish va amalga oshirishda turli ko'rinishlarda (tadbirlar, targ'ibot-tashviqot ishlari, ijtimoiy so'rovnomalar, ijtimoiy roliklar, media burchaklar va boshqalar) amaliyotga tadbiiq etish malakalarini tarkib toptirish.

4. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar uchun mavzular tanlanadi. Mavzu esa ilmiy ahamiyatga ega bir muammo hisoblanadi. Muammoni tanlashda uchta kategoriyaga e'tibor qaratish lozim bo'ladi: muammoning kelib chiqish sabablari, muammoning o'zi va muammoning oqibatlari. Muammoning kelib chiqish sabablari va oqibatlari o'rtasidagi bog'liqlikni "uzib tashlash", muammoning hal bo'lishiga olib keladi.

5. Ilmiy-ma'rifiy media loyiha uchun bosh muammoni identifikatsiya qilish, ta'riflash, media loyiha maqsadi va vazifalarini bayon qilish, ko'rsatilayotgan muammoni hal qilish bosqichlari, kutilayotgan natijalar, loyihaning innovativligi, loyiha muvaffaqiyatini tekshirish mezonlari loyihaning tarkibiy qismlari hisoblanadi. O'z navbatida media loyiha natijalarining qanday

rasmiylashtirishni belgilash media loyihada o'z ifodasini topadi. Bu esa loyihaaning amaliy, nazariy, ilmiy ahamiyatini oshiradi. Media loyihalarining har bir bosqichlari tegishli ravishda hisobot ko'rinishida rasmiylashtirib boriladi.

Talabalar media loyihalar orqali turli sohaga doir turli muammolarni izlaydi, ularni kelib chiqish sabablari, oqibatlarini tahlil qilishni va eng asosiysi muammoni yechish uchun izlanadilar. Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari bunday loyihalar orqali yo'nalishlar, g'oyalar, zaruriy axborot manbalari, muammoni echishda turli farazlar orqali loyihaaning samarali shakllanishi yuzasidan maslahatlar berib turadi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarining xususiyati shundaki, unda barcha fikrlar va takliflar nazarda tutilishi, barcha qabul qilingan qarorlar ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

Media loyihalarini shakllantirishda samarali natijaga mualliflar jamoalarini tuzish orqali erishiladi, bunga jamiyatning turli qatlamlardagi, davlat, nodavlat, jamiyat tashkilotlarining vakillari kiradi. Loyiha faoliyatiga qatnashayotgan kishilar belgilangan o'zgarishlarni amalga oshirishda zarur bo'ladigan vakolat darajasiga ega bo'lishlari, loyiha esa zahiralar nuqtai nazaridan ta'minlangan bo'lishi ham zarur. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarining unumdorligi ko'p jihatdan media loyiha ishtirokchilarining intizomi mavjudligiga bog'liq, bu esa faoliyatning belgilangan vaqt bilan chegaralanganligi, bajariladigan ishlarning mazmunan va texnologik muayyan bo'lishini talab qiladi. Boshqaruvning muvaffaqiyatli bo'lishi loyiha doirasida rejalashtirilgan ishlarning axborotli ta'minlanganligining to'liq bo'lishiga bog'liq, bu esa o'z navbatida boshlang'ich tashxisli, xulosaviy va boshqa ma'lumotlarni olishni talab qiladi.

Media loyihalar keng qo'llaniladigan iqtisodiy loyihalar singari natijalarni qiymatda va miqdorda o'lchash imkonsiz bo'lsa-da, loyihalash faoliyatining texnologikligi qayta o'zgartirish harakatlarning birgalikda olib borilishiga, pedagogik ta'sirning barcha jihatlarini hisobga olishga, pedagogik mas'uliyatni his qilish uchun katta ahamiyatga ega. Loyihalashtirish tabiatidan kelib

chiqib, pedagogik loyihalarda bir qiymatli qarorlar yoʻqligini eʼtirof qilish lozim, loyihaviy faoliyat esa mazmunli va texnologik koʻp koʻrinishlilikdir. Media loyihalar ishlab chiqish boʻlgʻusi muhandis-pedagoglardan kompleks bilim, malaka va koʻnikmalarni talab etadi. Media loyihalar barcha bosqich talabalari uchun moʻljallangan boʻlib, bunda barcha fanlardan olgan bilimlarini integratsiyalash, pedagogik amaliyotida kuzatgan tajribalarini qoʻllash hamda media manbalar, vositalardan foydalangan holda media loyiha ishlab chiqiladi.

Media loyihalarni shakllantirish va rivojlantirishga talabalar ixtiyoriy ravishda jalb etaladi va bu faollikning dastlabki ifodalaridan biri hisoblanadi. Ixtiyoriy ravishda loyiha jamoasi shakllanadi. Shuningdek, loyiha gʻoyasini amalga oshirishda nafaqat loyiha jamoasi, balki loyihada bilvosita qisman ishtirok etuvchilarning ham faolligi talab etiladi. Loyihaning bosh gʻoyasi bir muammoni aniqlash, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tahlil qilish, sabalar va oqibatlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni yoʻqotishdan iborat boʻladi.

6. Loyiha maqsadi SMART qoidasiga asosan shakllantiriladi. SMART bu maqsadlarni shakllantirish uchun talablar boʻlib, “Spezific” – aniqlik, “Measereble” – oʻlchash mumkin boʻlgan, “Attinuble” – mutanosiblik, “Relevant” – muhimlik va “Timed” – vaqt bilan chegaralangan maʼnolarini bildiradi. Maqsadlarni toʻgʻri shakllantirish loyiha faoliyatini samarali tashkil etishda, aniq yoʻnalishini belgilashda, mavjud imkoniyatlar va resurslardan foydalangan holda erishish mumkinligiga, oʻzida loyiha mazmunini toʻliq aks ettirishi va maʼlum vaqt oraligʻida amalga oshirilishi aks etishi lozim boʻladi.

Loyihalashning xususiyati shundaki, unda barcha fikrlar va takliflar nazarda tutilishi, barcha qabul qilingan qarorlar ilmiy asoslangan boʻlishi kerak. Agar pedagogik loyihaning muhokamasida malakali mutaxassislar, olimlar, jamoat tashkilotlari faol ishtirok etsalar, uning sifati yuqori boʻladi. Media loyihalarni shakllantirishda samarali natijaga mualliflar jamoalarini tuzish orqali erishiladi, bunga jamiyatning turli qatlamlardagi, davlat,

nodavlat, jamiyat tashkilotlarining vakillari kiradi. Loyiha faoliyatiga qatnashayotgan kishilar belgilangan o'zgarishlarni amalga oshirishda zarur bo'ladigan vakolat darajasiga ega bo'lishlari, loyiha esa zahiralar nuqtai nazaridan ta'minlangan bo'lishi ham zarur.

7. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarini shakllantirish bosqichlari:

1. Tayyorlov ishlari: loyiha g'oyasining tahlili; loyiha g'oyasining mazmun-mohiyatini aniqlash; loyihaning nazariy ta'minoti; loyihaning uslubiy ta'minoti; loyiha nomi, logotipi va lozungini, loyiha ishchi guruhini shakllantirish; loyihaning vaqt va resurs ta'minoti; loyihalashning huquqiy ta'minoti; loyihaning innovativligi tahlili; loyihada bevosita va bilvosita ishtirok etuvchilar, loyihaning maqsadli guruhlari, loyihaning to'g'ridan to'g'ri foydalanuvchilari, ta'sir qiluvchilarini aniqlash.

2. Loyihani sifatini nazorat qilish. Loyihaning qo'llanilishini hayoliy tajribadan o'tkazish. Loyihani ekspert tomonidan baholanishi, loyihani tahrir qilish, tuzatish, yakuniy foydalanish uchun tavsiya qilish.

Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarni shakllantirishda W.Volpert tomonidan ishlab chiqilgan "To'liq faoliyat modeli" dan foydalanamiz. Model to'liq faoliyatni quyidagi bosqichlarda amalga oshirishni belgilaydi va bu bosqichlar takrorlanuvchi xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. To'liq faoliyat modeli bosqichlari quyidagilardan iborat: media loyiha uchun ma'lumotlar yig'ish va ular ustida ishlash, rejalashtirish, amalga oshirish, baholash.

Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarda didaktik deduktsiyaning ahamiyati katta. Media loyihaning mazmuni ilmiy dalillar asoslangan hamda jamiyat hayoti uchun zaruriy ma'lumotlarni media loyhasining maqsadli guruhidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Misol tariqasida, foydalanib bo'lingan batareykalarni axlatga tashlashning oqibati haqidagi media loyihani keltirishimiz mumkin.



2-rasm. Foydalanib bo‘lingan batareyka.

Ma’lumki, batareykalar foydalanib bo‘lingandan so‘ng, xavfli chiqindi sifatida maxsus turdagi chiqindilar qutisiga tashlanishi lozim. Maktab o‘quvchilari uchun ijtimoiy rolik tayyorlash orqali batareykalardan to‘g‘ri foydalanish yuzasidan ilmiy ma’lumotlar ularning yosh va rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda didaktik hujatdan soddalashtiriladi. Jumladan, batareykani tuzulishi, qo‘llaniladigan kimyoviy moddalar, qo‘llanilishi hamda foydalanib bo‘lingandan keyin chiqindi sifatida holati bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar beriladi. Bir mavzuga doir turli maqsadli guruhlar hamda muammoning turli jihatlariga ko‘ra bir qator media loyihalar tayyorlash mumkin.

Muammo sifatida quyidagi holatlar media loyiha maqsadi bo‘lishi mumkin:

1. O‘zbekistonda foydalanib bo‘lingan batareykalarni chiqindi sifatida to‘plash tizimli tashkil etilganmi?

2. Jamiyatda foydalanib bo‘lingan batareykalarni to‘g‘ri chiqindiga ajratishi chiqindiga tashlashi sifatida mas‘uliyat rivojlanganmi?

3. Oliy ta‘lim muassasasi talabalarining batareykalardan foydalanish va ularning chiqindiga to‘g‘ri ajratishi holati bo‘yicha bilimlari, tajribalari va munosabatlarini tadqiq qilish bo‘yicha media loyiha.

Ilmiy-ma‘rifiy medialoyihani shakllantirish uchun quyidagi jadval tavsiya etiladi:

3-jadval

Media loyihaning maqsadli guruhi (“media iste‘molchi”)	Ilmiy-ma‘rifiy media loyihaning maqsadi	Pedagogik faoliyatga asoslanganligi
Keng jamoatchilik, o‘quvchilar, otalar, talabalar, yoshlar, jamoatchilik, ma‘lum kasb egalari, va h.k.	– medialar vositasida ilmiy-ma‘rifiy, targ‘ibot-tashviqot ishlari; – tadbirlar o‘tkazish; – ijtimoy loyihalar tashkil etish; – axborot-tanishtiruv ishlari; – reklama va targ‘ibot; – aktsiyalar; – flesh moblar tashkil etish; – sahnalashtirilgan teatrlar; – intervyu olish, flaerlar tarqatish; – media burchagi tashkil etish; – muammoni kun tartibiga olib chiqish, dolzarbligiga keng ommani e‘tiborini qaratish.	– pedagogik ta‘sir qilish bo‘yicha malakaga ega bo‘lish; – pedagogik mas‘uliyatni rivojlantirish; – ta‘lim oluvchilarning kognitiv mustaqilligini ta‘minlash.

Ilmiy-ma‘rifiy media loyiha odatda doimiy takrorlanuvchi faoliyatni o‘z ichiga olmaydi, ya‘ni biror tashkilot qiladigan doimiy faoliyatiga o‘xshab qolmasligi kerak. Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga doir o‘quv loyihalarida ham bu jihat muhim hisoblanadi. Loyiha qisqa vaqtda natijaga erishish uchun qulay bo‘lib, loyiha tuzish orqali talabalar ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga doir adabiyotlar, hisobotlar, jamoatchilik fikri, ilmiy tahlillar, shu faoliyat bilan

shug‘ullanuvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ilmiy-ma’rifiy media loyiha g‘oyasini shakllantirish chuqur va keng tahlil talab qiladi. Bunda guruh a’zolarining faolligi, yondashuvi, kreativligi, hamkorligi asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Aslida har qanday yangi g‘oya oldingisining qayta tuzilishidir. O‘quv loyihasining muhim jihati chegaralash bo‘lib, maqsadlarni shakllantirayotganda umumiylikdan xususiylikka intilish kerak bo‘ladi.

Loyihalashning nazariy ta’minlanishi, bu:

- axborotni izlash;
- boshqa joylarda shunga o‘xshash loyihalar va bu loyihalar bo‘yicha to‘plangan tajribalar haqida;
- loyihaning maqsadli guruhga ta’siri, pedagogik vaziyatlar yechimining nazariy va amaliy, tajribaviy tadqiqotlari.

Loyihaning uslubiy ta’minoti loyiha maqsadlariga erishishning vositalari va metodlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot ishi doirasida quyidagi media loyihalari shakllantirildi:

- “Bir kun internetsiz”;
- “Bir kun ijtimoiy tarmoqlarsiz”;
- “Gazeta taqdimoti”;
- “Mediamadaniyat va qadriyat”;
- “Internet va real hayot”;
- “Sanoat chiqindilari va atrof-muhit”;
- “Sog‘lom va nosog‘lom taomlanish”;
- “Chiqindilar va ularning “taqdiri””.

Ilmiy-ma’rifiy media loyihalarining markazida muammoli vaziyatlar turadi va ularni yechishda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- muammoni turli nuqtai nazardan o‘rganish va tahlil qilish;
- mavjud dalillarni solishtirish va umumlashtirish;
- qo‘shimcha dalillarni aniqlash va ularni o‘zaro qiyoslash;
- muammo bilan bog‘liq xulosalarni chiqarish;
- mustaqil ravishda muammoni qo‘yish;
- muamoning sabab, oqibat va echimlarini topishni o‘rganish;
- bilim va qobiliyatlarni baholash;

– fikrlar va natijalarni tahlil qilishni o‘rganish.

Ilmiy-ma’rifiy media loyihalari orqali talabalar quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi:

1. Ilmiy tafakkur. Muammoning kelib chiqish sababi va oqibatini ilmiy tahlil qiladi.

2. Media-didaktik tahlil qilish ko‘nikmasi. Media loyihaning pedagogik nustai nazardan tahlil qilish, ta’lim oluvchilar nuqtai nazaridan tahlil qilish hamda zarurat bo‘lganda didaktik deduktsiya usulini qo‘llash.

3. Muammoni identifikatsiya qilish ko‘nikmasi. Mediamadaniyatning eng zaruriy shartlaridan biri jamiyatdagi, ilmfandagi muammolarni identifikatsiya qila olishliligi hisoblanadi.

4. Tahliliy ko‘nikmalar (ma’lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma’lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish, buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

5. Amaliy ko‘nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo‘llay bilish).

6. Ijodiy ko‘nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

7. Muloqot ko‘nikmalari (unga ko‘ra talaba bahs-munozara olib borish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko‘nikmalarini o‘zlashtira bilishi zarur).

8. Ijtimoiy ko‘nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o‘zgalarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildirga olish va o‘zini boshqara olishi lozim).

9. O‘z-o‘zini tahlil qilish (bahs-munozara jarayonida o‘zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo‘lishi muhim).

10. Kreativlik qobiliyati. Muammoga kreativ yondashib,

uning mazmuni, mohiyatini foydalanuvchilarga yetkazish maqsad qilinadi.

Tadqiqot ishi doirasida tajriba-sinov obyektlarida ilmiy-ma'rifiy media loyihalar tayyorlash tadbiriq etildi. Bunday loyihalar talabalarining kompleks faoliyat orqali (g'oyadan tayyor mediamahsulotgacha bo'lgan jarayon) mediamadaniyatini rivojlantiradi hamda bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyat doirasida medianing imkoniyatlarini amaliy qo'llashga doir tajribalarni ortishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishi doirasida ilmiy-ma'rifiy media loyihalarning samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi va baholandi.

4-jadval

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda talabalar uchun tadqiqot ishi doirasida qo'llanilgan ilmiy-ma'rifiy medialoyihalarning samaradorligini baholash natijalari (% hisobida)

№	BAHOLASH MEZONLARI	OTM professor-o'qituvchilari			Talabalar		
		Mos keladi	Qisman mos keladi	Mos kelmaydi	Mos keladi	Qisman mos keladi	Mos kelmaydi
1	Mediamadaniyat, mediasavodxonlik mazmunini anglab yetish, mustaqil mushohada yurita olish, ijodiy fikrlash, nazariy bilimlarni qo'llay olish, mohiyatini tushunishga imkoniyat beradi.	95	5	0	77	10	13
2	Ilmiy-ma'rifiy medialoyihalar mediamadaniyatga doir asosiy tushunchalar mazmunini tarkib toptirish, o'rganilgan bilimlar hamda ortirilgan tajribalarni bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyatga tadbiriq etish uchun yo'naltiradi.	90	10	0	84	11	5
3	Ilmiy-ma'rifiy medialoyihalar orqali tadqiqotchilik, taqqoslash, ilmiy yondoshish, tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.	89	8	3	79	10	11
4	Ilmiy-ma'rifiy medialoyihalar bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyat mazmunini izchil va tizimli ravishda egallashga, mediamnablaradan unumli foydalanish, mediata'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanishga shart-sharoit yaratib beradi.	95	5	0	83	9	8

Bo'lajak muhandis-pedagoglarning ilmiy-ma'rifiy media loyihalar tayyorlash ularning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik kontsepsiya hisoblanadi. Media loyihalar didaktik resurs sifatida o'quv jarayoni, darsdan tashqari jarayonlar, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda keng qo'llanilishi mumkin. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida medialardan shu kabi loyihalar orqali samarali foydalanish ta'lim oluvchilarni ham mediakompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

2.3. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak muhandis-pedagoglarni mediamadaniyatini rivojlantirish

Ta'limni axborotlashtirish – jamiyatni axborotlashtirish jarayonlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning eng muhim shartlardan biridir. Zero, ta'lim sohasida nafaqat jamiyatning yangi axborot muhitini shakllantiradigan, balki o'zlari ham ana shu yangi sharoitda yashash va ishlaydigan insonlar tayyorlanadi hamda ta'lim oladi. Jamiyatni axborotlashtirish – bu jamiyatning har bir a'zosiga qonuniy mahfiy bo'lganlardan tashqari har qanday axborot manbalaridan erkin foydalanishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy omillar majmuidir.⁸⁰

Ta'limni axborotlashtirishning **birinchi bosqichi** (elektronlashtirish) talabalarni tayyorlash jarayoniga dastlab texnik, so'ngra gumanitar fanlar va elektron vositalar va kompyuterlarning keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Algoritmash va dasturlash asoslarini, mantiq algebrasi elementlarini, matematik modellashtirishni kompyuterda o'qitishni taklif qildi. O'sha davrdagi kompyuterlarning nisbatan past mahsuldorligi, ishda qulay, oddiy foydalanuvchi uchun intuitiv va qulay dasturiy interfeysga ega bo'lmaganligi gumanitar ta'lim sohasida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishga yordam bermadi.

Ta'limni axborotlashtirishning **ikkinchi bosqichi** yanada kuchli kompyuterlar, do'stona interfeysga ega bo'lgan dasturiy

⁸⁰ Uskov, Vladimir L., Robert J. Howlett, and Lakhmi C. Jain, eds. Smart education and smart e-learning. Vol. 41. Berlin-Heidelberg, Germany: Springer, 2015.

ta'minotning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, birinchi navbatda, inson va kompyuter o'zaro muloqotidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Kompyuter ta'lim texnologiyalari modellashtirish asosida turli jarayon va hodisalarni o'rganish imkonini berdi. Kompyuter texnologiyalari har xil darajadagi avtomatlashtirilgan tizimlarning bir qismi, shuningdek kuchli o'qitish vositasi sifatida harakat qila boshladi. Ta'lim sohasida ta'limning avtomatlashtirilgan tizimlari, bilimlarni nazorat qilish va o'quv jarayonini boshqarish tobora ko'proq qo'llanila boshlandi.

Ta'limni axborotlashtirishning **uchinchi**, zamonaviy bosqichi kuchli shaxsiy kompyuterlar, yuqori tezlikdagi yuqori sig'imli saqlash qurilmalari, yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari, multimedia texnologiyalari va virtual haqiqatdan foydalanish, shuningdek, davom etayotgan jarayonni falsafiy tushunish bilan tavsiflanadi.

Ta'limni axborotlashtirish – ta'lim tizimini ta'lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish, ulardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti bilan ta'minlash jarayonidir. O'z navbatida, ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish tabiiy holdir:

1) kompyuter texnologiyalaridan o'qitish vositasi sifatida foydalanish, o'qitish jarayonini takomillashtirish, uning sifati va samaradorligini oshirish;

2) kompyuter texnikasidan o'qitish vositasi sifatida foydalanish, o'zini va haqiqatni bilish;

3) kompyuter va boshqa zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarini o'rganish obyektlari sifatida ko'rib chiqish;

4) talabaning ijodiy rivojlanishi vositasi sifatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish;

5) nazorat qilish, tuzatish, test va psixodagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish vositasi sifatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;

6) pedagogik tajriba, uslubiy va o'quv adabiyotlarini uzatish hamda egallash maqsadida axborot texnologiyalaridan

foydalanishga asoslangan aloqalarni tashkil etish;

7) intellektual dam olishni tashkil etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;

8) zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidan foydalanish asosida ta'lim muassasasi va o'quv jarayonini boshqarishni faollashtirish va takomillashtirish.

Ta'limni axborotlashtirishning eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

- o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quv faoliyatining ijodiy va intellektual tarkibiy qismlarini oshirish;

- har xil turdagi ta'lim faoliyati (o'quv, tadqiqot va boshqalar) integratsiyasi;

- o'qitishning axborot texnologiyalarini talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish;

- tinglovchining kognitiv faoliyatini faollashtirishga hissa qo'shadigan va kasbiy faoliyatda samarali qo'llash uchun informatika vositalari va usullarini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradigan o'qitishning yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish;

- ta'limda uzluksizlik va izchillikni ta'minlash;

- masofaviy ta'lim uchun axborot texnologiyalarini ishlab chiqish;

- o'quv jarayonini dasturiy va uslubiy ta'minlashni takomillashtirish;

- turli sohalar bo'yicha mutaxassislarni maxsus kasbiy tayyorlash jarayoniga axborot texnologiyalarini o'qitishni joriy etish.

Ta'limni axborotlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri – mutaxassisning axborot madaniyatini rivojlantirishdan iborat bo'lib, uning shakllanish darajasi birinchi navbatda, axborot jarayonlari, modellar va texnologiyalar haqidagi bilimlari bilan belgilanadi; ikkinchidan, turli faoliyatda axborotni qayta ishlash va tahlil qilish

vositalari va usullaridan foydalanish ko'nikma va malakalari; uchinchi, kasbiy faoliyatda zamonaviy AT dan foydalanish qobiliyati; to'rtinchi, ochiq axborot tizimi sifatida o'rab turgan dunyoning dunyoqarashi.

Ta'limni axborotlashtirish vazifalaridan yana biri – yagona axborot ta'lim makonini barpo etishdir. Ta'limni axborotlashtirish jarayoni quyidagi tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi:

1) ta'lim muassasalari va ta'lim boshqaruvi organlarini axborot texnologiyalarining texnik va dasturiy ta'minoti bilan jihozlash;

2) yuqori tezlikdagi kanallar orqali mintaqaviy, milliy va xalqaro kompyuter ta'lim tarmoqlariga, global Internet tarmog'iga ulanish;

3) internet tarmog'ida ta'lim axborot resurslarini yaratish va joylashtirish, hududiy va davlat darajasidagi turli ma'lumotlar bazalarini: ta'lim portallari, ta'lim muassasalari va davlat organlarining rasmiy saytlari, mavzuli resurslar, uslubiy saytlar, elektron kutubxonalar, axborot-qidiruv va tahliliy tizimlarni integratsiya qilish va boshqalar;

4) ta'lim dasturlarini, shu jumladan raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish, ekspertizadan, sinovdan o'tkazish va joriy etish;

5) ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari: xodimlar, o'qituvchilar, talabalar axborot madaniyatini rivojlantirish;

6) ta'lim muassasalari va boshqaruv organlarida axborot texnologiyalari vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularga xizmat ko'rsatish tizimini yaratish;

7) o'qituvchini axborot texnologiyalari bo'yicha uzluksiz tayyorlash tizimini yaratish (kurslar, ekspress kurslar, mini-seminarlar, doimiy seminarlar, konferentsiyalar, tanlovlar, pedagogik muammolarni hal qilish, individual maslahatlar tizimi, muammoli va ijodiy guruhlar ishi); o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy muloqot va boshqalar). Ta'limni axborotlashtirish konsepsiyasida bu jarayonning bir necha bosqichlari tavsiflanadi.

1-bosqich quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– yangi axborot texnologiyalarini, birinchi navbatda, kompyuterlarni ommaviy joriy qilishni boshlaydi;

- kompyuter texnikasini pedagogik rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va undan o'quv jarayonini faollashtirishda foydalanish yo'llari izlanmoqda;

- jamiyat axborotlashtirish jarayonlarining mohiyati va zarurligini anglash yo'lidan boradi;

- axborot texnologiyalari sohasidagi boshlang'ich tayyorgarlik uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi.

2-bosqich quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- an'anaviy o'quv fanlariga vositalarni faol rivojlantirish va joriy etish;

- o'qituvchilar tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda ishlashning yangi usullari va tashkiliy shakllarini o'zlashtirish;

- o'qituvchilar tomonidan o'quv-uslubiy yordamning faol rivojlanishini boshlanishi;

- ta'lim va tarbiya ishlarining mazmuni, an'anaviy shakl va usullarini qayta ko'rib chiqish muammosining bayoni.

3-bosqich quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- kadrlar tayyorlashda zamonaviy AT vositalaridan keng foydalanish;

- uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari mazmunini uni axborotlashtirish asosida qayta qurish;

- o'qitishning uslubiy asoslarini o'zgartirish va har bir o'qituvchi tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalarining tegishli vositalari bilan ta'minlangan keng ko'lamli o'qitish usullari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqish.

Kompyuter texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish va axborotlashtirishning keyingi bosqichlariga o'tish kompyuter dasturlarini yaratish uchun alohida fanlarning mazmunini tanlash bilan bog'liq. Dasturiy ta'minot joriy o'quv rejasini aks ettirishi. Shunday qilib, bu holatda yetakchi ilmiy-metodik muammolardan biri ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy axborot texnologiyalarini loyihalash metodikasini yaratishdir.

Ko‘rinib turganidek, ta’limni axborotlashtirishning har bir davri rivojlanishning ikkita parallel tarmog‘iga ega: texnologik asos va ta’lim tizimining o‘zida innovatsion jarayonlar. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ulkan ta’sirini hisobga olgan holda, ko‘plab pedagoglar ularni o‘zlarining uslubiy tizimiga kiritishga ko‘proq tayyor. Biroq, ta’limni axborotlashtirish jarayoni bir zumda sodir bo‘lishi mumkin emas, har qanday islohotga ko‘ra, u bosqichma-bosqich va uzluksizdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarining funktsional xususiyatlari o‘quv jarayonini ta’lim sifatini oshirishga yordam beradigan ko‘plab imkoniyatlarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Ta’limni axborotlashtirish jarayonlarini o‘rganuvchi xorijiy olimlar axborot texnologiyalari imkoniyatlariga ko‘plab baho berishadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi asosiy pedagogik maqsadlarini belgilaydi:⁸¹

Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quv jarayonining barcha bosqichlarini faollashtirish:

- o‘quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish;
- kognitiv faollik faolligini oshirish;
- fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish;
- kerakli ma’lumotlarni qidirish hajmini oshirish va optimallashtirish.

2. Talaba shaxsini rivojlantirish, shaxsni axborot jamiyatida qulay hayotga tayyorlash:

- fikrlashning har xil turlarini rivojlantirish;
- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- qiyin vaziyatda eng yaxshi qaror qabul qilish yoki yechim taklif qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- kompyuter grafikasi, multimedia texnologiyasidan foydalanish orqali estetik tarbiya;
- axborot madaniyatini, axborotni qayta ishlashni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish;

⁸¹ Robert, I.V. “Theory and methodology of informatization of education (psychological, pedagogical and technological aspects)”. IIO RAO. M.:2007 18 (2014).

- vazifa yoki vaziyatni taqlid qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- eksperimental tadqiqot faoliyatini amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

3. Jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga qaratilgan ish:

- axborot savodxonini shaxsini tayyorlash;
- foydalanuvchini kompyuter vositalari bilan ta’minlash;
- informatika sohasida kasbga yo’naltirish ishlarini amalga oshirish.

V.A.Krasilnikova⁸² yuqoridagi maqsadlarni pedagogik jarayon uchun yana bir muhim – pedagogik faoliyatning axborot-metodik ta’minotini takomillashtirish bilan to’ldirdi:

- o‘qituvchilar va talabalarni axborot-metodik ta’minlashni sezilarli darajada kengaytirish;

- kompyuter kommunikatsiyalariga asoslangan muloqot va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish;

- yoshi, yashash geografiyasi va vaqtdan qat’i nazar, uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlarini ta’minlash;

- turli darajadagi (global, korporativ, mahalliy) kompyuter tarmoqlaridan faol foydalanish asosida yagona axborot-ta’lim muhitini yaratish.

E.I.Mashbits an’anaviy sinflarga nisbatan o‘qitishda kompyuterdan foydalanishning muhim afzalliklari to‘plami sifatida quyidagilarni nazarda tutadi.⁸³

1. Axborot texnologiyalari o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Rang, grafik, ovoz, videotexnologiyaning barcha zamonaviy vositalaridan foydalanish haqiqiy faoliyat muhitini qayta yaratishga imkon beradi.

2. Kompyuter talabalarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Motivatsiya muammoni to‘g‘ri

⁸² Krasilnikova, V.A. “The use of information and communication technologies in education”. Orenburg: OSU 26 (2012): 291.

⁸³ Mashbits E.I. Psikhologo-pedagogicheskieproblemycomputerizatsiibucheniya [Psychological and pedagogical problems of computerization of education], Moscow: Pedagogika Publ., 1988. 192-p.

hal qilish uchun yetarli rag'batlantirishdan foydalanish orqali ortadi.

3. AKT talabalarni o'quv jarayoniga jalb etib, ularning qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berishga, aqliy faollikni oshirishga hissa qo'shadi.

4. Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish o'quv vazifalarini qo'yish va ularni hal qilish jarayonini boshqarish imkoniyatlarini oshiradi. Kompyuterlar turli obyektlar, vaziyatlar, hodisalarning modellarini qurish va tahlil qilish imkonini beradi.

5. AKT o'quv jarayonini boshqarishda moslashuvchanlikni ta'minlagan holda talabalar faoliyatini nazorat qilishni sifat jihatidan o'zgartirish imkonini beradi.

6. Kompyuter o'quvchilarda reflekssiyani shakllantirishga yordam beradi. O'quv dasturi talabalarga o'z harakatlarining natijasini tasavvur qilish, xatoga yo'l qo'yilgan muammoni hal qilish bosqichini aniqlash va uni tuzatish imkonini beradi.

Kompyuterning sanab o'tilgan imkoniyatlari talabaning qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirishga, ko'nikma va o'rganish istagini shakllantirishga, bilimlarni o'zlashtirish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Shunday qilib, axborot texnologiyalarining bir necha jihatlari mavjud:

I. Motivatsion jihat. axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning qiziqishini oshirishga va ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi:

- talabalarning individual ta'lim imkoniyatlari va ehtiyojlarini maksimal darajada hisobga olish;
- o'quv mashg'ulotlarining mazmuni, shakllari, tezligi va darajalarining keng tanlovi;
- talabalarning ijodiy salohiyatini ochib berish;
- talabalar tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish.

II. Tarkib jihati. Axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan quyidagicha foydalanish mumkin:

- o'quv fanining ayrim mavzulari va bo'limlari bo'yicha interfaol jihatlar, boshqa raqamli o'quv resurslarini yaratishda;
- individual test mini-darslarini yaratishda;

– interfaol uy vazifalari va talabalarning mustaqil ishlashi uchun simulyatorlar yaratishda.

III. O‘quv-uslubiy jihat. Axborot texnologiyalari o‘quv jarayonini o‘quv-uslubiy ta‘minot sifatida qo‘llanilishi mumkin. O‘qituvchi mashg‘ulotning barcha bosqichlarida turli xil ta‘lim vositalaridan foydalanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi darsda va darsdan tashqari tadbirlarni loyihalashda turli xil raqamli ta‘lim resurslaridan foydalanishi mumkin.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Kompyuter va axborot texnologiyalari o‘rganish obyekti sifatida (axborot texnologiyalari kursi).

2. Axborot texnologiyalari turli fanlarni o‘qitish vositasi sifatida fan darslarini va boshqa faoliyat turlarini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida foydalanish.

3. Kompyuter va IT taraqqiyot hamda ta‘lim vositasi sifatida.

4. Axborot texnologiyalari ta‘limning turli funktsional tizimlarini diagnostika qilish vositasi sifatida.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta‘lim sohasiga kirib kelishi o‘qituvchilarga ta‘lim mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatidan o‘zgartirish imkonini beradi. Ta‘limdagi ushbu texnologiyalarning maqsadi axborot jamiyatida talabalarning intellektual imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, individuallashtirish, intensivlashtirish va ta‘lim sifatini oshirishdan iborat.

Ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili hamda pedagogik kuzatishlar, qiyosiy tahlillar natijasida bo‘lajak muhandis-pedagoglarning media madaniyatini rivojlantirish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi:

– **madaniy muvofiqlik** – talabaning ta‘lim va tarbiyasida jamiyatdagi mavjud madaniyat hamda uundagi sharoitlarni hamda milliy mentalitet xususiyatlarini hisobga olish;

– **semiotiklik** – belgili-ramziy tizimlar fikrlash jarayonini samaraliroq qiladi, uni idrok etish predmetining statistik va dinamik

me'yorlariga rioya qilishni taqozo etadi;

- **axborot iste'moli erkinligi** – talabalarga axborotni iste'mol qilish erkinligini ta'minlashga imkon beradi, medianing tilini o'rganishga e'tibor beradi;

- **subyektivlik** – talabaning shaxsiy tajribasiga, uning faol harakatlariga, o'rganishdagi tashabbusi va mustaqilligiga tayanishi;

- **faoliyatlilik** – talabani media-ta'lim faoliyatiga jalb qilish, pedagogik o'zaro hamkorlikni takomillashtirish uchun haqiqiy shart-sharoit yaratish;

- **ijodiylik** – media mahsulot yaratish jarayonida uning ijodiy faoliyatini rivojlantirish;

- **insonparvarlashtirish** – talabaning shaxsiga e'tibor, unga hurmat va xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, uning ijodiy individualligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- **integratsiya** – ko'plab integrativ jarayonlarni kuzatish, “qobig‘dan chiqib fikrlash”, mediamadaniyatni rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash;

- **ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili** – talabaning individual xususiyatlarini belgilash hamda rivojlantirish, shuningdek uning qobiliyatini rivojlantirishga, o'z-o'zini takomillashtirishga imkon beradi.

Ma'lumki, global miqyosida medianing roli shiddatli ravishda yildan-yilga ortib bormoqda. Media kirib bormagan soha, iqtisodiyot tarmog‘i qolmadi. Kundalik hayotni ham mediasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Media haqiqiy ma'noda insonlar orasidagi “vositachi”ga aylanib ulgurdi. Shuningdek, media barcha kasbiy faoliyat turlariga to'laqonli integratsiya bo'lib bormoqda. Modelda ham medianing aynan shu jihatlarini hisobga olgan holda bo'lajak muhandis-pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirishda ikki jihatlarini inobatga olindi: medianing kasbiy rivojlanishdagi hamda shaxsiy rivojlanishdagi o'zni.

Media kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi uzviylikka, bir-birini to'ldiruvchi umumiy mazmunga ega. Bu uzviylikni oliy ta'lim

muassasasida tashkil etiladigan o'quv jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda uzviyligini ta'minlash orqali samarali natijaga erishiladi.

Bo'lajak muhandis-pedagoglarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash media, mediatexnologiyalar, mediata'lim bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bu jihatlar davlat ta'lim standartlari mazmunida ham o'z ifodasi topgan. Bo'lajak muhandis-pedagoglar kasbiy-pedagogik faoliyati doirasida media, mediamanbalar, media vositalardan ta'lim natijalariga erishish uchun didaktik vosita sifatida qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Har bir media vositasining didaktik imkoniyatlari hamda ulardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini bilishi hamda faoliyati doirasida maqsadl foydalana olishi lozim bo'ladi.

Mediata'limning imkoniyatlari va uni pedagogik amaliyotga tadbiq etish zarurati ortib bormoqda. Fanning mazmuni, mashg'ulot turi, shaklidan kelib chiqqan holda media ta'limning funktsional imkoniyatlaridan foydalana olish bo'lajak muhandis-pedagoglarning kasbiy kompetentligining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo'lajak muhandis-pedagoglar kasbiy-pedagogik faoliyati doirasida ta'lim oluvchilarning mediamadaniyatini rivojlantirishda uning mazmuni, mohiyati hamda amaliy texnologiyalarini bilishi kerak.

Medianing shaxsiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati bevosita kasbiy rivojlanish uchun asos vazifasini bajaradi hamda bir-biri bilan mazmunan uzviy aloqadorlikka ega. Globallashuv jarayonlarini har bir jamiyat a'zosining shaxsiy rivojlanishiga axborot nuqtai nazaridan ta'siri katta va kuchli bo'lib bormoqda. Talabalarning axborot manbalarini baholash, ulardan foydalanish, axborotni tarqatishda xolislik, aniqlik, mas'uliyatlilik, xalollik kabi tamoyillarga asoslanganligini tahlil qila olishi – ulardagi media bilimdonlik rivojlanganligini belgilab beradi. **Mediadan, media manbalardan, media vositalardan o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy mas'uliyatni his etgan holda foydalanish talabalardan bilim, ijtimoiy tajriba, tahliliy fikarlashni taqozo etadi.** Ta'lim-tarbiya, dam olish, hordiq chiqarish, ijtimoiy muloqotda mediadan foydalanishda **ijtimoiy me'yorlarni** bilishi, amal qilishi shaxsda mediamadaniyatning rivojlanganligi

ko'rsatkichlaridan biridir. Medianing shaxsiy rivojlanishidagi o'zni sifatida o'z shaxsiy qobiliyati va istedodini rivojlantirishdagi vosita ekanligini keltirish mumkin.

Modelda belgilab olingan maqsad mediamadaniyatni ilmiy-pedagogik tadqiqi asosida shakllantirilgan tarkibiy qismlarini belgilab berdi. Mediamadaniyat quyidagi muhim tarkibiy qismlarga ajratiladi: mediasavodxonlik, mediakompetentlik, mediaetika va media muhit.

Ilmiy-pedagogik tahlillar natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirish mexanizmi yo'lga qo'yilishi uning samaradorligi, ta'sirchanligi va natijadorligini ta'minlaydi. Albatta, bunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mediamadaniyatini rivojlantirishning texnik-tashkiliy jihatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tuzulmaviy jihatdan oliy ta'lim muassasalarining quyidagi bo'limlari bevosita va bilvosita mediamadaniyatni rivojlantirishga doir funktsional vazifalari mavjud:

- ma'naviyat va ma'rifat bo'limi;
- axborot-resurs markazi;
- mediamarkaz;
- matbuot xizmati;
- talabalar uyushmalari.

Shuningdek, har bir oliy ta'lim muassasalarida media-didaktik materiallar tayyorlash uchun yetarli moddiy-texnik baza shakllantiriladi. Ma'lumotlar xavfsizligi, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun ham vazifalar ma'lum bo'limlarga taqsimlanadi. Oliy ta'lim muassasalarida mediatexnologiyalarning o'quv jarayoniga yetarli darajada integratsiyalashganligi, mediatexnologiyalar talabalarining faol ta'lim olishiga texnik va tashkiliy jihatdan yetarlik tadbiriq etilganligi, mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanishda differentsial ta'lim olish imkoniyati, mediamanbalar va texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirishga doir muntazam fikr almashinuvining yo'lga qo'yilganligi, mediatexnologiyalar vositasida hamkorlikda ta'lim olish hamda ta'limning yakunigicha "ekspert" darajasiga erishish

imkoniyatlari OTMning texnik-tashkiliy jihatlarini indikatorlari sifatida tavsif etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda yuksak insoniy fazilatlarni rivojlantirish ham asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Talabalarda mediamadaniyatni rivojlanganligi nuqtai nazaridan ham ular jamiyatda boshqalarga o'rnak bo'la oladigan darajada bo'lishi uchun OTM da tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat mazmuniga singdirilishi lozim. Jumladan, hozirda medianing salbiy jihatlarini bilishi, ulardan himoyalashning amaliy chora-tadbirlari xususida ijtimoiy tajribaga ega bo'lishi lozim.

Bo'lajak muhandis-pedagog sifatida media, mediatexnologiya, mediata'lim xususidagi ilmiy maqolalarni tahlil qila olishi va pedagogik faoliyatiga tadbiriq etish darajasida bilim va malakaga ega bo'lish kerak. Shuningdek, talabalarining mediakompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli kurslar, jumladan onlayn kurslar mavjud. Bu kurslar mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan. OTMda ham bunday kurslarni tashkillashtirish ta'sirchan ahamiyatga ega.

OTMda mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarning tashkil etilishi ham talabalarining media bilan bog'liq ijtimoiy, tibbiy, axloqiy masalalarga e'tiborini qaratishda samarali vosita hisoblanadi. Tyutorlar tomonidan talabalarining media bilan bogliq bilim, ko'nikma va malakalarini refleksiv baholashiga qaratilgan mashg'ulotlar, tadbirlar, darslar ham ularda mediamadaniyatning muhim tarkibiy qismi, "feedback madaniyati"ni o'zlashtirishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida shuningdek quyidagilar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar. Bu loyihalar talabalarining ilmiy hamda media savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar yakka tartibda yoki guruh shaklida biror ilmiy mavzuda maqsadli, guruhga mos ravishda media vositalar yordamida mediamahsulot shakllantiradilar. Bu mahsulot videomaterial, televideniya biror ko'rsatuv yoki gazetada maqola bo'lishi

mumkin. Mavzu o'z mutaxassisligidan kelib chiqqan holda, shuningdek aynan shu mavzuning ijtimoiy ahamiyati yoritilishi keng jamoatchilikni e'tiborini tortishi mumkin bo'ladi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalarining tayyorgarlik bosqichi media loyiha g'oyasini shakllantirish, loyiha samaradorligini oldindan baholash maxsus bilim va ko'nikma talab etadi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar ma'naviy-ma'rifiy faoliyat doirasida amalga oshiriladi.

2. Media-Workshop. Bu talabalarning media madaniyati, media savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan workshop bo'lib, bu talabalarning talablaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir mavzuda muntazam ravishda tashkil etib boriladi. Media-workshopda talabalarning talablarini o'rganish muhim hisoblanadi. Bunday workshoplar axborot-resurs markazi tomonidan tashkil etiladi.

3. Media haftalik. Bunday haftaliklar oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun hafta davomida foyelarda, ma'naviyat xonalari hamda axborot-resurs markazida tashkil etiladi. Bundan maqsad zamonaviy media manbalar, mediatexnologiyalarni tanishtirish, talabalarni hafta davomida media savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirishdan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida media haftaliklarda axborot texnologiyalari, virtual texnologiyalar bilan birgalikda mediatexnologiyalar imkoniyatlarini namoyish etish va bu orqali talabalarning qiziqishlarini oshirishni maqsad qiladi. Bu haftalik davomida kichik filmlar va videoroliklar orqali talabalarga nazariy materiallarni ilustatsiyalash, muammolarni yechish va ilmiy tadqiqot hamda loyihalar haqida xabar berish, talabalarni sifatli media mahsulotlari ishlab chiqish, maqolalar yozish, fotosuratlar va videolarni tayyorlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ko'plab ijtimoiy media platformalardan maqsadli foydalanish, qo'llanma va elektron kutubxonalar haqida ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

4. Media burchak. Oliy ta'lim muassasasining talabalar gavjum joylarida media burchaklarni tashkil etish talabalarning muntazam ravishda media sohasidagi yangiliklardan xabardor

bo'lishiga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasasida media burchakning maqsadi – talabalarda shaxsiy rivojlanish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlashi uchun media vositasida qiziqishlarni rivojlantirishdan iborat. Bu burchak talabalarning media asoslarini o'rganish, media tajribasini oshirish, ta'lim jarayonlarini media-didaktik imkoniyatini ko'rsatish, tahlil qilish va o'z fikrini boshqalarga taqdim qilish imkonini beradi.

Media burchagining orqali talabalar uchun afzalliklari quyidagilardan iborat:

- medianing asosiy qonuniyatlari va texnikalarini o'rganish;
- maqolalar va yangiliklarni yozish, ishlov berish hamda taqdim etishni o'rganish;
- jamiyat, iqtisodiyot, texnika, texnologiya sohasidagi eng so'nggi yangiliklar bilan tanishish.

Media burchaklar talabalarga turli tadbir va konferensiyalar, forumlar, simpoziumlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etadi.

5. Mediatanlovlar. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida bo'lajak kasbiy faoliyatiga qo'shimcha ravishda mediabloglar, mediajurnalistika, mediadidaktika, mediaxavfsizlik, mediaetikaga doir tanlovlar o'tkazish orqali ularda media sohasidagi yangi bilimlarni oshirish uchun imkoniyat hamda mustaqil ta'lim sharoitida o'z qiziqishlarini rivojlantirayotganini qo'llab-quvvatlash uchun media tanlovlar katta ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida media tanlovlari o'tkazishning maqsadlari quyidagilar:

- talabalarning ijtimoiy media tajribasini oshirish; talabalarning kreativ va taqdimot qobiliyatini rivojlantirish;
- talabalarning mediamahsulotarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Mediatanlovlarning maqsadi – obyektiv va keng qamrovli axborotni tarqatish va jamoat bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladi. Shuningdek, talabalarning qiziqishlarini aniqlashtirish uchun samarali imkoniyat yaratib beradi. Bunday tanlovlarda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarga oid mavzularni ajratish, ijtimoiy muhitda g'oyani o'rgatish va

qo'shimcha mavzulardan suhbatlashish imkonini berish mumkin.

6. Ijtimoiy media loyihalar. Ijtimoiy media loyihalar talabalarda jamiyat hayotida ijtimoiy faollik hamda mas'uliyatlilikni rivojlantirishga yo'nalgan bo'ladi. Bu loyihalar media vositasida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihani amalga oshirishni maqsad qiladi. Loyiha g'oyasi asosan ijtimoiy mavzuni media vositasida rivojlantirish, shakllantirish va tarqatish, natijada ijtimoiy mavzuga keng jamiatchilik e'tiborini qaratishni maqsad qiladi.

Ijtimoiy media loyihalari talabalarining televideniye dasturlari, radiolar, internet portallari, ijtimoiy tarmoq saytlari, ijtimoiy tarmoqdan foydalanadigan mobil ilovalar, YouTube kanallari, bloglar va boshqa media vositalardan unumli va maqsadli foydalanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarida mediamadaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatni uch guruhga ajratish mumkin

- mediamadaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ faoliyat;
- talabalarining media-didaktik kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat;
- mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan kreativ faoliyat.

Modelning yana bir tarkibiy qismi "Mediamadaniyatni rivojlanish ko'rsatkichlari" deb nomlanadi. Bu ko'rsatkichlar bo'lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlanganlik ko'rsatkichlari va ularning mazmunini belgilab beradi. Shartli ravishda mazkur ko'rsatkichlarni 5 ta darajaga bo'lindi:

1. Mediabilimdonlik – media sohasidagi bilimlarni dastlabki shakllantirish bosqichi bo'lib, bunda talabalar media haqidagi klassik axborot va innovatsion yangiliklarni bilishini qamrab oladi. Bu ko'rsatkich taqqoslash, manbalar tahlili, axborotni obyektiv va subyektiv baholash, axborotni ilmiy baholash kabilarni qamrab oladi. Bu ko'rsatkich talabalarni analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlashni, kommunikativlikni rivojlantirilganligini belgilab beradi.

2. Mediaiste'molchilik – axborotlashgan jamiyatda axborotni

“iste’mol qilish” va bunda axborotning aniqligi, xolisligi, ishonchliligi va manbalarga asoslanganligi nazarda tutiladi. Mediadan repsektiv foydalanishda media sohasida qobiliyat va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

3. Mediatanqid – media, mediamanbalar, media resurslarni asosli tanqid qilish va qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmasini tavsiflaydi. Bu talabalarning kognitiv faolligini, tanqidiy va ijodiy fikrlashni, kommunikativligini hamda refleksiyaning rivojlantiradi.

4. Mediaraqobat – media sohasidagi takliflar o‘rtasidagi so‘f raqobat muhitini anglash va asosli mediamanbalarga tayongan holda ustuborlik belgilash ko‘nikmasi. Raqobat media vositalari, resurslari o‘rtasida emas, balki “iste’molchilar” o‘rtasida ham bujudga keladi. Har bir shaxsning ma’lum bir mediadan foydalanish yoki foydalanmaslik qarori uning to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasi bilan asoslanadi.

5. Mediakreativlik – medialar vositasida kreativ g‘oyalarni, loyihalarni amalga oshirish. Media ta’lim vositalaridan yuqori natijaga erishish uchun kreativ usullardan foydalana olishi mediakreativlikni tavsiflaydi. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida ta’limning barcha innovatsion media texnologiyalaridan unumli va maqsadli foydalan oladi hamda o‘z kreativ qobiliyati asosida yangi adaptiv metodlarni shakllantiradi. Mazkur darajalarning umumlashmasi mediamadaniyatni rivojlanganligini ko‘rsatib beradi.

Quyida tadqiqot ishi doirasida taklif etilgan oliy ta’lim muassasalari tyutorlari tomonidan talabalar guruhlarida mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari keltirib o‘tiladi:

**MEDIAMADANIYATNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN
FAOLIYAT TURLARI**

FAOLIYAT TURLARI	MAZMUNI
Mediamadaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan kurslar	Mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan kurslar real viziya bilan bog'liq mavzularga doir kurslarni tashkil etish. Oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan bunday kurslar talabalarning dolzarb mavzularni baholash, o'z munosabatlarini shakllantirish, tanqidiy baholash hamda mas'uliyatli yondashuvni professional darajada yetkazishga xizmat qiladi. Bunday kurslarning afzalligi talabalarda norasmiy shakllangan mediamadaniyat mazmunini mutaxassis ishtirokida yana bir mustahkam fikr sifatida shakllantirish yoki o'z fikrini o'zgartirishga yordam beradi.
Media etika	Talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirish mediaga doir qadriyatlar, me'yorlar va etikasiga doir tamoyillarni bilish talab etiladi. Talabaning mediamadaniyati ongli ravishda shaxsiy hamda jamiyat uchun ta'sirini anglashi media etikasini egallagani bilan bog'liq.
Medialarni tahlil qilish va mediatanqid	Talabalarda media mazmunni tanqidiy tahlil qilish, tahlil qilish va savollar shakllantirish, shuningdek mazmunni takomillashtirishda manipulyatsiya texnikalari qo'llanilganligini aniqlash olish qobiliyatini shakllantirishda mazkur metod qo'l keladi.
Refleksiya va muzokara	Talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirishda refleksiya va muzokara uchun imkoniyat yaratish eng samarali usullardan hisoblanadi. Bu orqali talabalar ma'lum bir mavzuga doir mediamateriallarni turli qarashlarda tahlil qiladilar va o'z munosabatlarini bildirishni mashq qiladilar. Bu orqali talabalar mediamaterial mazmunini interpretatsiya qilishni va ularni tanqidiy baholashni o'rganadilar.
Medialoyiha va kreativ media faoliyat	Talabalarning medialoyihalar shakllantirishi va kreativ media faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Bu orqali talabalar medianing mazmuni shakllantirish hamda o'zlarining kreativ fikrlashini rivojlantirishga erishadi. Bu ularning mediakompetentligini rivojlantiradi.

Ishtirok etish va ommaviy axborot vositalarida faollikni oshirish	Talabalarning media bilan bog‘liq faoliyat yoki loyihalarga jalb etish har doim samarali bo‘lib, bu orqali ular o‘z fikrlarini erkin bildirish, fikr-mulohaza bildirish olishi hamda o‘zining medialar vositasida ta’sir kuchini baholash bo‘yicha ijtimoiy tajribalarga ega bo‘ladilar.
Ommaviy axborot vositalarini tartibga solish va ma’lumotlarni himoya qilish	Talabalarga media iste’molchilikning huquqiy aspektlariga (ma’lumotlar xavfsizligi, mualliflik huquqi, onlayn xavfsizlik, raqamli texnologiyalardan foydalanishda mas’uliyatli munosabat) doir amaliy seminarlar tashkil etish.

Olim B.Boylesning mulohazalarini tahlil qilgan holda virtual olamning asosiy konstruktsiyasini axborot tashkil etishiga ishonch hosil qilinadi. Aynan axborotga ega bo‘lishlilik virtual borliqqa bo‘lgan qiziqish, ehtiyojni shakllantiradi. Axborot deganda atrof-muhitdan (tabiatdan yoki jamiyatdan), sezgi a’zolari orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma’lumot tushuniladi. Axborotlar tabiatni kuzata turib, insonlar bilan muloqotda bo‘lib, kitob va gazetalar o‘qib, televizion ko‘rsatuvlar ko‘rib shakllanadi.

Axborotlar beshta muhim hossaga ega:

- axborotni yaratish;
- qabul qilish;
- saqlash;
- ishlov berish;
- uzatish xossalari.

Talabalarda mediamadaniyat rivojlanganligi ularning “axborot iste’molchisi” sifatida shakllantiradi. Talabalarning axborotdan foydalanish samaradorligi va imkoniyati quyidagi sifat ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- axborotning reprezentativligi;
- mazmundorligi;
- yetarliligi;
- dolzarbligi;
- o‘z vaqtidaligi;

- aniqligi;
- ishonarliligi;
- barqarorligi.

Axborotning sifat ko'rsatkichlari talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirishda tayanch tushunchalarni shakllanishiga asos bo'ladi.

Muhandis-pedagoglar ikki mustaqil faoliyatning integratsiyalshuvi asosida shakllantirilgan bo'lib, texnika va texnologiya sohasida faoliyat ko'rsatuvchi muhandis hamda kasb-hunar kollejlarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar faoliyati aynan muhandis-pedagog faoliyatida mujassamlashadi.

Muhandis-pedagoglar asosiy faoliyatining mazmuni ham fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot hamda jamiyat ijtimoiy hayotidagi jarayonlarni kichik va o'rta mutaxassislarni tayyorlash mazmuniga pedagogik yondoshib, ularga mutaxassislik bilimlarini yetkazishni maqsad qiladi.

Yosh jihatidan 15-25 yoshdagi yoshlar bilan ishlashi va bu yoshdagi ta'lim oluvchilarning axborot texnologiyalari, medialar bo'yicha yetarli bilim, tushuncha hamda malakalarga ega ekanligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishda mediadan foydalanish ko'p jihatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Jumladan, ta'lim oluvchilarning yosh va fiziologik rivojlanishini hisobga olgan holda media vositalar tanlash, qo'llash lozim bo'ladi.

Tadqiqot ishi doirasida bir qator mualliflik variativ amaliy texnologiyalar shakllantirildi:

1. “Mediadidaktik soddalashtirish” texnologiyasi. Ma'lumki, mediamalumotlar jamiyatda keng jamoatchilikka, ko'plab maqsadli guruhlar uchun shakllantiriladi. Bo'lajak muhandis-pedagoglar keng jamoatchilik uchun shakllantirilgan media ma'lumotlarni o'quv guruhlari, ta'lim yo'nalishlari hamda o'quv-me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan talablarni hisobga olgan holda didaktik material ishlab chiqadi. Talabalar rasmiy media manbalardan o'quv mavzusiga mos keluvchi media ma'lumotlarni tadqiq qiladi va o'quv maqsadiga muvofiq mediadidaktik soddalashtirish orqali didaktik material ishlab chiqadi. “Yangi

O‘zbekiston” elektron gazetasida “Korxonalar tomonidan 780,27 tonna sanoat chiqindilari sotildi” maqolasi keltirilgan. Talabalar maqolani to‘liq o‘rganib chiqib, quyidagi bosqichlarni amalga oshirgan holda mediadidaktik soddalashtirish vositasida didaktik material shakllantiradilar:

Texnologiya nomi: Mediadidaktik soddalashtirish

Topshiriq uchun mediamanba: <https://yuz.uz/uz/news/korxonalar-tomonidan-78027-tonna-sanoat-chiqindilari-sotildi?view=ozbekiston-biznes-doiralari-innovatsion-rivojlanish-yolida>

1. Maqola rasmiy manbada keltirilganmi? Ma’lumotlar yangi va dolzarbmi? Muallif kim?
2. Mediamal’umot o‘quv mavzusiga to‘liq yoki ma’lum bir qismi uchun foydalimi?
3. Ta’lim oluvchilarning yosh va rivojlanishiga mos keluvchi ma’lumotlarni ajrating.
4. Berilgan ilmiy, texnikaviy ma’lumotlarni ta’lim oluvchilarga moslab soddalashtiring. Ma’lumotlarni tanlab olishda ta’lim oluvchilarning mazkur ma’lumotni tushunishi uchun zaruriy dastlabki ma’lumotlar shakllanganmi?
5. Ta’lim oluvchilar tomonidan mazkur mediamal’umotni o‘qish natijasida hosil bo‘ladigan savollarni taxmin qiling.
6. Tanlab olingan ma’lumotlarga mos ravishda grafika, jadval, slaydlardan foydalaning.

Tadqiqot ishi doirasida mazkur texnologiya tajriba-sinov obyektlarida qo‘llanildi. Texnologiyaning samaradorligi quyidagi baholash mezonlari asosida baholandi:

№	BAHOLASH MEZONLARI	Samaradorligi, % da
1	Texnologiya kasbiy-pedagogik faoliyatimda qo‘llash uchun mazmunan qo‘l keladi.	82
2	Texnologiyadan foydalanish mediamadaniyatni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoit yaratadi.	86
3	Texnologiya fan mazmunini didaktik jihatdan maqsadga yo‘naltirishga xizmat qiladi.	80
4	Texnologiya mediamanbalardan foydalanish, taqqoslash hamda ta’lim maqsadidan kelib chiqqan holda foydalanishni ta’minlaydi.	84

2. “Mediatanqid” texnologiyasi. Talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirishda ularning mediama’lumotlarni tanqidiy baholay olishi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kundagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘lajak muhandis-pedagoglardan bilim, ko‘nikma va tajribalar kerakligini taqozo etadi.

Quyida topshiriq misolida mazkur texnologiya mazmuni keltirib o‘tamiz.

TOPSHIRIQ. Ijtimoiy tarmoqlarda bildirilgan izohlarni tanqidiy baholang hamda o‘quvchilar uchun kamida 250-300 ta so‘zdan iborat xulosa shakllantiring. Xulosa shakllantirishda uning ta’sirchanligi, tushunarligi hamda bayon qilish uslubiga e’tibor qarating.

Tadqiqot ishi doirasida mazkur texnologiyadan foydalanildi. Talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlar natijasida shakllantirilgan xulosalardan namuna quyida keltirilgan:

Internet xuddi virtual durbinga o‘xshaydi. U orqali dunyoning boshqa burchagini bemalol ko‘ramiz. Deylik, hozirning o‘zidayoq qaysidir nuqtadagi qandaydir kichik millatning hayot tarzi va madaniyati bilan tanishish mumkin. Xuddi shunday biz ham boshqa xalqlarning “tasvir obyekti” bo‘la olamiz. O‘ylab ko‘ring, xalqimizning ma’naviyati va saviyasi borasida o‘zgalarda qanday taassurot qoldira olamiz?!

Umuman, ma’naviyatimiz va saviyamiz haqida uzoq gapirish mumkin. Masalaga qaysi tomondan kelish haqida uzoq o‘yladik va tahlil obyekti sifatida ijtimoiy tarmoqlarni ya’ni, YouTube platformasi va Instagram tarmog‘ini tanladik. Ayni damda bu platformalardagi noodatiy va saviyasiz izohlarni tasniflashga harakat qilamiz.

Men birinchiman... Men esa ikkinchi...

Sahifaga video yoki post yuklanishi bilan birinchilardan izoh yozishga qiziqadiganlar bor. Yetmaganiga ular qoyilmaqom ishni bajargandek men birinchiman, men ikkinchiman deb maqtanishni ham o‘zlariga ep ko‘rishadi.

Tabiiyki, bu izohlar muallifga hech qanday manfaat keltirmaydi, faqatgina ayrim yurtdoshlarimiz oldida kulgiga qoladi.

Hammasi layk uchun...

Ijtimoiy tarmoqlardagi yirik tendensiyalardan biri “layk”lar ortidan quvishdir. Aynan “layk”ni maqsad qilgan internet foydalanuvchilari turli mazmundagi izohlardan foydalanishadi:

– Iltimos, menga layk bosing;

- Ota-onasini hajga olib boraman deganlar layk bossin;
 - Ota-onamni yaxshi ko‘raman deganlar layk bosing, qani, necha kishi ekanmiz;
 - Layk bosgan odamning puli ko‘payib ketsin...
- Izoh uchun bosilgan “layk” sahifa egasiga deyarli manfaat keltirmaydi. Bu odat shunchaki bemaqsadlik va yuzaki fikrlash orqali paydo bo‘lgan.

3. “Mediamahsulot” ishlab chiqish. Bo‘lajak muhandis-pedagoglarning kasbiy-pedagogik faoliyati mazmunidan kelib chiqib, media texnologiyalardan foydalangan holda mediamahsulot ishlab chiqish hozirgi kunda pedagogik amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Media texnologiyalar hamda dasturiy ta‘minotdan samarali foydalangan holda mediamahsulot ishlab chiqish pedagogik dastur asosida shakllanadi. Quyida mediamahsulot uchun pedagogik dasturga doir topshiriq keltirilgan:

Kasb-hunar kollejining “Avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish” mutaxassisligi o‘quvchilari uchun “Avtomobillar tuzulishi” fanidan “Sovutish tizimi” mavzusiga doir mediamahsulot pedagogik dasturini ishlab chiqing. Pedagogik dasturda quyidagilarga e‘tibor bering.

1. Mediamahsulot ishlab chiqishda kamida 1 ta mediamanbada foydalaning.
2. Mediamahsulotni dars mavzusi hamda dars bosqichlari nuqtai nazaridan loyihalang.
3. Mavjud bo‘lgan mediakontentlardan foydalaning hamda foydalanilgan manbalarni ko‘rsating.

Quyidagi manbada mediamahsulot namunasi keltirilgan.
<https://www.youtube.com/watch?v=A1GTvV3HG7w>

Yuqorida keltirilgan jadvallar tadqiqot ishi doirasida tanlangan mediamadaniyatni rivojlantirishga qaratilgan amaliy texnologiyalar samarador ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Mediamadaniyat ko'p qirrali tushuncha bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang ravishda mazmunan doimiy rivojlanib boradi. Hozirgi kunda mediamadaniyat asosan to'rt turga bo'linad: yozma, audial, vizual hamda texnik mediamadaniyat. Shaxsning mediamadaniyati esa quyidagi tarkibiy qismlarga ega: axborot faolligi, ma'lumotga bo'lgan o'z ehtiyojini to'g'ri shakllantirish qobiliyati, rivojlangan axborot motivatsiyasi, faollik, shu jumladan kognitiv va o'qish, qidiruv xatti-harakati, axborot faoliyati ko'nikmalarini egallash, shaxsiy axborot ehtiyojlarini tushunish darajasi, olinadigan ma'lumotlarni to'g'ri tanlash, tushunish va tanqidiy baholash qobiliyati, kommunikatsiya jarayonida ishtirok etish.

“Media madaniyat” axborot jamiyati madaniyatining alohida turi bo'lib, u turli manbalardan (radio, televidenie, gazeta, telefon, internet, og'zaki va yozma kommunikatsiyalar, mish-mishlar) olinadigan ma'lumotlarni idrok etish va ular bilan o'zaro munosabat qilish jarayonida shaxsning media vositalari orqali olingan ma'lumotlarni qidirish, tadqiq qilish va tahlil qilish, uni tanqidiy baholash, turli janrdagi media matnlarini yaratish qobiliyatida namoyon bo'ladigan bilimlari, his-tuyg'ulari, munosabatlari va xulq-atvor reaksiyalari to'plamidan iboratdir. Axborot madaniyati umumiy madaniyatning emas, balki ko'proq darajada kasbiy madaniyatning ko'rsatkichidir, ammo vaqt o'tishi bilan u har bir shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanishi mumkin, shuningdek “axborot madaniyati” tushunchasi insonlar hayotining axborot jihatini bilan bog'liq bo'lgan madaniyat qirralaridan birini tavsiflaydi. “Axborot madaniyati” va “mediamadaniyat” tushunchalari bir xil emas, ular ma'lum o'xshashliklari bilan bir qatorda tub farqlarga ham ega.

3. Media madaniyati vaqt o'tishi bilan rivojlangan va o'zgargan turli komponentlarni o'z ichiga oladi. Media madaniyatining eng muhim tarkibiy quyidagilar ekanligi ilmiy tahlillar asosida shakllantirildi: media mahsulotlar, media iste'moli, medialarni nazorat qilish, medianing ta'siri, mediainnovatsiya.

4. Mediamadaniyatning ajralmas sifatida mediaga qaramlikdan himoya qilish metodlarini bilish hisoblanadi. Pedagogik kuzatishlar hamda ilmiy tadqiqotlar asosida mediaga qaramlikni bartaraf etuvchi metodlar quyidagicha tizimlashtirildi: vaqt menejmenti, o'rganish muhiti, qat'iy yo'naltirilgan ta'lim, bir vaqtda ko'p vazifalarni bajarishdan saqlanish (Multitasking), chalg'ituvchi omillardan saqlanish, tanaffuslar, meditatsiya.

5. Izlanishlar davomida talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirishning keng tarqalgan, samarali turlaridan biri – ilmiy-ma'rifiy medialoyihalar ekanligi asoslandi. Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar talabalarning global va respublika miqyosida amalga oshirilayotgan voqealik, bo'lajak kasbiy faoliyatiga doir yangiliklar, muammolar bo'yicha ilmiy tahlil qilish, reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar shaxsiga hurmat va ta'lim mazmunida ijtimoiy tajriba, fikrlar xilma-xilligi, tashabbuskorlik, fikr-mulohazalarini ishonchli tahlil qilish imkoniyati hisobga olinadi. Tadqiqot ishi doirasida qo'llanilgan ilmiy-ma'rifiy loyihalar kvantativ jihatdan samarali ekanligini ko'rsatdi.

6. Tadqiqot doirasida talabalarda mediamadaniyatni rivojlantirish maqsadida quyidagi variativ amaliy texnologiyalar ishlab chiqildi va tajriba-sinov obyektlarida tadbiq etildi: ilmiy-ma'rifiy medialoyihalar hamda @mediadidaktik soddalashtirish“, „mediatanqid“, „mediamahsulot ishlab chiqish“. Mazkur texnologiyalar tajriba-sinov obyektlarida tadbiq etildi va samaradorlikka erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son; 02.04.2021-y., 06/21/6198/0269-son.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиялари. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – Б. 190-191.
4. Ablazov E.E. "Mediamadaniyat tushunchasi va uning XXI asrda tutgan o'rni". Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | Special Issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1385. – 12-b.
5. Aufenanger S. Medienpädagogische Projekte – Zielstellungen und Aufgaben. In: Dieter Baacke, Susanne Kornblum, Jürgen Lauffer, u.a. (Hrsg.) (1999). Handbuch Medien: Medienkompetenz / Modelle und Projekte. Bundeszentrale für politische Bildung , Bonn. 1999.
6. Babadjonov S.S., Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun diss... avtoref. – Toshkent: 2018.
7. Bpb (2010). Informationen zur politischen Bildung: Massenmedien. 2010. Online verfügbar unter:
8. Buvabaevna K.Y. Issues of Civil Literacy Development in the Education System // Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 5477-5489.
9. Buvabaevna K.Y. Legal basis of formation of civic culture in students kadirova yakitjan uvabaevna: legal basis of formation of civic culture in students // Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1.

10. Dorr A. Media Literacy. In: International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences. Vol. 14 / Eds.N.J.Smelser & P.B.Baltes. Oxford, 2001. – Pp. 9494 -9495.
11. Educating for the Media and the Digital Age // International Conference. – Vienna: UNESCO, 1999. – P. 273- 274.
12. Gershunskij B.S. Filosofija obrazovanija dlja XXI veka [Philosophy of Education for the 21st Century] / B.S.Gershunskij. – M.: Sovershenstvo, 1998. – 90 p.
13. Herzig B., Assmann A. School, Identity and Media // Springer, 2014. – P. 26 (242).
14. Hoffmann B. Medienpädagogik. Eine Einführung in Theorie und Praxis. Verlag Ferdinand Schöningh, Paderborn. 2003.
15. <https://www.researchgate.net/publication/314724552>.
16. <https://www.valamis.com/hub/lifelong-learning>.
17. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T.: Extremum-press, 2017.-20 (98)
18. Pedagog faoliyati va ma’naviyatini yuksaltirishda mediamadaniyat ta’siri // Research focus, VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2023,- 223-228
19. Potter J.W. The state of media literacy. 2010 Broadcast Education Association. Journal of Broadcasting & Electronic Media 54(4). 2010.
20. Potter J.W. Theory of media literacy: A cognitive approach, Thoasand Oaks, CA: Sage, 2004. – P. 12.
21. Prenskiy M. Digital Natives, Digital Immigrants//From On the Horizon (MCB University Press, Vol. 9 No. 5, 2001. – P. 31.
22. Rustamova N.R. (2021). Issues of Development of Students’ Media Competence Based on Vitagenic (Life) Experience. Journal of Physical Education and Sport®(JPES), 21(6), 2599-2616.
23. Rustamova N.R. Technology for the development of media culture of secondary school pupils (on the example of grades 7-9). Dissertation of the doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences. – Tashkent, 2019. – 42 p.
24. Ruzieva D. I., Rustamova N.R., (2021). Analysis of theoretical studies of the concepts of vitagen and vitagenic education. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил No4), 42-46.

25. [Sangeeta K.](#), Shailendra S. A Critical Analysis of Privacy and Security on Social Media / 2015 Fifth International Conference on Communication Systems and Network Technologies. Gwalior, India. Volume: 978-1-4799-1797-6/15. – P. 602-608. DOI:[10.1109/CSNT.2015.21](#).
26. Staiger M., Wichert, A. Medienbegriff – Medienkompetenz – Mediendidaktik. Perspektiven des Mediendiskurses // Metz B., Pfeiffer J., Staiger M., Wichert A. Lesen, Schreiben und Kommunizieren im Internet. Theorie und Praxis teilvirtueller Hochschullehre. – Herbolzheim: Centaurus_Verlag, 2004. – S.19-42.
27. Ta‘limni dasturiy vositalari yordamida rivojlantirish // <http://hozir.org/pedagogik-dasturiy-vositalar-v2.html?page=19>.
28. Tuomine S., Sirkku Kotilainen. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув амалий қўлланма. – Тошкент: Extrmum press, 2017. – Б. 13. (142).
29. Tuomine S., Sirkku Kotilainen. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув амалий қўлланма. – Тошкент: Extrmum press, 2017. – 142 б.
30. UNESCO [Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In: Education for the Media and the Digital Age. Vienna: UNESCO, 1999. – P. 273-274. Reprint in: utlooks on Children and Media. Goteborg: UNESCO & NORDICOM, 2001. – P.152.
31. UNESCO 2003; 2005; 2006.
32. UNESCO, 1984. Media education. Paris: UNESCO. – P. 8.
33. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy. – 60 p.
34. Алешин Л.И. Гуманитарная информатика: аспекты проблемы // Технологии информационного общества – Интернет и современное общество: труды VI Всероссийской объединенной конференции. СПб, 3-6 ноября 2003 г. – СПб.: СПбГУ, 2003. – С. 1-3.

35. Анреев А.А., Рубин Ю.Б., Титарев Л.Г. Кафедра в системе открытого образования Материалы кофференции “Образование в информационную эпоху” – М.: МЭСИ, 2001. – С. 90-100.
36. Атаян А. Информационная культура личности в условиях информатизации общества // Бюллетень ВИУ. 2001. Вып. №1(7).09. 2004 г.
37. Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси («Информатика ва ахборот технологиялари» ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер....Тошкент, 2018. – Б. 36-37.
38. Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим ташкилотлари педагогларнинг медиакомпетентлигини ривожлантиришнинг назарий- методик асослари. – Т., “Халқ таълими” илмий-методик журнали. 2016 йил 3-сон. – 24 б.
39. Гендина Н.И. Информационная грамотность и информационная культура личности: международный и российский подходы к решению проблемы // Проблемы образования. – №5–2007. – С. 58-69; Формирование информационной культуры личности: теоретическое обоснование и моделирование содержания учебной дисциплины / Н.И.Гендина, Н.И.Колкова, Г.А.Стародубова, Ю.В.Уленко. – М.: Межрегиональный центр библиотечного сотрудничества, 2006. – 512 с.; Медиа и информационная грамотность в обществах знания / Сост. Кузьмин Е.И., Паршакова А.В. – М.: МЦБС, 2013. – 384 с.
40. Гречихин А.А. Информационная культура: опыт определения и типологического моделирования // Проблемы информационной культуры: сб.статей. – М.: 1994. – С. 12- 39.
41. Григорьева И.В. Вовлечение студентов в активную медиадеятельность по созданию медиаобразовательного пространства педагогического вуза (из опыта работы) - Казань: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2008. С. 264-270
42. Григорьева И.В. Вовлечение студентов в активную медиадеятельность по созданию медиаобразовательного пространства педагогического вуза (из опыта работы). – Казань: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2008. – С. 264-270.

43. Дендева Б. Информационные и коммуникационные технологии в образовании // Монография. – М.: 2013. – С. 318.
https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000210843_rus
44. Забелина Н.А., Менталитет и ментальность / <https://api-mag.kursksu.ru/media/pdf/001-04.pdf>.
45. Иванова Л.А. Формирование медиакоммуникативной образованности школьников – подростков средствами видео /на материале уроков французского языка: дис.... канд. пед. наук : 13.00.01/ Л.А.Иванова. – Иркутск, 1999. – 204 с.
46. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси / Масъул муҳар.: Р.Джураев. Муал.: Н.Муслимов ва б. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2013. – Б. 9 (70).
47. Кириллова Н.Б. Медиакультура как интегратор среды социальной модернизации: дис. ... д-ра культурологических наук: 24.00.01. – Теория и история культуры. – М.: 2005. – 354 с.
48. Кириллова Н.Б. Медиа-культура: от модерна к постмодерну. – М.: Академический проект, 2005. – С. 31-33.
49. Коновалова Н.А. Развитие медиакультуры студентов педагогического вуза: дисс. ... канд. пед. наук: 13. 00. 08. – Теория и методика профессионального образования. – Вологда, 2004. – 308 с.
50. Маматова Я., Сулайманова С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма. –Т.: “Extremum-press”, 2015. – Б. 52.
51. Медведева Е.А. Информационная культура как предмет преподавания в системе высшего образования // Информатизация и проблемы гуманитарного образования: межд.науч.конф.: тезисы докл. Краснодар, 1995. – С. 67-68.
52. Медиакультура и образование: особенности взаимодействия и развития. – // <https://topuch.ru/referat-mediakuletura-i-sovremennoe-obshchestvo/index.html>.
53. Мезенцева Д.А. Формирование медиакомпетенции у студентов из КНР в процессе самостоятельной учебной работы с текстами англоязычных сми.: автореф. диссертации на соискание ученой

- степени кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург. 2015.
54. Мясникова Т.И. Развитие медиакомпетентности студентов университета: автореф. диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Оренбург. 2011.
 55. Нишоналиев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития / В сб. материалов научно-практической конференции “Актуальные вопросы профессионального воспитания молодежи”. –Алма Ата: респ. издат. каб. казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2010. – С. 15-20.
 56. Очерет Ю. Формирование информационной культуры личности в условиях информационно-библиотечных учреждений // Информационная культура в контекстеновой парадигмы образования: проблемы, поиски, решения. – Кемерово: ОблИУУ, 2001. – С.150.
 57. Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М.Бим-Бад; Редкол.: М.М.Безруких, В.А.Болотов, Л.С. Глебова и др. – М.: Большая Рос. энцикл., 2002. – С. 138.
 58. Понимание медиа. – М.: Жуковский, 2003.
 59. Сидорина Н. А. Социально-педагогическое сопровождение развития одаренности подростков в детском оздоровительном лагере : Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 Кострома, 2006 226 с. РГБ ОД
 60. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности / под ред. А.В.Федорова. – Таганрог: Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та. – 2010. – 24 с.
 61. Тоффлер Э.Третья волна. – М.: АСТ, 1999. – 398 с.
 62. Ўзбек тилининг изохли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрири ҳайъати: Э.Бегматов ва б. – Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 416.
 63. Умарова З. Мустақил таълим жараёнида медиаресурсларнинг аҳамияти / Замонавий таълим/ Современное образование, 2021, 6 (103). – 18-23-б.
 64. Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келажагининг пойдевори сифатида. “Илмий-педагогик ва ўқув-методик

- нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т.: 2017. – 223 б.
65. Умурзакова Б.А. Медиатаълим орқали медиамаданиятни ривожлантириш илмий-педагогик асослари ва зарурати / Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, Jild:03|Nashr:03|март 2022. – 287-292-б.
66. Усов Ю.Н. Экранные искусства — новый вид мышле-Усов Ю.Н. Экранные искусства – новый вид мышления // Искусство и образования. 2000. – №3. – С. 48-69.
67. Федоров А.В, Медиаобразование в зарубежных странах. Монография. – Таганрог: Изд-во. Кучма, 2003. – С. 238.
68. Федоров А.В. Медиаобразование: история, теория и методика. – Ростов н/Д.: ЦВВР, 2001. – С. 19.
69. Федоров А.В. Медиаобразование: история, теория и методика. – Ростов н/Д.: ЦВВР, 2001. – С. 65.
70. Федоров А.В. Развитие медиакомпетенности и критического мышление студентов педагогического вуза. МОО ВПП ЮНЕСКО Информация для всех. 2007. – С. 616.
71. Федоров А.В., Челышева И.В. Сравнительный анализ медиаобразовательных моделей // Медиаобразование. 2007. №2. – С. 64. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-mediaobrazovatelnyh-modeley>.
72. Фридланд А.Я. Основные понятия информатики: информация – информационный процесс – информационная культура // Информатика и образование. 2003. – № 7. – С. 120-124.
73. Хлызова Н.Ю Медиаобразование как педагогическое понятие в отечественных и зарубежных педагогических исследованиях// Проблемы современного образования: Вестник ИГЛУ. Сер. педагогика и психология. — Иркутск: ИГЛУ, 2007. – 35 ст.
74. Челышева И.В. Теория, методика и практика развития медиакомпетентности современного педагога: монография / И. В.Челышева. – Москва, Берлин: Директ-Медиа, 2019. – 149 с.
75. Шариков А.В. Экспериментальные программы меди-Шариков А.В. Экспериментальные программы медиаобразования для старших классов школ гуманитарной ориентации [Текст] /

- А.В.Шарилов, Е.А.Черкашин. – М.: Академия педагогических наук, НИИ средств обучения, 1991. – 43 с.
76. Buckingham D. Media education: a global strategy for development. A policy paper prepared for UNESCO, sector of communication and information. Online:https://www.lmz-bw.de/fileadmin/user_upload/Medienbildung_MCO/fileadminbibliothek/buckingham_media-education/buckingham_media-education.pdf 2001. – P. 2.
77. <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/media-literacy>
78. Baacke D. On the concept and operationalization of media competence. Online: http://www.produktive-medienarbeit.de/ressourcen/bibliothek/fachartikel/baacke_operation_alisierung.shtml, 1998.
79. https://www.google.de/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=2&ved=0CCgQFjAB&url=http%3A%2F%2Fwww.bpb.de%2Fsystem%2Ffiles%2Fpdf%2F9H7ERR.pdf&ei=0pg2VaGJFMjraPHmgLgN&usg=AFQjCNGGc_5xQzuCO6RlMz-_3crfnph7AQ&bvm=bv.91071109,d.ZGU&cad=rjt).

